



Tadjqiqot.uz

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

FEVRAL
№61
SAMARQAND



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИИФ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2024



УЎК 323(575.1)(063)
КБК 66.3(5Ў)я43
Й-18

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 61-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 29 февраль 2024 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2024. - 128 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Ҳамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт -

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -

Phd Воҳидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт -

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қажхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қажхоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING POZITSIYASI

Israilova Zarina Sadriddinovna

yuridik fanlari bo'yicha falsa doktori (PhD),
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq va ommaviy huquqiy fanlari” Kafedrası dotsenti

Tursunbayev Ulug`bek.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining
xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi.

Телефон: +998993585637

Аннотация: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari qay darajada ta'min etilgani va inson huquq va erkinliklarini O'zbekiston Respublikasida kasb etadigan pozitsiyasini ochib beradi. Shuningdek, quyidagi maqolada siz insoniyat tarixi va O'zbekiston Respublikasi tarixida inson huquqlari bo'yicha keskin o'zgarish yasagan xalqaro hujjatlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Pozitsiya, normativ-huquqiy hujjat, “Xabeas korpus” instituti, “Aybsizlik prezumpsiyasi”, rezolutsiya, revolutsiya, deklaratsiya.

Har bir shaxs yaxlit individ, ya'ni tabiatning bir qismi va aynan insonga tabiat tomonidan in'om etilgan bir qancha ne'matlar mavjud. Hozirda bu tushuncha odamlar ongida inson huquq va erkinliklari sifatida birmuncha mukammalroq gavdalangan va shakllangandir. Har qanday shaxs dunyoning istalgan yerida o'z huquq va erkinliklariga jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar egalik qilishi va ularni amalga oshirishga haqli. Insonning bu kabi huquqlarga ega bo'lishi uchun, tarixdan ma'lumki, bashariyat bir qancha huquqiy va siyosiy bosqichlarni bosib o'tdi. Gohida, bu turli xil keskin revolutsiyalar ko'rinishida bo'lsa, gohida faol islohotlar ko'rinishida vujudga keldi. 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining uchinchi sessiyasida 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” insoniyat tarixida inson huquq va erkinliklari borasida tub o'zgarish yasagan tarixiy hujjat sifatida muhim joy egallagan. Aynan ushbu deklaratsiya matni hamma odamlarga taalluqli huquqlarni global aniqlab bergan birinchi hujjatdir. Ho'sh, o'z navbatida bir savol paydo bo'ladi, yurtimiz O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining roli qanday va qay darajada bunga davlat miqyosida e'tibor berilyabdi?

O'zbekiston Respublikasi dunyo xaritasida 1991-yil 31-avgustdan suveren davlat sifatida vujudga keldi va bu mustaqillikning tub mohiyati ham aslida xalqimizning insoniy huquq va erkinliklarini ta'minlashdir.

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari jamiyatimizda ustuvor huquq hisoblanadi va bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi o'rinda berilganidan ham ko'rinadi. Insonning huquq va erkinliklari davlatning bosh qomusi bo'lmish Konstitutsiyada mustahkamlanishi, ushbu davlatda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash birinchi darajali vazifa ekanligidan dalolatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining butun boshli “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb atalmish II bobi nafaqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining balki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, chet el fuqarolarining huquqlarini ham to'laligicha va batafsil o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida Respublikamiz mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq inson huquqlarini vujudga keltirish, ta'minlash va muhofaza etish borasida to'g'ri yo'lda ekanligiga yaqqol isbotdir. Davlatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanganini eng ko'zga ko'rinarli dalili bu Konstitutsiyamizning 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi va inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi mustahkamlab qo'yilganligidir. Inson hayoti eng oliy huquq ekanligidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka



erishgach o'lim jazosini qo'llashni kamaytirishga harakat qildi, albatta, buni birdaniga amalga oshirishning imkoni yo'qligi tufayli bu jarayon bosqichma-bosqich tizimli ravishda bajarildi. Xususan, raqamlarga yuzlanadigan bo'lsak, mustaqillikka erishilgan vaqtda Jinoyat kodeksining 30 dan ortiq moddalarida o'lim jazosi belgilangan bo'lsa, 1994-yilda 13 ta moddada, 1998-yilda 8ta moddada, 2001-yilda 4ta moddada o'lim jazosi ko'zda tutildi [2]. Hozirda esa Jinoyat kodeksining hech qaysi moddasida o'lim jazosi sanksiya sifatida qayd etilmagan [3].

O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida bir qancha muhim organlar mavjud va bu organlar mustaqillikning ilk yillaridan buyon samarali faoliyat yuritmoqda desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Parlamenti inson huquqlari bo'yicha vakillik instituti – Ombudsman va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan Milliy markaz organlari yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakillik instituti birinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning 1995-yil fevral oyidagi birinchi sessiyasida ta'sis etildi. Shuningdek oradan ikki yil o'tgach Oliy Majlisning 1997-yil 24-apreldagi sakkizinchi sessiyasida esa, “ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun bir palatali parlament sharoitlarida ombudsmanning huquqiy qoidalarini belgilab berdi. Shuni qayd etish joizki, ushbu Qonun MDH mamlakatlari orasida birinchilar qatorida qabul qilingan bo'lib, ko'plab mamlakatlar ombudsman institutini tashkil etishda O'zbekiston modelidan foydalanishdi. Bu esa yurtimiz inson huquqlari borasida doimo faol bo'lganligiga dalildir. Hozirda yurtimizda har qanday shaxs ombudsman yordamidan keng ko'lamda foydalanish huquqiga ega. Buning uchun yetarlicha islohotlar amalga oshirilgan va amalga oshirilmoqda [4].

Inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda yana bir muhim bo'g'in hisoblanuvchi organ – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi 1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari va erkinliklari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Yanada ushbu organning vazifasiga oydinlik kiritish uchun uning quyidagi ta'rifiga nazar tashlash lozim, ya'ni Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xalqaro huquqning inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan prinsiplari va me'yorlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarini va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha davlatga qarashli tahlil, maslahat, idoralararo muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. [5] Shu o'rinda, Milliy markazning xalqaro hamkorligiga ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, YXHTning O'zbekistondagi Loyihalar Koordinatori, Xalqaro mehnat tashkiloti, O'zbekistondagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, YuNESKO, YuNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg'armalarning vakolatxonalari bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Faqatgina milliy huquq tizimimiz bilan cheklanib qolmay xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda insonning huquqlari va erkinliklarini pozitsiyasini mustahkamlash uchun yuqorida aytib o'tilgan organlarning mavjudligi, albatta, davr talabi. Chunki har qancha inson huquqlari deb bong urulsayu lekin bu borada tegishli mexanizm ishlab chiqilib, amalga tatbiq etilmasa, davlat miqyosida inson huquqlarini ta'minlash mushkulligicha qoladi.

Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanganligini isbotlovchi yana bir muhim fakt mavjud. Bu O'zbekiston Respublikasi qonunchligida “Xabeas korpus” institutining ya'ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokurordan sudga o'tkazilishini joriy etilganligidir. Bu masalaning mohiyati borasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday degan edi: “Bu borada “Xabeas korpus” institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipal qadam bo'ldi”[6]. 2023-yil 30-aprelda mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan inson huquqlari va erkinliklari borasida zamon talabi doirasida chuqur islohotlar o'tkazilib, zamon talabiga mos keluvchi Konstitutsiya loyihasi xalqimiz tomonidan tantanali qabul qilindi. E'tiborga molik jihati shuki, Konstitutsiyaning 27-moddasida shaxsni sudning ruxsatisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi qayd etilgani aynan “Xabeas korpus” institutini milliy huquq tizimimizda samarali ishlashidan dalolat beradi va bu insonning shaxsiy huquq va erkinliklari Konstitutsiya darajasiga ko'tarilganligiga yorqin



misol bo`la oladi. Nafaqat Konstitutsiyamizning yuqoridagi moddalari balki, 28-modda “aybsizlik prezumpsiyasi”, 29-modda “yuridik yordam olish”, 31-modda “ uy-joy va shaxsiy hayot daxlsizligi”, 33-modda “fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi”, 35-modda “vijdon erkinligi” kabi insonning shaxsiy huquqlari; 41-modda “ har kim mulkdor bo`lish” huquqi yoki 50-modda “bilim olish”, 51-modda “ Oliy ta`lim olish”, 53-modda “ijodiy erkinlik” singari ijtimoiy va madaniy huquqlarning va milliy huquq tizimimizda mavjud boshqa normalarning mavjudligi, yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarining yuksak ta`min etilganligiga yaqqol dalil bo`la oladi [7].

Demak, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir tekisda ishlashi uchun yuqoridagilarni barchasi yetarli bo`la oladimi? Yo`q albatta, chunki hali takomillashtirilishi kerak bo`lgan bir qancha jihatlar mavjud. Masalan, hozirgi raqamli texnologiyalar davrida insonlarning kiber-xavfsizlik masalasi dolzarb muammo bo`lib qolmoqda. Zamon talabidan kelib chiqqan holda ushbu jabhada ham manfaatdor insonlarning tegishli huquqlari va erkinliklari mayda detallargacha qamrab olinishi kerak deb o`ylayman. Shu bilan birgalikda faqat davlat organlari tegishli huquqlarni ta`minlabgina qolmay, inson va fuqarolarning o`zlari ham o`z huquqiy ong va madaniyatlarini doimiy yuksaltirib borishlari zarur. Bunda ikki taraf, davlat va xalq yaxlit bir-birini to`ldiruvchi sxema sifatida ishlashi lozim va aynan mana shu jihat inson huquqlari ta`minlanishida hal qiluvchi nuqta bo`ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxti

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/22/un-human-rights/>
2. <https://lex.uz/docs/-1264447>
3. <https://lex.uz/acts/-111453>
4. https://tsil3.ucoz.net/news/ombudsman_institutini_vujudga_kelishi/2011-10-30-3
5. <https://lex.uz/docs/-501797>
6. <https://lex.uz/docs/-1322717?ONDATE=29.07.2021%2000>
7. <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. Исраилова Зарина Садриддиновна. О некоторых в опросах конституционной реформы опыт Узбекистана ТЖЛ, 2023, ISSN 2249-9806 С.40-45
9. Исраилова Зарина Садриддиновна. Конституция – основа свободной и благополучной жизни народа. ТЖЛ, 2023, ISSN 2249-9806. С.46-49



ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРИНИНГ
ХУҚУҚИЙ МАҚОМИ: НАЗАРИЙ-ХУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ

Мамбетназаров Генжемурат Джумабаевич,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
мустақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ: Мазкур тезисда Қорақалпоғистон Республикасининг маҳаллий вакиллик органларининг ҳуқуқий мақомига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда ушбу мавзу доирасида тадқиқотлар олиб борган олимлар, мутахассислар фикр-мулоҳазалари асосида атрофлича таҳлил қилинган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: кенгаш, мақом, туман, шаҳар, вакиллик, маҳаллий, фаолият.

Давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқий мақоми уларнинг ваколатлари, фаолият йўналишлари ва ташкилий-ҳуқуқий асослари билан белгиланади. Шужумладан, қонунчиликдан келиб чиқиб қайд этиш мумкинки, туман ва шаҳар халқ депутатлари Кенгашларига давлат ҳокимиятининг вакиллик органи сифатида умумий бўлган ижтимоий-иқтисодий ривожланиш вазифалари амалга ошириш доирасида аниқ ваколатлар берилганлиги, уларнинг ҳуқуқий мақомининг асосий белгисидир.

Халқ депутатлари маҳаллий Кенгаши атамаси, аниқроғи туман, шаҳар ёки вилоят аҳолисининг манфаатларини ифода этувчи депутатларнинг кенгаши, йиғилиши маъносини англатади[1].

Қорақалпоқ ҳуқуқшунос олими Ж.Ермашевнинг фикрича, маҳаллий кенгашлар мақоми элементларининг энг муҳим хусусиятлари: уларнинг функционал мақсади, ташкил этиш ва фаолиятининг асосий тамойиллари, ваколати, мустақиллик кафолатлари, ташкилий-ҳуқуқий иш шакллари тизими ва жавобгарлик механизми тартибга солиниши кўзда тутилади[2].

Ҳуқуқшунос олима З.Реймованинг фикрича, “Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий Кенгашининг ҳуқуқий статусига қисқача тўхтаб ўтсак. Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудидаги халқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашлари ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари, шунингдек, ўз регламентига мувофиқамалга оширади. Қорақалпоғистон Республикасида халқ депутатлари Кенгашлари туманларда ва шаҳарларда (туман бўйсинувидаги шаҳарлардан ташқари) ҳуқуқий вакиллик ҳокимият органлари ҳисобланади”[3].

Қорақалпоғистон ҳуқуқшунос олими С.Ниетуллаевнинг фикрича, “халқ депутатлари туман ва шаҳар кенгаши депутатларининг маънави Кенгаш депутатларининг ҳуқуқ, мажбуриятлари ва депутатлик ишининг асосий мазмунини белгилаб беради”[4].

Қорақалпоғистонда туман ва шаҳар халқ депутатлари Кенгашлари ўз ҳудудида республиканинг қонун чиқарувчи органи – Қорақалпоғистон Республикасининг Жўқорғи Кенгесига муайян маънода ўхшаш бўлган вазифаларни бажаради. Хусусан, қарор шаклидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш, ҳоким ва давлат бошқаруви органлари раҳбарларининг ҳисоботларини тинглаш, ҳокимнинг тақдимига биноан масалаларни тасдиқлаш ва бошқалар.

Бу мавзуларда тадқиқотлар қилган Ж.М.Ермашевнинг таъкидлашича, “ижроия органларнинг вакиллик органларидан ажралиши уларнинг ролини камайтирмади, аксинча, уларнинг мустақиллигини таъминлади ва ижроия органларнинг вакиллик органлари ишларига аралашувида чек қўйди. Натижада аниқ белгиланган вазифаларга эга вакиллик органлари вужудга келди. Қорақалпоғистон Республикасининг маҳаллий вакиллик органлари бугунги кунда жуда катта ваколатларга эга бўлиб, улар маҳаллий барча масалаларни ҳал этишга ҳақли”[5].

Фикримизча, **маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ҳуқуқий мақоми** – деганда уларнинг ҳуқуқий ҳолатини, яъни маҳаллий кенгашларни ташкил этилиши тартиби, ваколатлари ва уларнинг амалда бўлиши муддати, кенгашлар фаолиятининг кафолатлари ва боғлиқ ташкилий-ҳуқуқий муносабатлар мажмуини тушуниш ўринли.

Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий Кенгашларининг ҳуқуқий мақомига кирувчи масалаларни соҳага оид қонунчилик нормалари асосида қуйидагича таҳлил қилиш мумкин.

1) Маҳаллий Кенгашларни ташкил этилиши тартиби. Кенгашлар вакиллик органлари бўлганлиги сабабли, албатта сайлов йўли билан ташкил этилади. Халқ депутатлари туман



ва шаҳар Кенгашларининг депутатлари сайловларига тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказиш билан боғлиқ муносабатлар сайлов қонунчилиги билан тартибга солинади.

2) **Маҳаллий Кенгашлар ваколатлари.** Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида Қонунга кўра, аynи вақтда Халқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашлари ҳудудларни умумий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш вазифаларини амалга оширишда юқори турувчи қонунчилик ҳужжатлари ижросини ва давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари билан фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ўртасидаги алоқаларни, шаҳар, туманни бошқаришга аҳолини жалб этишни таъминлаш доирасида тегишли ваколатларни амалга оширади.

3) **Маҳаллий кенгашлар фаолиятидаги кафолатлар.** Халқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашлари фаолияти мустақиллиги аynи вақтда белгиланди. Яъни, 2024 йил 2 февралдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида “давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари томонидан маҳаллий Кенгашлар фаолиятига аралашшига йўл қўйилмаслиги”[6] белгилаб қўйилди. Шунингдек, амалдаги қонунчиликда маҳаллий кенгашлар фаолиятининг айнан кафолатлари тизими тегишли ҳуқуқий нормалар билан белгиланмаган бўлсада, кенгаш фаолиятини ташкил қилувчи субъектлар, яъни депутатлар фаолияти кафолатланганлигини алоҳида инобатга олиш лозим. Хусусан, “депутатнинг ҳуқуқлари, шаъни ва кадр-қимматини муҳофаза қилинганлиги, депутатнинг дахлсизлик ҳуқуқи, мансабдор шахслар томонидан дарҳол қабул қилиниш ҳуқуқи, депутатни ҳарбий йиғинлардан озод қилинганлиги, унинг ахборот ҳамда моддий-техника таъминоти ва транспортда текин юриш ҳуқуқи каби масалалар депутат фаолиятининг асосий кафолатлари”[7] ҳисобланади.

Қорақалпоқ ҳуқуқшунос олимлари С.Ниетуллаев, З.Реймова ва Ж.Ермашевларнинг Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий Кенгашларининг ҳуқуқий статуси борасидаги фикр-мулоҳазаларига қўшилган ҳолда, бизнингча Қорақалпоғистон маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг **ҳуқуқий мақоми** тушунчаси – *ўз ичига Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий кенгашларининг ташкил этилиши тартиби, ваколатлари, фаолият кафолатлари ва бошқа ташкилий-ҳуқуқий муносабатларни қамраб олади.*

Таъкидлаш лозимки, бугунги кунда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ҳуқуқий мақоми ва ижроия органлардан ажратувчи алоҳида норматив-ҳуқуқий ҳужжатга мухтож.

Бу борада ҳуқуқшунос олим О.Т.Хусанов тўғри таъкидлаганидек, “ҳозирги маҳаллий ҳокимият органларининг (халқ депутатлари Кенгашлари ва хокимларининг) фаолияти 1993 йил 2 сентябрдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонун билан (унга бир неча ўзгартиришлар киритилган) тартибга солинади. Улар алоҳида ҳокимият органлари ҳисоблансада, фаолияти битта қонун билан тартибга солиниши, унда ҳокимни ҳам Кенгашга, ҳам ижроия ҳокимиятга раҳбарлик қилиши, уларни бир- биридан тўла мустақил ҳаракат қилишига йўл қўймас эди. Вакиллик ҳокимиятининг ижроия ҳокимиятини фаолияти устидан назорат қилиши, ҳокимларнинг кенгашлар олдида ҳисобдорлиги расмийлик билан бўлиб қолган. Юқоридаги камчиликларга барҳам бериш ва бошқарувдаги ислохотларнинг асосий ғояларига асосан ҳозирги кунда вакиллик ва ижроия ҳокимияти органлари фаолиятини тартибга солиш учун алоҳида қонунларни қабул қилиш зарурат туғилди”[8].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурининг ижроси юзасидан, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2022 йилда ишлаб чиқилган “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги Қонун[9] лойиҳаси ишлаб чиқилди.

“Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳаси 7 та боб ва 58 та моддадан иборат бўлиб, унда Маҳаллий вакиллик органи фаолиятининг иқтисодий асоси, унинг структураси ва улар фаолиятининг ташкилий асослари, халқ депутатлари Кенгашларининг ваколатлари, халқ депутатлари кенгашининг фаолиятида қонунийликнинг кафолатлари, Кенгаш назоратини амалга оширишга оид қоидалар акс эттирилган.

“Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳасида кўпгина янги жиҳат ва қоидалар мавжуд бўлиб, улар вакиллик ҳокимияти фаолиятини жонлантиришга, фаоллаштиришга хизмат қилади[10].

Шу билан бирга, маҳаллий Кенгашларнинг давлат ва жамият бошқарувидаги ролини



кучайтириш, маҳаллий давлат ҳокимиятини янгича конституциявий-ҳуқуқий шароитларда йўлга қўйишга қаратилган ислоҳотлар 2024 йил 2 февралдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони асосида амалга оширилмоқда.

Ушбу Фармон билан Жамият ва давлат ҳаётининг муҳим масалаларини ҳал этишда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ролини ошириш мақсадида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларига муайян ваколатлар ўтказилмоқда ҳамда Кенгашнинг айрим ваколатлари тизимлаштирилмоқда[11].

Мазкур Фармон билан маҳаллий Кенгашлар зиммасига вазифа ва функциялар фақатгина қонун ҳужжатлари билан юкланиши, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари томонидан маҳаллий Кенгашлар фаолиятига аралаштиришга йўл қўйилмаслиги, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишда вазифаларни маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари ва ижро этувчи ҳокимият органлари ўртасида аниқ белгилаш амалиёти жорий этилиши, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда маҳаллий давлат ҳокимияти органларига берилган, маҳаллий Кенгашларнинг қонунчиликда белгиланган ваколатларига хос бўлмаган вазифалар ижроси бўйича маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари масъул ҳисобланиши белгиланди[12].

Ушбу нормалар ҳудудий Кенгашларнинг ҳуқуқий мақомини бевосита мустаҳкамлаб, уларнинг ижроия органларидан мустақиллигини таъминлайди.

Қайд этилганлардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, бугунги кунда амалга оширилаётган ислоҳотлар маҳаллий кенгашларнинг ҳуқуқий мақомини янада мустаҳкамлаб, уларнинг ижроия органларидан мустақил ҳолда фаолият юритишларини таъминлаш билан бирга, халқчилик вакиллик институтини вужудга келтирмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Расулов Қ., Абдураимов Д. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати. Ахборот-маъзулумотлар рисоласи. – Тошкент, 2007. – Б.83.
2. Ермашев Ж.М. Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ташкил этилиши ва фаолиятининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. 12.00.02 ихтисослиги бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун Диссертация. - Н- Нукус, 2020.- Б.20.
3. Реймова З. Конституциялық ҳуқуқ / сабақлық / – Тошкент: “Муҳаррир нашриёти”, 2021. – Б.249.
4. Nietullaev S.D. Qaraqalpaqstan Respublikasinin’ Konstitusiyaliq huqiqi, No’kis. “Qaraqalpaqstan” baspasi, 2005-jil. – B.25.
5. Ермашев Ж.М. Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ташкил этилиши ва фаолиятининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Н.: Нукус, 2021 й. – Б.11.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 2 февралдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-28-сон Фармони // URL: <https://lex.uz/pdfs/6789350>
7. Қорақалпоғистон Республикасининг 2005 йил 14 майдаги “Халқ депутатлари туман ва шаҳар кенгаши депутатининг мақоми тўғрисида”ги Қонуни // <https://joqargikenes.uz>
8. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик органларини ислоҳ қилишнинг айрим масалалари // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild:02 Nashr:03 2023-yil, - B.26.
9. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
10. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик органларини ислоҳ қилишнинг айрим масалалари // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild:02 Nashr:03 2023-yil, - B.26.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 2 февралдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-28-сон Фармони // <https://lex.uz/pdfs/6789350>
12. www.lex.uz



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

МАHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MILLIY – MA‘NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Kuvandikov Shokir Oblokulovich
Sharof Rahidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy-ma‘naviy qarashlarining ijtimoiy-falsafiy manbalari va bugungi kundagi ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qarashlar, ma‘naviyat, ijtimoiy-falsafiy manbalar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy merosidan foydalanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Sababi, uning uzoq davrlar davomida shakllangan ma‘naviy qarashlari mamlakat ma‘naviyat va ma‘rifat tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekistonning atoqli jamoat arbobi va maorif arbobi, jamiyat va ta‘lim-tarbiya rivojiga katta ahamiyat bergan. Uning ta‘lim uchun shaxsning taraqqiyoti va o‘zini o‘zi anglashining kaliti bo‘lib, u jamiyat asosan ta‘lim orqaligina rivojlanishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

Behbudiy ma‘rifatli jamiyat hayot sifatini oshirish va butun jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynashini ta‘kidlagan. Uning asosiy shiori jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, ayollar uchun ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlash edi. Uning fikricha, ta‘lim nafaqat akademik bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishdir. Behbudiy O‘zbekistonda ta‘lim tizimining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib, ma‘rifatli jamiyatga asos solgan. U hamma uchun ta‘lim olish imkoniyatini beruvchi ko‘plab maktablar va kutubxonalarga asos solgan. U fors alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish jarayoniga ham rahbarlik qildi, bu esa keng aholi orasida ta‘limning keng tarqalishiga yordam berdi. Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiy inson taraqqiyoti sharoitida jamiyat va ta‘lim-tarbiyaga ahamiyat bergan. Uning ta‘lim haqidagi qarashlari va ma‘rifatga bo‘lgan ishtiyoqi O‘zbekistonning kelajagini shakllantirishga va uning ideallari zamonaviy jamiyatda hamon muhim ahamiyatga ega.

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayotining salmoqli qismini hamma uchun ta‘lim olish uchun kurashga bag‘ishlagan. U global ta‘lim o‘zining oldida turgan muammolarni yechishga qodir bo‘lgan global jamiyatni o‘stirishi mumkin, deb hisoblardi. Bundan tashqari, Behbudiy ta‘lim odamlar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf qiladi, jaholat va mutaassiblikka qarshi kurashadi, deb hisoblagan. Uning so‘zlariga ko‘ra, faqat bilimli, tanqidiy fikrlashga qodir insonlarga jamiyatda muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishi mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekiston maorif tarixida salmoqli iz qoldirdi. Uning g‘oya va qarashlari ta‘lim tizimi va butun jamiyatning yanada rivojlanishiga asos bo‘ldi. Bugun Behbudiyning ta‘lim va ma‘rifat rivojiga qo‘shgan hissasi nafaqat O‘zbekistonda, balki uning chegaralaridan tashqarida ham e‘tirof etilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy buyuk mutafakkir va islohotchi sifatida ham dinga, ham fanga ochiq munosabatda bo‘lgan. U har ikki sohaning jamiyat hayotidagi ahamiyati va ahamiyatini ko‘rdi. U dinni xalq madaniyati va tarixidagi asosiy element deb hisoblardi, lekin dinga nisbatan erkinroq va ochiqroq yondashishga chaqirdi. U diniy urf-odat va an‘analarga ko‘r-ko‘rona amal qilish, uning fikricha, jamiyatning turg‘unligiga olib kelishi mumkinligini tanqid qildi.

Behbudiy ilm-fanga taraqqiyot va taraqqiyotning asosiy quroli sifatida murojaat qildi. U ilmiy izlanishlar doimo cheklov va xurofotlardan xoli bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi. Ta‘lim tizimiga zamonaviy ilmiy uslub va yondashuvlarni joriy etishga faol intildi.

Umuman, Behbudiy din va ilm o‘rtasidagi muloqot va hamjihatlik tarafdori edi. U bu ikki yondashuv dunyoni idrok etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, to‘g‘ri qo‘llanilsa, bir-birini to‘ldirishi mumkinligini ta‘kidladi. Behbudiy ilm va din bir-biriga zid emas, aksincha, bir-birini to‘ldirishini isbotlashga harakat qildi. Uning fikricha, dindorlar aqlli va bilimli bo‘lishi kerak, chunki ilm-fan va ta‘lim islomning asosiy qadriyatlaridan biridir.



Behbudiyning til haqidagi qarashlari ham uning ma'naviy qarashlarining muhim qismidir. Uning fikricha, til xalqning ma'naviy-madaniy hayotining in'ikosi bo'lib, u orqali shu xalqning madaniy merosi, ma'naviy qarashlari va qadriyatlari avloddan avlodga o'tib boradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy olim va yetakchi sifatida til va madaniyatning jamiyat shakllanishidagi o'rniga alohida e'tibor bergan. Behbudiy tilning, ayniqsa, ona tilining insoniyat jamiyati uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. U nafaqat muloqot vositasi, balki odamlarning dunyo haqidagi tafakkuri va idrokini shakllantiradigan vositadir. U ta'lim dasturlarida ona tiliga g'amxo'rlik qilish, uni yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidlashni talab qildi. Behbudiy ko'pincha milliy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, millatning madaniyati, tarixi uning ildizi bo'lib, odamlar o'z ildizlarini unutsa, adashib qolishi mumkin.

Behbudiy O'zbekistonda arab-fors yozuvidan lotin yozuviga o'tish jarayonini birinchilardan bo'lib boshlagan. Keyinchalik kirill alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi, ammo bu qadamning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi: alifbo o'zgarishi O'zbekistonda adabiyot, ta'lim va ilm-fan rivojiga xizmat qildi.

Umuman olganda, Behbudiy O'zbekiston tarixida mamlakat tili va madaniyati rivojiga hissa qo'shgan salmoqli shaxsdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rizo Sh. Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikkacha. // «Tafakkur», 1995, 1-son, 71-bet.
2. Behbudiy M. Eski musulmon madrasalarida nimalar o'qitilar edi? // «Oyina», 1914.
3. Turdiev Sh. Jadidizm masalasiga bag'ishlangan munozara. // «O'zbek tili va adabiyoti», 1988, 2-son, 74- bet.
4. Saidov H. Marifat libosidagi ozodlik. -T., «Ma'rifat - Madadkor», 2000, 14-bet.



SHAXSNING MIGRATSIYA HAQIDAGI BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHDA
HUQUQIY MADANIYATNING AHAMIYATI

Norkulov Olim Nasimovich
SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalar” kafedrası tadqoqtchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning migratsiya haqidagi bilimlarini shakllantirishda huquqiy madaniyatning o‘rni haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, migratsiya, tashqi va ichki migratsiya, migratsiya turlari, huquq.

Bugungi globalashuv jarayoni barcha sohalarga jumladan migratsiya jarayoniga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sababi ko‘pgina davlatlar rivojlanishida jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Jamiyat sohalarning inqirozli holati, undagi salbiy tendensiyalarning kuchayishi, aholining birmuncha qashshoqlashishiga olib kelmoqda. Insoniyat tinchroq hayot va yaxshi kelajakka umid qilish uchun boshqa hududlarga ko‘chib o‘tishga harakat kuchaydi. Shuningdek, etnik bo‘lmagan aholi huquqlarining chegaralanishi fonida ijtimoiy yo‘nalishlarni o‘zgartirib, odamlarni mavjud vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlashga majbur qilmoqda. Ulardan biri aholi migratsiyasidir.

Migratsiya lotincha: *migratio* - ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman ma’nosini anglatib, aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi yoki ko‘chirish kabi ma’nolarni anglatadi. Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimlari ikkita: iqtisodiy sabablar, masalan, ish qidirib yoki moddiy axvolini yaxshilash maqsadida hamda siyosiy sabablar (siyosiy, milliy yoki diniy etiqodga ko‘ra quvg‘in ostiga olinishi natijasida, davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning o‘zgarishi yoki xarbiy harakatlar davom etgan joylarga ko‘chib o‘tish, davlatlar o‘rtasidagi millatlar vakillarini ayirbosh qilish kabilar.

So‘nggi yillarda yaqqol etnosotsial va etnosiyosiy xususiyat kasb etgan migratsiya mahalliy jamiyatlar hayotiga o‘zgarishlar kiritdi, turli mintaqalar holati to‘g‘risidagi g‘oyalarni shakllantiradi, davlat olib borayotgan siyosatga ta’sir ko‘rsatadi, eng muhimi, shaxsiy xususiyatlarni o‘zgartiradi. Qayd etilgan ko‘rinishlar migratsiya jarayonlarini idrok etishdan ularning asosiy muammolarini keyinchalik migrantlar manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish bilan chuqur va har tomonlama o‘rganish zarurligini anglashgacha bo‘lgan paradigmaga o‘tishni talab qiladi.

Migratsiya insoniyat tarixi davomida muhim hodisa bo‘lib kelgan va bugungi globalashgan dunyoda u butun dunyo bo‘ylab jamiyat qarashlari va madaniyatlarni shakllantirishda davom etmoqda. Globalashuv jarayoni O‘zbekistondagi aholi uchun ham ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda aholining migratsiya haqidagi bilim va tushunchalaridan biri huquqiy madaniyatdir.

Huquqiy madaniyat deganda shaxslarning o‘z jamiyatidagi huquqiy tizim va qonun ustuvorligiga bo‘lgan munosabati, qadriyatlar va e’tiqodlari tushuniladi. U huquqiy normalar, institutlar va jarayonlar haqidagi tushunchalarini hamda adolat, adolat va javobgarlik haqidagi tasavvurlarini qamrab oladi. Huquqiy madaniyat shaxslarning o‘z mamlakatida ham, xalqaro miqyosda ham migratsiyani tartibga soluvchi huquqiy asoslarni qanday idrok etishi va harakatlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda huquqiy madaniyatning migratsiya bilimlariga ta’sir etishining asosiy usullaridan biri bu odamlarning migrant sifatidagi huquq va majburiyatlarini bilishiga ta’siridir. Migratsiyani tartibga soluvchi qonunchilik asoslari bilan tanish bo‘lgan shaxslar o‘zlarini kamsitish va tartibsiz yoki hujjatsiz migratsiya bilan bog‘liq boshqa xavflardan himoya qilish uchun huquqiy normalar haqida tushunchaga egadir.

Huquqiy madaniyat, shuningdek, shaxslarning qabul qilinadigan mamlakatlardagi huquqiy tizimlarning qonuniyligi va samaradorligi haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Odamlarning qonun ustuvorligiga ishonchi va huquqiy jarayonlarning adolatligi ularning migratsiyaga tayyorligi va yangi mamlakatga kelgandan keyin ularga qanday munosabatda bo‘lishini kutishlariga ta’sir qilishi mumkin. Shaffoflik, javobgarlik va inson huquqlariga hurmatni ta’kidlaydigan kuchli huquqiy madaniyat huquqiy institutlarga ishonchni kuchaytirishi va qonuniy va tartibga solinadigan jarayon sifatida migratsiyaga ijobiy munosabatni rivojlantirishi mumkin.

Bundan tashqari, migratsiya qonunlari, tartiblari va huquqlari haqida ma’lumot beruvchi huquqiy savodxonlik dasturlari shaxslarga o‘zlarining migratsiya imkoniyatlari bo‘yicha ongli qarorlar qabul



qilish va huquq tizimi doirasida o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Qonuniylik va inson huquqlariga hurmat madaniyatini yuksaltirish orqali ushbu tashabbuslar muhojirlar duch kelishi mumkin bo'lgan ekspluatatsiya, kamsitish va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxslarning migratsiya haqidagi bilimlarini shakllantirishda huquqiy madaniyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Odamlarning muhojir sifatidagi huquq va majburiyatlari, boruvchi mamlakatlarning huquqiy tizimlari haqidagi tushunchalari, o'z mamlakatidagi migrantlarga munosabati va migratsiya siyosati, huquqiy ta'lim va ma'rifiy tashabbuslardan foydalanish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatish orqali huquqiy madaniyat migratsiyani shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
3. Бондырева С.К. Миграция: сущность и явление. учеб. -мет. пособие // – Воронеж: МОДЭК, 2004. – С. 47.
4. <http://www.demoscope.ru>.
5. <http://www.dmo.econ.msu.ru>.



BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MEHNATGA BO'LGAN MUNOSABATNING O'ZGARIB BORISHI

Anvarova Lobar Sherzod qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktaranti
Телефон: +998991234400
anavarovalobar94.ltd.com

ANNOTATSIYA. Maqolada mehnat unumdorligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar masalasi tahlil qilingan. Mehnat samardorligiga erishish, mehnatni tashkil etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq fikr-mulohazalar bildirilgan.

KALIT SO'ZLAR: iqtisodiyot, mehnat samardorligi, ijtimoiy omillar, tovar, pul, mehnatga munosabat, xarajat, iqtisodiy barqarorlik.

O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi jarayonlarida mehnat faoliyati to'g'risidagi nazariy va amaliy tushunchalar o'zgardi, jamiyat hayotiga tub jihatdan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining quyi daraja boshqaruvining yuqoridagilarga so'zsiz itoat qilishi, hukmronlik, buyruq asosida ish ko'rish, qat'iy rejalash prinsiplaridan farqli ravishda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining obyektini faqat ishlab chiqarish, xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib qolmasdan, birinchi navbatda inson, uning ehtiyojlari va manfaatlari hisoblanadi. Hozirgi davrda ishlab chiqarishga iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar uzviy o'zaro bog'liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qaralib, yuqori unum bilan mehnat qiladigan, yuqori malakali, bozor konyunkturasiga hozir javob, tashabbuskor, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan xodimlar mehnat faoliyatini tashkil etish va tartibga solish eng muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur vazifalar qatoriga mehnat samardorligini oshirish masalsi ham kiradi. Mehnat — inson hayotining asosi va eng muhim shartidir. Odamlar tabiatga ta'sirini o'tkazib, uni o'zgartirib, o'z ehtiyojlariga moslashtirib faqat tirikchiligini ta'minlabgina qolmasdan, shu bilan birgalikda jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun shartsharoitlar yaratadi. Mehnat inson hayotining eng muhim tomoni bo'lib, uning kechishi, natijasi va davomiyligi, shu bilan bi qatorda uning samardorlik ko'rsatgichlari mehnat sharoitlariga ham uzviy bog'liq. Masalan, noqulay mehnat sharoiti odamni jismoniy jihatdan charchasi, turli kasalliklarga tez chalinishi, mehnatga munosabatning o'zgarishiga olib keladi. Odatda mehnat sharoitlari deganda inson mehnat faoliyati kechayotgan ishlab chiqarish muhiti tushuniladi.

Mehnat faoliyatining samardorligi - xodimlar mehnat faoliyati pirovard iqtisodiy natijasi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat sarfiga nisbatan, ya'ni mehnat sarfi birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan o'lchanadi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat faoliyatining samardorligi darajasi hamda o'sishiga bog'liqdir. Mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, hatto ijtimoiysiyosiy tuzumning o'zini ham ifoda etadi. Iqtisodiyot fanida mehnat samardorligi tushunchasi iqtisodiy (ya'ni mehnat unumdorligi) kategoriyadan tashqari psixofiziologik va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi.

Mehnatning psixofiziologik samardorligi mehnat jarayonining inson organizmiga ta'siri orqali aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan faqat muayyan unumdorlik bilan bir qatorda zararsiz, qulay sanitariya-gigiyena sharoitlari ta'minlangan, xodimga ishlab chiqarish salbiy ta'sirining oldi olingan, uning jismoniy va aqliy salohiyatini va layoqatini oshiradigan mazmunli mehnatgina samarali hisoblanishi mumkin. Bundan mehnatning ijtimoiy samardorligi tushunchasi mohiyati ham anglanadi. Bu kategoriya har bir xodim shaxsini uyg'un rivojlantirish, uning malakasi va mahoratini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turmush tarzini takomillashtirish, mehnat jamoasida ijobiy muhitni shakllantirish va saqlab turish talablarini qamrab oladi.

Agar bu talablarga rioya etilmasa, xodimlar mehnat unumdorligining darajasi va o'sish sur'atlarining pasayishi muqarrardir. Jumladan, noqulay, xodim sog'lig'i uchun zararli bo'lgan sanitariya-gigiyena sharoitlari uning kasallanishi oqibatida ish vaqti yo'qotilishi, qo'shimcha ta'tillar berish zarurati, umuman xodimning mehnat layoqatini yo'qotishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumot uchun aytib o'tish joizki, "Iqtisodiyot" fani mehnat unumdorligi muammolarini o'rganishni XIX asr oxirida boshlagan. XX-asrning 70-yillaridan boshlab g'arb mehnat sotsiologiyasi doirasida mehnatni gumanizatsiyalash tendensiyasi o'rganila boshlandi. Mehnat sharoitini yaxshilashga ko'proq e'tibor berildi. G'arb sotsiologlarining fikricha, mehnat insonga azob-uqubat emas, balki,



huzur bag'ishlashi kerak. Bu tamoyil ayniqsa bizda, kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida yanada muhim ahamiyat kasb etmog'i lozim. O'tish davrining hozirgi bosqichida asosiy vazifalardan biri "... sermahsul mehnat qilish uchun yaxshiroq rag'bat bilan imkoniyatlar yaratishdan, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan kafolatli huquqni qaror toptirishdan, aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan ham iboratdir". Bu yo'lda, mehnat sotsiologiyasining muhim vazifalaridan biri mehnat unumdorligini oshiruvchi ijtimoiy omillarni va zaxiralarni tahlil qilib o'rganishdir. Uning asosiy ijtimoiy vazifalaridan yana biri, jamiyat hayotida, xalq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlarni, mehnat sohasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Mehnat unumdorligini hisoblash bir ishlab chiqarish ishchisiga nisbatan natural ifodada o'rtacha mahsulot ishlab chiqarish tarzida amalga oshirila boshladi. Bu ko'rsatkichlar sanoatning alohida tarkibi jihatidan bir xil tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning eng muhim turlari bo'yicha aniqlandi. So'ngra iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ko'rsatkichlari hamda mehnat sarflari hisob-kitobining rivojlanishi mehnat unumdorligini faqat natura ifodasida emas, balki pul ifodasida va faqat sanoatda emas, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, xizmat ko'rsatish sohasini ham qo'shgan holda hisoblab chiqish imkonini berdi. Hozirgi kunda iqtisodchilarning aksariyati, unumdorlik ishlab chiqarish va jonli mehnat sarflari natijalarining nisbatini, iqtisodiy samaradorlik esa ishlab chiqarish natijalarining jonli va moddiylashgan mehnat sarflariga munosabatini ifodalaydi, deb hisoblaydi.

Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim ustunligi unda mehnat resurslarini tejashning aks etishidir. Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi darajasini taqqoslash, shuningdek, uning dinamikasini o'rganish ishlari boshlanib ketdi. Dastlabki bosqichlarda unumdorlik mehnat unumdorligi sifatida o'rganildi, keyinchalik mehnat unumdorligini ishlab chiqarishning boshqa omillari unumdorligiga o'xshash xususiy unumdorlik sifatida talqin qiladigan global unumdorlik konsepsiyasi umumiy qabul qilingan konsepsiyaga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda milliy hisoblash tizimining paydo bo'lishi varivojlanishi unumdorlikni o'rganish sohasidagi ishlarga yangi turtki bo'ldi, chunki bu tizim ma'lumotlari mehnat unumdorligini tarmoq va butun iqtisodiyot darajasida tadqiq qilish imkonini beradi, shuningdek, xalqaro taqqoslashlar uchun asos yaratadi.

Mehnat samaradorligi mahsuldorligi mehnat ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. Har qanday mahsulot, buyum, xizmatda jonli va buyumlashgan mehnat jamlangan bo'ladi. Bunday jamiyat mehnat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi. Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari jonli mehnat moddiylashgan mehnatning tobora ko'proq massasini qamrab oladi. Natijada jami mehnatda moddiylashgan mehnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mehnatning ulushi kamayib boradi. Bu mehnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Ishlab chiqarishning takomillashib borishi va fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi oshishining asosiy shartlaridir.

Mehnat unumdorligi – xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbatan, ya'ni mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat samaradorligi va natijadorligining barcha jihatlarini aks ettirmaydi, masalan, u mehnat sifatini hisobga olmaydi, bundan tashqari, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini ifodalamaydi. "Mehnat unumdorligi" tushunchasiga o'z ahamiyati jihatidan yaqin, lekin mazmunan yanada kengroq bo'lgan tushuncha "mehnat samaradorligi" tushunchasidir. Mehnat samaradorligi eng kam mehnat xarajatlari bilan yuqori mehnat natijadorligiga erishish darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligi va intensivligi mahsulot qiymati o'lchamiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi ortishi ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini oshiradi va shunga muvofiq bita mahsulotning qiymatini pasaytiradi, lekin ularning umumiy yangi yaratilgan qiymatini o'zgartirmaydi, mehnat intensivligini ortishi esa ishlab chiqariladigan mahsulotlar va umumiy umumiy yangi yaratilgan qiymatni oshiradi, lekin mahsulot birligining qiymatini o'zgartirmaydi. Mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani holda mehnat xarajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Tadbirkor korxonaga egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday mehnat xarajatlari bilan ta'min etilgani ham muhimdir. Mehnat xarajatlar xodimlar soni va mehnatga to'langan haq xarajatlari bilan o'lchanadi. Unisi ham, bunisi ham ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun ham mehnat samaradorligini tahlil qilganda birligi ichida sarflangan mehnat xarajatlari ham, shu bilan birga uning tuzilishi hisobga olingan holda ham qarab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. Экономика труда: Учебник/ Под ред. Ю.П.Кокина и П. Э. Шлендера. - 2-е изд., перераб. и доп.. - М.: МАГИСТР, 2010. - 686 с.
2. Основы социальной экономики/ В. А. Каменецкий, В. П. Патрикеев. - М.: Экономика, 2010.-951 с
3. В.Ү.Ходийев, Р.Х.Карлибайева, Н.И. Акрамова. Korporativ boshqaruv: o'quv qo'llanma/ - Т.: Cho'lpon nomidagi nashriyot - matba ijodiy uyi, 2011. - 304 b.



Qurbonov Asqar Bahodir o'g'li,

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Телефон: +998904400091

qurbonovasqar@17.com

ANNOTATSIYA: Maqolda badiiy adabiyot mazmuni, uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishiga bo'lgan ta'siri va badiiy adabiyotning turalari va taxlili bayon etilgan. Badiiy adabiyotning turlari va janrlari ularning o'ziga xos jihatlari o'zaro aloqadorlik va qiyosiy tahlil asosida ochib berilgan. Badiiy adabiyotning ijtimoiy funksiyalari klassifikatsiya qilingan hamda ularning mazmun-mohiyati fakt va dillar asosida isbotlangan.

KALIT SO'ZLAR: Adabiyot, badiiy adabiyot, lirika, drama, badiiy obraz, epik asar, nasriy matn, ma'naviyat, axloq.

Badiiy adabiyot obyektiv reallikning o'ziga xos in'ikosi, nodir bilimlar va g'oyalar tajassumi sifatida ma'naviy madaniyatning ajralmas qismidir. Binobarin, ma'naviy madaniyatning barcha qismlari kabi u ham shaxsning ma'naviy jihatdan kamol topishi jarayoniga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda badiiy adabiyot durdonalari konsentratsiyalashgani, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar qulaylashgani, uning yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari kengaygani sayin shaxsning ma'naviy yuksalishi ham intensivlashadi. Biroq badiiy adabiyotning shaxs ma'naviy yuksalishidagi rolini tizimli ravishda ifodalab berish uchun avvalo "ma'naviy yuksalish" tushunchasi mazmuniga bir qadar to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Insonning shaxs sifatida kamol topishi uning butun umri mobaynida davom etadigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar ta'sirida uning e'tiqodi, fazilatlar, ijtimoiy jarayonlarga munosabati, boshqa jamiyat a'zolariga munosabati asta-sekinlik bilan o'zgarib, evrilib, rivojlanib boradi. Biroq bu rivojlanishning hamma vektorlarini ham ma'naviy yuksalishga yo'yib bo'lmaydi. Inson umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlar, eng ezgu ideallar sari intilganidagina uning ma'naviy jihatdan kamol topayotgani haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, ma'naviy yuksalish – shaxsning yuksak ma'naviy ideallar sari intilishi jarayonidir. Faqat ma'naviy yuksalishgina insondagi insoniy-lik meyorini oshiradi, uning hayotiga muayyan g'oyaviy va axloqiy yo'nalganlik baxsh qiladi. Ma'naviy yuksalishning aksi esa ma'naviy tanazzuldir. Ma'naviy tanazzul shaxs e'tiqodining zaiflashuvi, uning turli illatlar girdobiga tushib qolishi, nomaqbul va g'ayriijtimoiy hayotiy pozitsiyaning qaror topishi jarayonidir. Ma'naviy tanazzul pirovardida shaxsning ma'naviy qashshoqligi bilan intiho topadi.

Ma'naviy ideallar shaxsning ma'naviy yuksalishi uchun o'ziga xos mayoq vazifasini o'taydi. Chunki muhabbat, go'zallik, ezgulik, erkinlik, adolat kabi oliy ideallar insonni kamolotga undaydi, ularga intilishga chorlaydi. Bu haqiqat xalqlarning ming yillik tajribasida o'z isbotini topib, "Muhabbat ketsa, nafrat kelar, muhabbat muhabbatni tug'dirar", "Onangni otangga bepardoz ko'rsatma", "Bir kishi ariq qazar, ming kishi suv ichar" "Har kim o'ziga – xon, o'ziga – bek", "Adolat qilichi keskir bo'lar" kabi maqollarda mujassam bo'lgan. Mazkur ma'naviy ideallar inson ruhiyatiga muayyan yaxlitlik baxsh qiladi, uning irodasini mustahkamlaydi, qadriyatlar, bilimlari va tasavvurlari xarakterini belgilab beradi. Ma'naviy ideallarsiz, ularga bo'lgan intilishsiz ma'naviy yuksalishning o'zi bo'lishi mumkin emas. Chunki bunday vaziyatda shaxsning ma'naviy jihatdan shakllanishi jarayoni o'z maqsadini, ustuvor yo'nalishini, natijada esa mazmunini yo'qotadi.

Shaxs ma'naviy yuksalishi jarayonining uch yo'nalishi mavjud:

o'zlikni anglash; ma'naviy yuksalish insonning o'zini anglashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglash – "insonning o'zini alo-hida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushunchadir. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishi jarayonida shakllanadi". Ayni paytda o'zlikni anglash shaxs ma'naviy yuksalishi mezoni hamdir. Unga qarab, shaxs ma'naviy kamoloti samaradorligi va barqarorligini aniqlash mumkin;

o'z-o'zini tarbiyalash; ma'naviy yuksalish insonning o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash – "shaxsning kamolotga intilishi va o'zini



nazorat qilishi shaklidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsning ijobiy sifatlarini maqsadga yo‘naltirgan tarzda rivojlantirish, salbiy sifatlardan xalos bo‘lishga qaratilgan faoliyati bo‘lib, uni amalga oshirish uchun muayyan iroda talab qilinadi. Irodasiz odam o‘zini o‘zi tarbiyalay olmaydi”. Ayni paytda o‘z-o‘zini tarbiyalash shaxs ma’naviy yuksalishi mezoni hamdir. Unga qarab, shaxs ma’naviy yuksalishi jarayonining sifatini belgilash mumkin;

o‘z-o‘zini nazorat qilish; ma’naviy yuksalish insonning o‘z-o‘zini nazorat qilishga bo‘lgan intilishlarida namoyon bo‘ladi. “O‘z-o‘zini nazorat qilish deganda o‘z kognitiv faoliyatini, shuningdek tashqi stimullarga javoban xulq-atvori va kechinmalarini muvofiqlashtirish qobiliyati tushuniladi”. Bu qobiliyat ham muayyan iroda va samarali tarbiya negizida shakllanadi. Ayni paytda o‘z-o‘zini nazorat shaxs ma’naviy yuksalishi mezoni hamdir. Uning yordamida nafaqat shaxsning ma’naviy yuksalishi sifatini, balki tarbiyalanganligi darajasini ham aniqlash mumkin;

Ko‘rinib turibdiki, shaxsning ma’naviy yuksalishi o‘z maqsadiga, (ma’naviy ideallarga yetishish) va yo‘nalishlariga (o‘zlikni anglash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini nazorat qilish) ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonning samarali kechishida badiiy adabiyotning o‘z o‘rni va roli bor. U shaxsning yuqorida tilga olingan barcha yo‘nalishlardagi ma’naviy yuksalishida muhim manba vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob.- T.:Chinor, 2002.
2. Muhabbat va bevafoqlik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
3. Go‘zallik va xunuklik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
4. Yaxshilik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
5. Erkinlik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
6. Adolat, insof va insofsizlik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
7. Зорилова Л.С. Духовные идеалы личности: теория, история и современные проблемы формирования: Автореф. дисс. ... докт. культурол. н.- М.:МГУК, 1999.
8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.2.- T.:O‘zb.fayl.milliy jam. nashr., 2019.- B.633.
9. Кузнецова В.Б., Козлова Е.А. Современные представления о самоконтроле: обзор зарубежной ли-тературы.// Теоретическая и экспериментальная психология, 2016, №3.- 84-94-с.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

UDC: И 37.02

НЕЗАМЕНИМОЕ И РЕШАЮЩЕЕ МЕСТО ГРАММАТИКИ В ОБУЧЕНИИ НЕ ТОЛЬКО ПИСЬМУ, НО И УСТНОЙ РЕЧИ.

Mirsalixova Robiya, Mirsalikhova Robiya

Student of Uzbekistan State World Languages University

E-mail: mirsalikhovar@gmail.com

Аннотация

В современном обучении иностранному языку преобладает тенденция концентрации внимания на таких навыках, как говорение. Тем не менее, грамматикой обычно пренебрегают, и, к сожалению, многие преподаватели и учащиеся недооценивают ее роль, заявляя, что она не так важна для разговорной речи. Последствия незнания грамматики неблагоприятны и могут ухудшить точность письма, а речь не будет звучать очень грамотно.

Ключевые слова: языковая структура, пунктуация, четкое соответствие, четкое понимание, синтаксис, деловой английский

Общепризнано, что информация о языковой структуре помогает дублеру исправить путаницу и улучшить составление произведения. Человек не может познакомиться с незнакомым языком именно путем забывчивого понимания. Пунктуация является определенным ориентиром, когда нас бомбят этимологические склонности. Следовательно, пунктуация имеет основополагающее значение для ученика. Некоторые люди думают, что правильная структура английского предложения важна только для преподавателей и не имеет подлинного значения в повседневной жизни. Это абсолютно неверно. Пунктуация, независимо от национальности и языка, является основой переписки.

Правила пунктуации могут помочь учащимся воспитать склонность к разумному и очевидному мышлению. Сосредоточив внимание на синтаксисе, студенты смогут более точно использовать язык. Без точной пунктуации непонятна четкая переписка.

Соответствующая структура предложений уберезет вас от неправильного истолкования при изложении вашей точки зрения и мыслей. Однако существуют определенные обстоятельства, при которых структура английского предложения особенно важна. Например, если вы собираетесь на встречу с потенциальным сотрудником в англоговорящей стране, компания будет заинтересована в вашем устном и письменном английском языке. [1]. Правильная пунктуация не просто продемонстрирует ваши способности к английскому — она также покажет, что вы постоянны и внимательны к деталям. Это не менее важно, если вы планируете сконцентрироваться за границей. Школы и колледжи, вероятно, будут проверять ваш академический английский, во многом зависящий от вашего понимания структуры английского языка.

При овладении иностранным языком точное понимание языковых структур является жизненно важной частью, поэтому указание пунктуации является фундаментальной частью руководства по незнакомому диалекту. [2] Структура предложения в большинстве случаев неправильно истолковывается в области языкового образования. Неправильная интерпретация заключается в том, что синтаксис — это набор ошибочных принципов статического проектирования языка. Дальнейшие проблемные случаи заключаются в том, что проекты не нужно обдумывать, учащиеся получают их в одиночку, или, с другой стороны, если дизайны обучены, последующие примеры будут утомительными. Основная задача преподавателей при демонстрации синтаксиса состоит в том, чтобы эффективно продемонстрировать построение языка и дать возможность своим дублерам получить полный контроль над языком, чтобы доставлять изученные лингвистические конструкции именно тогда, когда они используют их в реальных обстоятельствах, как в устной, так и в составленной форме. . Следует признать,



что грамматика и глоссарий не являются языковыми аспектами. Это языковые компоненты, которые имеют решающее значение для доминирования множества четырех аспектов. Не только преподавателю языка, но и всем учителям разных специальностей желательно хорошо владеть грамматическими конструкциями. [3]

Подводя итог, можно сказать, что грамматика является краеугольным камнем для улучшения рецептивных и продуктивных навыков, особенно когда речь идет о глубокой ассимиляции языка, ради академических целей. Языковая структура важна на том основании, что она дает данные. Дизайн передает точное значение от эссеиста толпе. Таким образом, пренебрежение набором грамматических правил даже в разговорном или деловом английском не является адекватным вариантом изучения иностранного языка.

References:

1. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0388000100000279>
2. <https://www.vvvd.org/domain/25>. Teaching Grammar in Context info@journalpro.ru. The role of grammar in learning english language



OGAHIYNING “RIYOZU-DAVLA” ASARI ONOMASTIK KO‘LAMINING BA’ZI JIHATLARI

Marhabo Axmedova,
mustaqil tadqiqotchi,
Urganch davlat universiteti,
Urganch

Annotatsiya: Maqolada Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asari onomastik birliklari tahlil qilinib, unda asardagi “ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, nisbalar, nasliy bog‘lanishni anglatuvchi birliklar hamda eponimlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, tilshunoslik, onomastika, ism, laqab, taxallus, nisba, patronim, matronim, eponim.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ilm-fanning barcha sohalarida bo‘lgani singari o‘zbek tilshunosligida ham chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek tili tarixi, bu tilda yaratilgan asarlarning lisoniy jihatlarini o‘rganish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, buyuk shoir, muarrix va tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy qoldirgan ulkan ma’naviy merosni tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etishga kirishilmoqda.

Ogahiy ijodi borasida keyingi davrda bajarilgan va bajarilayotgan yirik plandagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lami ham kengayib bormoqda. Keyingi yillarda Ogahiy asarlari tili bo‘yicha monografik tadqiqotlar yuzaga kelishida A.O‘razboyev, R.Mahmudov, A.Primov, X.Boymurodovlar xizmatlari katta bo‘ldi. Lekin Ogahiy asarlari onomastik ko‘lamiga oid tadqiqotlar ko‘lami hali katta emas.

Soha mutaxassislaridan “tilning onomastik birliklari, onomastik ko‘lami va onomastik maydoni haqida umumiy ma’lumot, ularni ifodalovchi terminlar ma’nosi va talqinlari; tilning onomastik birliklari, onomastik ko‘lami va onomastik maydoni hamda ular haqidagi bilimlar majmuining jahon va o‘zbek tilshunosligida ilmiy, nazariy, amaliy va uslubiy jihatlardan tadqiq etilishi”¹ni bilish talab qilingani kabi muayyan mumtoz asar yuzasidan olib boriladigan ishlarda obyekt manbaning qayd etilgan jihatlarini qamrab olinishi ham muhim.

Ismlar – odamga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot. Ushbu istiloh asarda aynan qayd etilgan ma’noda ham uchraydi:

“Risolat xotami ichra muabbad

Yozilmishdur sharif *ismi* Muhammad”. (RD, 276^b)

Asarda *laqab* so‘zining qator ma’nolarda ishlatilgan o‘rinlar mavjud. Masalan, “Muhammad Niyozbiy...kim, *Karchak laqabig‘a* mashhurdur,..” (RD, 260^b). Laqab istilohining aksar hollarda *mashhur* sifati, *ishtihor topmoq* (nom chiqargan, shuhrat topgan) fe’li bilan ishlatilishi uchun istilohiy ma’nosiga bir qadar oydinlik kiritishga xizmat qiladi: “Muhammad Niyozbiykim, *Karchak laqabi* bila *ishtihor topmish* erdi,..” (RD, 273^a).

Taxallus – ijtimoiy faoliyati jarayonida o‘zi tanlagan, uning ismi bilan birgalikda yoki uning o‘rnida qo‘llaniladigan to‘qima atoqli ot². Asarda ham bu so‘z onomastik va adabiy termin sifatida ishlatilgan: “Rojih beki mazkurning *taxallusidur*...” (RD, 306^b); “Aning vafoti ta’rixin nodirayi zamon, a’jubayi davron, maliku-sh-shuaro, majma’u-l-fuzalo Hubbiquli hojikim, *taxallusi* Dilovardur, mundoq aytibdur,..” (RD, 315^a).

Ogahiy tarixiy asarlarida “shaxsning ma’lum oila, avlodga mansubligini ko‘rsatadigan, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadigan rasmiy nomi” – familiya qo‘llanishini ikki xil talqin qilish mumkin: birinchisi, o‘zbeklarda familiya rasman urf bo‘lmagani, uning o‘rnida shaxsning shajaraviy mansubligin norasmiy tarzda, odatda, laqablar ko‘rsatganini qayd etish. Ikkinchisi, zamonaviy familiya namunalarini asarda yevropalik xorijiyilar nomi qayd etilishi munosabati bilan uchramiz.

Asar o‘zbeklar orasida kuniya qo‘llash urfdan qolgan davr voqealarini yoritgani uchun unda bu tip onomalar uncha ko‘p uchramaydi. Borlari ham arab millatiga mansub sahobalar nomlari tarkibida kuzatiladi. Masalan, “...Ali ibn *Abu* Tolib raziallohu anhu...” (RD, 323^b). *Abu Hurayra*

¹ Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танлама фанидан услубий қўўланма. – Саманқанд: СамДУ нашри, 2011. – Б. 3.

² Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг мшсроқўлами таркиби// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. —Б. 33-39.



kabi misollar orqali ko‘ramizki, kuniya indikatorlari hamisha kimningdir otasi yoki onasi ekanini emas, balki biror sohada mohirlik, mashhurlikni ham anglatadi.

Patronim – shaxsni uning avlod-ajdodlari nomini keltirish usulida atash” (E.Begmatov). Demak, patronim ota ismidan shaxsning bir necha ota bo‘g‘inini zikr etilishi bilan farqlanadi. Sharq manbalarida bu holatga ko‘p bor duch kelinadi. Masalan, “Firdasu-l-iqbol”dan: “*O‘zbekxon ibn To‘g‘rulxon ibn Mangu Temurxon...*” (FI, 100), “*Malik Ashraf ibn amir Temurtosh ibn Amir Cho‘pon..*” (FI, 101) kabi. Xuddi shuningdek, “*...Abulg‘ozixon ibn Yodgorxon...*” (RD, 251^b). Lekin *ibn* hamisha patronim hosil qilmaydi. Masalan, “*hoqon ibnu-l-xoqon Abul-muzaffar va-l-mansur Abulg‘ozi Rahimquli Muhammad Bahodirxon*” (RD, 355^a)da *ibn* patronim hosil qiluvchi emas, lug‘aviy ma’nosida (xoqon o‘g‘li bo‘lgan xoqon) ishlatilgan.

Matronim esa ona (ayol)ning ismi yoki laqabidan yasalgan atoqli ot. Sharqda ona ismi bilan yasalgan atoqli otlar nihoyatda kam. Ularning eng mashhuri *Iso ibn Maryam*dir. Patronim va matronim o‘z navbatida *genonim* – urug‘, avlod-ajdod va ular tarmoqlarining atoqli oti (E.Begmatov) bilan bog‘lanib ketadi.

Eponim – mashhur shaxs(lar) nomidan yasaladigan atoqli ot (E.Begmatov). Agar bunda mashhur shaxs(lar) nomi vositasida yasalgan har qanday atoqli ot nazarda tutilsa, asarda keltirilgan *Qilichboy bog‘i* nomi yaxshi misol bo‘la oladi.

Xullas, har qanday tarixiy onomastika aks etgan asar bugungi onomastik ko‘lamni to‘la tasavvur qilish va shuurimizga sindirish uchun xizmat qilish barobarida nomlar taraqqiyoti qonuniyatlari yechimida muhim ahamiyatga ega. Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozu-d-davla” tarixiy asari na faqat muarrix qadamiga mansub birinchi kitob, balki o‘z hajmi, badiiyati, yuksak mahorat bilan bitilgani jihatidan ham yetakchi asari sanaladi. Onomastik ko‘lam kengligi ushbu xulosaga kelish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танлама фанидан услубий кўўланма. – Саманқанд: СамДУ нашри, 2011.
2. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг микроқўлами таркиби// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. —Б. 33-39.
3. Авлақулов Я.И. Ўзбек тилининг ономастик қўлами. – Тошкент: Фан ва технология, 2017.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент, 2021.
6. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Таъвизу-л-ошиқин. Нашрга тайёрловчилар: Д.Ғайипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014.
7. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 6-жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020.



FACTORS AFFECTING THE USE OF MODERN METHODS AND MATERIALS IN CONSTRUCTION.

Raxmatova Saodat Baxrinovna,
Toshkent Shahar Yuridik Texnikumi
“Yuristlar uchun ingliz” fani o’qituvchisi
Telefon:+998947641037
raxmatovasaodat01037@gmail.com

Annotation: The quantity of construction is impacted by the ongoing population growth. Concurrently, there is a growing demand for housing and services. Consequently, there is a greater need to discover novel, contemporary building techniques and materials. The population’s needs are driving a steady increase in the demands for technical and technological requirements in all fields [1]. Because of this, there is a growing need for high-quality housing, which necessitates the exploration of novel approaches and prospects relevant to the building industry. Using contemporary building techniques and materials is one option. building with prefabricated materials is a form of mass production that occurs in factories, significantly reducing building time and benefiting the environment.

Key words: Classification of modern methods of construction, off-site production, systems of prefabricated houses, hybrid, sub-assemblies and components, On-site production, tunnel form method, thin-joint masonry, mass production, flow production, production equipment.

Classification of modern methods of construction.

Modern construction techniques are categorized in a number of ways. Currently, a number of writers have begun to address this problem, although the literature’s categories differ.[2] Production sites are the most frequent cause of current construction technologies breaking down. The division of these techniques is as follows.

- **Off-site production** -the production process takes place in a factory, off site.

-**Systems of prefabricated houses**-comprise prefabricated panels that are assembled to form the walls, floors, and roofs of a structure. These panels need to be edited at different stages. [3]The most widely used open panels or frames are those that are merely made of a skeleton and still require finishing touches like insulation and an outer casing that may be installed right away. Another closed system that made use of panels.

-**Modular system (volume / volumetric)** -building modules are composed and work together to form the structure. [4]This technique makes it possible to instantly connect a greater number of comparable modules, which is why it’s frequently utilized with larger, more standardized structures.

-**Hybrid** - This technique blends a panel system with a modular design. A hybrid approach limits design homogeneity while offering broader development choices.

-**Sub-assemblies and components** -Even though manufactured assembly or components are used, these techniques are frequently conventional.

-**On-site production** -This strategy makes use of technologies and design systems that are not compatible with off-site production.

Mass production

Only in situations where recorded volume production is achieved can investments in industrialization-related machinery and human resources be justified. This level of distribution permits fixed costs for huge volumes without unnecessarily raising the total cost.

Flow production

A high degree of production process is made possible by the mass production of standardized prefabricated pieces. There are more major jobs that can be separated within this process. Employees in such systems work while completing monotonous tasks and boosting productivity.

Production Equipment

One crucial element is the capital used for the first investment. They need to acquire plant, equipment, and skilled labor before they can begin manufacturing. Such substantial expenditures could only be made in the event that the product is in high enough demand. Conversely, manufacturing the product might take place right on the building site, saving money on shipping.

Construction time



The duration of building can be greatly shortened by utilizing various systems and contemporary construction techniques.

Conclusion

The benefits of using MMC are undeniable. Numerous studies claim a financial benefit and reduce the time needed for construction. In a similar vein, using progressive materials improves construction's sustainability. It is crucial to define these advantages for a number of reasons. One of them is how important components of MMC and cutting-edge building materials are connected to each other and to each other's advantages

REFERENCES

[1] Bašková R and Kyjaková L 2013 *Parametrizácia konštrukčných riešení stavby pri uplatnení moderných metód výstavby* In: Multi-dimenzionálne prístupy podporujúce integrované navrhovanie a riadenie stavebných projektov

[2] Richard R B 2006 Industrialized, flexible and demountable building systems: Quality, economy and sustainability *Proc. of the CRIOCM 2006 Int. Sympos. on "Advancement of Construction Management and Real Estate"*

[3] Esa H and Nurudin M M 1998 Policy on industrialised building systems *Report on Colloquium on Industrialised Construction System Kuala Lumpur*

[4] Jaillon L and Poon C S 2009 *The evolution of prefabricated residential building systems in hong kong: A review of the public and the private sector*



YAPON TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV METODNING QO‘LLANILISHI

Mo‘minova Xumora Abdukarim qizi

O‘zDJTU sharq filologiya fakulteti stajyor-o‘qituvchisi

Telefon: +998904609390

Xumoramominova95@gmail.com

Annotatsiya: Yapon tili ham hind yevropa tillari oilasining murakkab grammatika, fonetika va orfografiyaga ega bo‘lgan bir tilidir. Shuning uchun ham ko‘p talabalar bu til o‘zbek tilidan tamoman farq qilgani uchun uni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Hozirgi zamonaviy metodlar orasida eng ko‘p ishlatiladigan kommunikativ metodning aynan yapon tilini o‘qitishda qay darajada qo‘llanilishini aniqlash, o‘qituvchilar yapon tili dars jarayonida kommunikativ metodning qanday mashq turlaridan foydalanilayotganini bilish va yangi kommunikativ mashq turlarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: yapon tilida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish (og‘zaki nutq, muloqot bilan bog‘liq jarayonlar), kommunikativ metod turlari.

Jamiyat rivojlanib borayotgan bir paytda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib boryapti. O‘rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida ona tilidan tashqari boshqa bir ikkinchi tilni bilish faqatgina yuqori tabaqa vakillariga xos bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib mass media va publitsistikaning rivojlanishi bilan xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj oshdi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng G‘arbda ingliz tili va kommunistik davlatlarda rus tilini bilish majburiy talabga aylangan edi. XXI asrga kelib nafaqat bitta chet tilini, balki bir nechta chet tillarini bilish kishilik jamiyatining bag‘oyat muhim sohalaridan sanalmoqda. Chet tillarini mukammal egallagan kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Biz agarda biron – bir tilning ashshaddiy “shaydosi” bo‘lib qolgan bo‘lsak, uni o‘rganish uchun imkoniyatlarimiz yetarlicha deb o‘ylayman.³

Kommunikativ metod tushunchasini B.V.Belyayev birinchi bo‘lib shakllantirgan. U kommunikativlikni metodika kategoriyasida fan sifatida qarash kerakligini ta‘kidlagan. To‘g‘ri metod aralash metod, tajima metodlar o‘z vaqtida ijobiy natijalar bergan, lekin hozirgi davr talabiga mos kommunikativ metod va kommunikativ kompetensiya tushunchalari chet tillarini o‘qitishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chet tilida ta‘lim oluvchilar barcha kompetensiyalarni egallashlari juda muhim. Pedagogik atamalar lug‘atida << Kompetensiya >>- tushunchasi muayyan muommo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati ma‘nosini anglatadi. J.Jalolov kommunikativ so‘ziga “kommunikativ lot. Kommunikatsiya-kommunikatsiya bilan bog‘liq; ~akt (nutrgiy amal/ parcha/ jarayon/ muloqot) ~birlik/ topshiriq/ yo‘nalish/ zarurat/ muhit/ malaka/ vazifa~(funksiya) maqsad/ niyat/ mashq; ~intensiv, interactive metod (chet tili o‘qitish metodlaridan); ~yo‘nalish, metodika, usul; ~kognitiv metod deb, kompetensiyaga esa “kompetensiya [lot. Competentia compete – intilaman]: til~si (tilga layoqat, til bilishga yaroqlilik, lisoniy (nutqiy) iqtidorm, saviya) deb ta‘rig beradi [63; 145-169-b.].

Kommunikativ metodning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, o‘quvchining maqsadi, grammatika yoki so‘zlarni qo‘shib to‘g‘ri gap tuzish qobiliyatini oshirish emas, balki aniq bir fikr (holatga kirishish, insonlar bilan aloqa o‘rnatish, jamiyat va madaniyat manzarasini yaratish) ning ichida kommunikatsiya, ya‘ni muloqatni amalga oshira olish qobiliyatiga erishishdan iboratdir.

Bundan tashqari, til ta‘limining markaziga o‘quvchini qo‘yib, o‘quvchining qiziqishi, intilishiga bog‘liq bo‘lgan mashqlardan foydalanish va o‘qituvchi asosiy o‘rinni egallagan audio-lingual metoddan o‘quvchi asosiy o‘rinda turadigan metodga o‘quvchini olib o‘tish ham bu metodning o‘ziga xosligi hisoblanadi.

Kommunikativ metodning asosiy prinsiplaridan biri o‘rganilayotgan tilning strukturasi emas, nutqga e‘tibor berishdir. Nutqga e‘tibor berish degani o‘rganilayotgan tilning to‘g‘ri ishlatilishi yoki talaffuzning to‘g‘riligiga qaraganda, so‘zlovchi o‘zi yetkazmoqchi bo‘lgan fikrlarini tinglovchiga yetkazishi, tinglovchi javob qaytarganda tushuna olishi kerakligini bildiradi. Hozirgi zamon kommunikativ yondashuv metodikasi tarafdorlarimimg fikricha, har qanday usul yoki metod mashg‘ulot jarayonidagi kommunikativ vaziyatga, aniq bir maqsadga, o‘quvchilarning hayotiy qiziqish va ehtiyojlariga mos kelmas ekan, ular hech qanday ijobiy natijaga olib kelmaydi. Kommunikativ

³ Karimov I.A. “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil, 10-dekabr



o'rgatishni boshqa ta'lim usullaridan farqlab turuvchi to'rtta muhim belgisi bor. Bular:

1. Muloqatga o'rgatishni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni o'quvchilar juftliklari (guruhlari) orasida o'zaro fikr almashuvga yo'naltirilgan kommunikativ topshiriqni bajartirish jarayonida uyushtirilishi;

2. Topshiriqni o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga mos keladigan nutq vaziyatlari asosida tashkil qilinishi;

3. Kommunikativ topshiriqni tushuntirishda, bajarish jarayonida o'quvchilarning barcha sezgilariga faol ta'sir qiluvchi audio-vizual va emotsional ta'sir, paralingvistik tayanch vositalaridan va ko'p martalik takror usulidan foydalanishning zarurligi;

4. Har bir kommunikativ topshiriqni aniq bir nutqiy harakatni o'zlashtirishga yo'naltirilgan;

Interfaol usullar deya talqin qilinayotgan har qanday rolli o'yinlar, trening va bahs munozarali darslarda o'quv materiali tushuntirilmaydi, nutqiy harakatlarga o'rgatilmaydi, balki shakllantirilgan kommunikativ ko'nikma va malakalarni kommunikativ vaziyatlarda amalda sinab sinab ko'rish yoki kommunikativ salohiyatni baholash vositasi sifatida foydalaniladi. Yapon tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish muhim bo'lib, darslarda mashq va topshiriqlarni, interfaol usullarni chuqurroq tadbiq estish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ayrim filolog talabalarning muloqot yuritishda, hech qanday qiyinchiliklarsiz, nutqda uzilishlar yoki to'xtab qolishlari yuz bermay, erkin so'zlashishlari kerak. Yapon tili mutaxassisining nutqda shu kabi qiyinchiklar, kamchiliklarning bo'lishi ta'lim sifatini, samaradorligini ta'minlanmasligiga olib keladi.

. Yapon tilini o'qitishda hozirgi kunda ikkita metoddan foydalanilmoqda:

1. kommunikativ metod; 2. Audio-lingval metod

4. Yapon tilini o'qitishda asosan audio-lingval metod ishlatilib, kommunikativ metodga 10 -15 daqiqa ajratilyapti. Audio-lingval metod orqali o'quvchilarning talaffuzi va grammatik xatolari to'g'irlanib borishi yaxshi xol albatta. Ammo bu bilan o'quvchilar ma'lum bir qolip asosida gapirishga o'rganib qolishadi va faqat audio-lingval metod asosida dars olib borish ularni erkin suhbat qurishga o'rgatmaydi. Shuning uchun ham yapon tilini o'rgatishda kommunikativ metoddan ham ko'proq foydalanilishi va alohida suhbat guruhlari (speaking club) tashil etilishi kerak. Bundan tashqari, o'quvchilar suhbat holatini tasavvur qila olishlari uchun aynan shu muhitga ko'nikishlari uchun kommunikativ metoddan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5. Yapon tilini o'qitishda kommunikativ metoddan foydalanish bu o'quvchilarni faqat erkin muloqotga tayyorlaydi. O'quvchilar yapon tilida xatosiz gapirishlari bundan mustasno.

6. Yapon tilini o'qitish mobaynida avvalo, o'quvchining qanday maqsadga yo'nalgan holda bu tilni o'rganayotgani ahamiyatga ega. Shu maqsad asosida audip-lingval metod yoki kommunikativ metodni qo'llash mumkin.

7. Kommunikativ mashqlar tizimini ishlab chiqib, o'quvchilarning dars jarayonidagi kommunikativ malakalarini oshirish ijobiy natija beradi. Buning uchun taklif qilingan mashqlar amalda qo'llab ko'rildi.

8. Kommunikativlikka asoslangan ta'limda kommunikativ kompetensiyani ijtimoiy lingvistik jihatiga e'tibor berish gapiruvchining nimani nazarda tutishi va eshituvchini uni qanday tushunishi kabi munosabatlari talabalarda katta qiziqish uyg'otadi.

9. Dars jarayonlarini kuzatish mobaynida o'quv dasturlari va darslilarni o'qib chiqish hamda yapon tili mashg'ulotlarini tahlil qilish ulardagi mashq va topshiriqlar kommunikativ salohiyatni oshirishga yo'naltirilmaganligi, dars jarayonida faqatgina ayrim kommunikativ mashqlardan foydalanilayotganligini ko'rsatdi. Bu esa kommunikativ qobiliyatni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

10. OTM larda dars samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan mashq va topshiriqlar, interfaol metodlardan foydalanish ahamiyati katta. Yapon tili nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda «Yo'naltiruvchi intervyu», »Rolli o'yinlar»..... lardan foydalanish lozim.

Ilmiy izlanish davomida quyidagi maqsadlar amalga oshirildi:

— yapon tilining o'qitish metodikasi tarixiga oid ma'lumotlarni jamlandi;

— kommunikativ metod, uning o'ziga xos xususiyatlari, mashq turlari haqida ma'lumot to'plandi;

— yapon tilini o'qitish jarayonida o'qituvchilar qaysi metodlardan foydalanishayotganligi aniqlandi;

— chet tillarini o'qitish jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan kommunikativ metodning o'ziga xos xususiyatlarini yoritildi;



— yapon tilini o‘qitishda o‘quv jarayonida kommunikativ metodning qaysi mashq turlaridan foydalanilayotganligini aniqlandi;

— yapon tilini o‘rgatishda ishlab chiqilgan kommunikativ mashqlar

Ish jarayonida kommunikativ o‘qitish uslubining etarli miqdordagi afzalliklari aniqlandi. Faqat xorijiy tillarni o‘qitishning kommunikativ uslubida ular faoliyatga asoslangan o‘rganish turining asosiy belgilarini topadilar, uning o‘ziga xos xususiyati, maqsadi va mohiyati bo‘yicha, avvalambor, nutq faoliyatining alohida turi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun biz o‘qishni, tinglashni, tarjima qilishni va hokazolarni o‘rgatishda uning keng qo‘llanilishini uchratamiz.

Amaliy nutqqa yo‘naltirish nafaqat maqsad, balki ikkalasi ham dialektik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositadir. Zamonaviy kommunikativ usul - bu chet tillarni o‘qitishning ko‘plab usullarining uyg‘un kombinatsiyasi, ehtimol turli xil ta‘lim usullarining evolyutsion piramidasining yuqori qismida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ 1875. “Xalq so‘zi” 2012 y, 240 (5660)-son.

1.2. Tojiboyev G.SH. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet til o‘qitishda kommunikativ yondashuv. Dis...dok.ped.nauk.-Toshkent, 2019.-100-104

1.3. Jo‘rayev A.X. Ispan tilida talabalar kommunikativ malakalarini takomillashtirish. Diss....ped.fanlar.dok.-Toshkent, 2019.-64-78

1.4. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. -L.: Oxford University Press, 2008.-168

1. 5. 新・はじめての日本語教育2 Toshiba International Foundation 2004.

1. 6. 国立国語研究所「話し言葉の文型」1993.

1. 7. 末田清子・福田浩子 『コミュニケーション学』 株式会社 松柏社 2011

1. 8. 林 進編 『コミュニケーション論』1989

Internet saytlar

1. <https://japaneselawtranslation.go.jp://www.amazon.com>

2. <https://japan.kantei.go.jp://en.m.wikiiversity.org>

3. <https://www.fps.chuo-u.ac.jp>

4. <https://ja.m.wikipedia.org>



О‘QUVCHILARDA LINGVISTIK TAHLIL QILISH KO‘NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH USULLARI

Rustamova Gulrux Nasriddinovna
Nurota tumani 5 umumta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Fan sirlarini o‘rganishda ma’ruzalar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning ham roli katta. Xususan, tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy asoslarini, qonun-qoidalarini amaliy mushohadasiz o‘rganish qiyin. Amaliy mashg‘ulotlar saviyasini oshirish, xilma-xilligini ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchi-talabalarning ijodiy faolligiga erishish, nazariy bilimlarini chuqur va izchil o‘zlashtirishning muhim omillaridandir.

Lingvistik tahlil o‘zbek tilshunosligining nazariy bilimlarini tizimli o‘rganishning eng maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til haqiqatlari haqidagi nazariy ma’lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari aniq misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi. Tahlil etuvchi har bir til dalillarining nazariy asoslarini puxta egallashga intiladi.

O‘zbek tilshunosligida amaliy mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan lingvistik tahlil metodikasi nazariy va amaliy jihatdan mustaqillikdan keyin ishlab chiqilmagan. Tilshunoslikning ma’lum sohalarini bo‘yicha tahlil o‘tkazish qoidalarini va tartibi belgilanmagan. Holbuki, oliy o‘quv yurtlari, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollej va litseylarining o‘quv-o‘qituv tajribasida o‘quvchi hamda talabalar bilimini yanada oshirish uchun lingvistik tahlil mashg‘ulotlariga va bu xil mashg‘ulotlarni o‘tkazish yo‘l-yo‘riqlari bayon qilingan qo‘llanmaga ehtiyoj katta.

Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o‘rganiladi. Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko‘ra aniq bir til yoki nutq birligini (so‘z yoki gapni) parchalab o‘rganishdir. O‘quvchi va bo‘lajak o‘qituvchilarning til hodisalarini tez va to‘g‘ri ajrata olish malakasini egallashlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o‘ynaydi. Lingvistik tahlil – o‘quvchi-talabalar bilimining ko‘z gusi. Bilim – turli qoidalar va atamalarni o‘zlashtirishdan iborat. Biroq undan amalda foydalana olmasa, u faqat yodaki qoida va atamalardan iborat bo‘lib qoladi, xolos. Kishining ma’lumoti, madaniyati uning faoliyatida ko‘ringanidek, haqiqiy bilim amaliyotda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Agar o‘quvchi yoki talaba tilshunoslikdan nazariy dars o‘tilgandan so‘ng shu darsda berilgan bilimni ma’lum bir matnni parchalab o‘rganishda mustaqil qo‘llay olsa, bunday bilim haqiqiy lingvistik bilim sanaladi. Ularning olgan bilimining haqiqiyliigi, mustahkamligi tahlil jarayonida ko‘rinadi. Lingvistik tahlil talaba va o‘quvchida bilimni amalda ishlata bilish malakasini hosil qiladi. Lingvistik tahlil orqali talaba va o‘quvchilar berilgan nazariy bilimning – lingvistik qoidalarini mohiyatiga ongli, amaliy tushunib yetadilar. Talaba lingvistik tahlil jarayonida, tilning aniq bir hodisasiga bog‘liq holda, nazariy darslarda olingan bilim, qoidalar ustida mustaqil mushohada qiladi, o‘z ongida ularni qayta ishlab chiqadi. Bu esa mazkur hodisalar mazmunini ochuvchi fikrlarning o‘quvchi-talaba xotirasida nisbatan uzoq saqlanib qolishini ta’minlaydi. Faqat tahlil orqaligina ayrim murakkab til hodisalarining mohiyatini yaxshiroq anglash mumkin.

Lingvistik tahlil o‘quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish yo‘lidagi metodik usullardan biridir. Tilshunoslikning har bir tarmog‘i o‘qitilayotganda o‘qituvchi lingvistik tahlildan, albatta, foydalanishi lozim. Lingvistik tahlil uy vazifasi sifatida ham berilishi mumkin. Ammo buning uchun o‘quvchi-talabalarda til dalillarini tahlil qila olish malakasi bo‘lmog‘i lozim. Morfologiya va sintaksis bilan bir qatorda fonetika, leksikolodiya, orfoepiya, orfografiya, so‘zning morfologik xususiyati, so‘z yasalishi kabi sohalar o‘tilayotganda shularga aloqador lingvistik hodisalar yuzasidan tahlil uyushtiriladi.

O‘quvchi-talabalar bilan olib boriladigan lingvistik tahlilni amaliy jihatdan ikki turga ajratish mumkin:

1. Og‘zaki lingvistik tahlil.
2. Yozma lingvistik tahlil.

Tahlildagi bu ikki usulning ham o‘z afzalliklari bor. **Og‘zaki tahlil** kam vaqt talab qiladi o‘quvchi-talabalarning lingvistikadan olgan bilimni qisqa muddat ichida aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, tahlil qilayotgan o‘quvchi-talabalarga, agar u xatolarga yo‘l qo‘ysa, o‘z vaqtida yordamlashish imkoniyati ham bo‘ladi. Tahlilning bu usulidan dars jarayonida ko‘proq foydalaniladi.

Yozma lingvistik tahlilning ham o‘ziga xos ijobiy tomonlari bor. Yozma tahlil qilayotgan o‘quvchi-talabalar bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hatto, u nazariy manbalardan ham foydalanishi mumkin. Yozma lingvistik tahlil ko‘proq uy vazifasi qilib beriladi.



Lingvistik tahlil til hodisalarini qamrash chegarasiga qarab to‘liq va to‘liqsiz tahlil deb ham ajratiladi. Matnni to‘liq lingvistik tahlil qilish ko‘p vaqt talab qiluvchi murakkab ishdur. Matnni til haqidagi fanning hamma tarmoqlari bo‘yicha tekshirish, tom ma‘noda, to‘liq lingvistik tahlil hisoblanadi. Dars jarayonida bunday tahlildan foydalanib bo‘lmaydi. Umuman, bunday tahlilga ehtiyoj ham sezilmaydi. To‘liq lingvistik tahlildan fakultativ kurslarda, tilni chuqur o‘rganuvchi to‘garaklarda foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz “to‘liq lingvistik tahlil” tushunchasini ma‘lum bir tarmoq, bo‘lim yoki turkumga nisbatan ishlatdik: **to‘liq morfologik tahlil, to‘liq sintaktik tahlil** kabi.

Lingvistikaning biror tarmog‘i yuzasidan o‘tkaziladigan to‘liq tahlil shu predmet uchun berilgan soatlarning oxirgi qismida yoki tilshunoslikning boshqa tarmoqlari o‘rganilayotganda o‘tkaziladi. Masalan, to‘liq fonetik tahlilfonetikadan berilgan hamma mavzular o‘rganilib bo‘lingach yoki orfografiyadan bo‘ladigan darslar orasida o‘tkazilgani ma‘qul. To‘liq tahlildan yozma ish sifatida foydalanilsa ham bo‘ladi.

To‘liqsiz yoki tematik tahlil ma‘lum bir tarmoqning ayrim mavzulari yuzasidan o‘tkaziladi. Masalan, “Ot haqida ma‘lumot”, “Atoqli va turdosh otlar”, mavzulari o‘tilgandan keyin to‘liqsiz tahlil o‘tkaziladi. Bunda diqqat uch masalaga qaratiladi: ot, atoqli ot, turdosh ot. Bundan keyingi tahlil darslarida e‘tibor qaratiladigan masalalar soni oshib boraveradi, ya‘ni ot, otning ma‘no turlari (atoqli, turdosh, aniq, mavhum, yakka, jamlovchi otlar), otlarda son, egalik, kelishik kategoriyalari kabi. To‘liqsiz tahlilni ma‘lum bir kichik mavzuning o‘zigagina bog‘lab o‘tkazishning didaktik nuqtai nazardan ahamiyati kam. Oldin o‘tilgan, shu mavzuga aloqasi bor materiallarni ham tahlil talabiga kiritish kerak. Masalan, kelishiklar yuzasidan bo‘ladigan tahlil darsida faqat kelishik qo‘shimchalari va ularning ma‘nosiga e‘tibor berish shu mavzuni unga (kelishiklarga) aloqador oldingi soatlarda o‘tilgan mavzulardan uzib qo‘yadi. Ot turkumi bo‘yicha kelishik kategoriyasiga qadar o‘tilgan manbalarni o‘rganishni ham tahlil talabiga kiritish o‘rinlidir. Bunga oldin kelishik qo‘shimchalari va ularning ma‘nosi, so‘ng otning ma‘no turlari hamda boshqa kategoriyalari tahlil etiladi. To‘liqsiz tahlildan har bir amaliy mashg‘ulot darsida foydalanib, vazifalar soni oshib borilaversa, o‘quvchi-talabanning bilimi qat‘iylashib, kengayib, mustahkamlanib boradi.

Dars turi sifatida lingvistik tahlil ma‘lum didaktik va metodik talablarga javob berishi lozim. Lingvistik tahlil til haqidagi fanning har bir tarmog‘i uchun tuzilgan muammo talabiga to‘la mos bo‘lishi kerak. Uning oldida ham til haqidagi fanlarni o‘qitish oldiga qo‘yiladigan metodologik va uslubiy talablar qo‘yiladi.

Lingvistik tahlil oldiga qo‘yiladigan qat‘iy talablar quyidagilar:

1. Ilmiylik qonuniyati.
2. Ma‘lum jadval asosida ish ko‘rish qonuniyati.
3. Bir tur tahlilni boshqa bir tur tahlil bilan almashtirib yubormaslik qonuniyati.
4. Tahlilni doimiy o‘tkazib borish qonuniyati.

Tahlilda ilmiylikka amal qilish qonuniyati juda muhim bo‘lib, til hodisalariga jiddiy munosabatda bo‘lishdan kelib chiqadi. Ilmiylik – til hodisalarining tabiatini to‘g‘ri ko‘rsatish, qanday mavjud bo‘lsa, shunday ta‘riflash demakdir. Har bir til hodisasiga aniq yondashish, uning boshqa hodisalarga munosabatini, uzoq yoki yaqinligini; ayrim yoki umumiylikini ko‘rsatish til dalillariga ongli munosabatda bo‘lishni talab etadi. Til dalillarini tarixiylik nuqtai nazaridan yoritish ham ilmiylik talabidir.

Ikkinchi qonuniyat belgilangan tahlil jadvali bo‘yicha o‘quvchi-talabanning mustaqil harakat qilishini talab qiladi. Xuddi shu qonuniyat orqali o‘quvchi-talabanning nazariy bilimlarni qay darajada egallaganligi kuzatiladi. Ma‘lum jadval asosida erkin tahlil eta bilish malakasini hosil qilish jiddiy ahamiyatga ega. Tahlil jadvali yaxshi o‘ylangan, tarmoq, fan yoki ayrim bo‘limlarning asosiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, sodda, tushunarli bo‘lmog‘i kerak. Jadval qismlarini o‘ta murakkablashtirib yuborish tahlilning ma‘nosi va qonuniyatlarini tushunishni qiyinlashtiradi.

Har bir tahlil turning maqsadi va chegarasi qat‘iy bo‘lmog‘i zarur. Bu o‘quvchi-talabaga bir xil tahlil bilan boshqa xilini ham aralashmaslik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Lingvistik tahlilni doimiy o‘tkazib borish qonuniyati ham zamonaviy pedagogikaning didaktik talablaridan kelib chiqadi. Doimiy o‘tkazilmaydigan tahlil orqali til fanidan o‘quvchi-talabalarni chuqur bilimliq qilib bo‘lmaganidek, olingan bilimlarni ham yaxshi aniqlash mumkin emas.

Lingvistik tahlil uchun misol tanlashda quyidagi tartibga amal qilish talab etiladi:

- a) alohida til birligi tanlanadi: tovush, so‘z, so‘z birikmasi, gap va hokazo;
- b) ma‘lum matn tanlanib, shu matn ichidan til birligi yoki til birliklari olinadi; so‘z, uning



fonetik yoki morfologik jihati o'rganiladi, so'z birikmasi yoki gap bo'lagining sintaktik xususiyatlari o'rganiladi;

с) ma'lum matn tanlanib, u yaxlitligicha o'rganiladi.

Adabiyotlar ro'uxati

1. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. –T.: 2018-yil.
2. Стаховский Н.Н. О грамматическом разборе по русскому языку, Львов – 1962.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SATIRIK JANRLAR TASNIFI

Muqadas Ikromovna Murodova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. XX asrda satira dunyo adabiyotida yangi taraqqiyotni boshlaydi. Aslida, satira ta'riflari universal emas. U barqaror jamiyatda gullab-yashnaydi va bir xil axloqiy me'yorlarni, nomuvofiqlik va ikkiyuzlamachilikni fosh etishga qaratiladi. U shafqatsizlik va ahmoqlikni bo'rttirib ko'rsatib beradi. Satirik asardan to'g'ri xulosa chiqarish lozim. Haqiqiy satirik asarlar jamiyatdagi, insonlardagi nuqsonlarni tuzatish uchun ogohlik da'vatidir. Voqelikning hajviy holatlari adabiyotning satirik yoki yumoristik asarlarida aks etadi. Satirada jiddiy ziyon yetkazuvchi, qolaversa, bir kishiga emas, balki ko'pchilikka ijtimoiy zararli bo'lgan har qanday o'ta salbiy hodisalarni keskin, qat'iy, so'zsiz qoralash va o'tkir hajv mavjud. Ijtimoiy ahamiyatga molik hodisalarga oid satirik asarlar siyosiy kurashlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: satirik hikoya, satirik qissa, satirik she'r, satirik roman, satirik komediya, satirik tragediya.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, satira ikki maqomga ega, ya'ni rasmiy va norasmiy. Rasmiy satiralarda hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan xatolar hazil sifatida namoyish etiladi. Norasmiy satiralarda bu kamchiliklar yanada kulgili tasvirlanadi, muallif mutlaqo mazax qiladi, nafaqat ularni to'xtatishni, balki bunday narsalardan xalos bo'lishni xohlaydi. Shuning uchun mubolag'a, istehzo, parodiya, taqqoslash satirik asarlarda tez-tez ishlatiladi. Buni Servantes, Bokachcho, Svift, Shchedrin, Gogol, Maxmur, Muqimiyning durdona asarlarida ko'rish mumkin.

Agar muallif biron narsani bo'rttirib ko'rsatsa, uni giperbola deb atash mumkin. Giperbola – (gr. huperbole – mubolag'a so'zidan). U yoki bu narsa, xususiyat, voqea va belgini o'ta kuchaytirib, ortirib tasvirlash vositasi. Mubolag'a vositasida ijodkor tasvirlanayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlardan ajratib, bo'rttirib ko'rsatish, uni goh maqtash, goh masxaralashga erishadi. Shuning uchun mubolag'a turli xalqlarning qadimgi eposidan tortib hozirgi asarlargacha keng qo'llanilib keladi [1;26]. Satirada aynan kulgi ostiga olingan obyektning teranroq anglatish uchun mubolag'adan unumli foydalaniladi.

Ironiya – mutlaqo boshqacha ahamiyat berish uchun tushunarli ravishda to'g'ri bayonot yoki voqea kontekstida buzilib ketadigan mantiqiy bo'lmagan hazil-mutoyiba. Ironiya – (gr. eironeia – bilib bilmaganga olish so'zidan) – kinoya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Ironiya hazil, zukkolik va kinoya bilan bir qatorda komiksning estetik toifasining asosiy darajasini tashkil etuvchi eng dolzarb xususiyatlarga ega bo'lgan birliklarni anglatadi. Olima L. Jalilova “satira” va “yumor” tushunchalari borasida hali hanuz bir to'xtamga kelinmaganini, turli munozaralar atrofficha tadqiq etish kerakligini anglatishini ta'kidlaydi: “Ba'zan satiraga lirika, doston va dramalar bilan bir qatorda (L. Timofeev, Ya. Elsberg, A. Makaryan va boshqalar) hatto adabiyotning to'rtinchi turi sifatida qaralib, haqiqatni aks ettirishning o'ziga xos usuli deb hisoblanadi (I. Eventov). Bugungi kunda satira – shaxs xatti-harakatlarini tanqid qilish uchun ishlatiladigan juda kuchli badiiy shakl. Ushbu shaklning xususiyatlari olimlar tomonidan turlicha aniqlangan. Satira haqidagi bir qancha tanqidiy kitoblar muallifi M.D. Fletcher satira tarixiy voqelikning ba'zi jihatlarini masxara qiladigan ijtimoiy verbal agressivlik, deb biladi [2;11].

Fikrimizcha, satira jamiyat hayoti uchun muhim bo'lib, unda har bir davrning o'ziga xos kamchiliklari, inson xatti-harakatlaridagi nuqsonlar ayovsiz masxaralanib, qattiq kulgi ostiga olinadi. Satirada tanqidiy ruh kuchli bo'lib, kamchilik va nuqsonlardan voz kechish maqsad qilinadi.

O'zbek va ingliz adabiyotshunosligiga mansub turli janrdagi satirik janrlar tasniflandi. “1.1-jadvalga qarang”.



O'zbek va ingliz adabiyotida yaratilgan satirik janrlardan namunalar

T/r	Satirik janrlar	O'zbek tilidagi badiiy asarlar	Ingliz tilidagi badiiy asarlar
	satirik she'r	Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning "Tanobchilar"	Persi Shelley "Anarxiya niqobi" Jon Drayden "Mak Flekno"
	satirik masal	Gulxaniy "Zarbulmasal"	Jorj Oruel "Molxona"
	satirik hikoya	Abdulla Qodiriy "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" Said Ahmad "Qoplon"	Mark Tven "G'aroyib o'g'irlik"
	satirik qissa	G'afur G'ulom "Shum bola"	Mark Tven "Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar"
	satirik roman	Said Ahmad "Jimjitlik"	Jonatan Svift "Gulliverning sayohatlari"
	satirik komediya	Said Ahmad "Kelinlar qo'zg'oloni"	Ben Jonson "Har kimning o'z kayfiyati bor"
	satirik tragediya	Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush"	Ben Jonson "Seyanoning qulashi"

Xulosa shuki, yuqoridagilar satiraning asosiy xususiyatlaridir. Satira jamiyatda muhim ahamiyatga ega, shuning uchun u qadimgi davrdan hozirgi kungacha rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug'ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – B.26.
2. Жалилова Л. XX аср бошидаги Америка сатирик новелласининг поэтикаси; Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) диссер. автореф. – Бухоро, 2021. – Б.11.
3. Синагова Н.Г. Римская сатира как философский жанр: Дисс. ... канд. филос. наук: Екатеринбург, 2005. – 156 с.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ОСОБЕННОСТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Исхакова С.А. PhD, доц.
Самаркандский институт
экономики и сервиса, РУзб.

Аннотация: в статье рассматривая основные тенденции развития сферы услуг обоснована необходимость внедрения инноваций, а также раскрыты особенности инновационного развития сферы услуг в Узбекистане, выявлены проблемы развития инновационной деятельности в сфере услуг.

Ключевые слова: услуга, сфера услуг, сервис, сервисная экономика, высокотехнологичные услуги, инновации, НИОКР, патенты, коммерциализация инноваций.

Современная экономика является сервисной экономикой. Стремительное развитие экономики ведущих стран привело к доминированию сферы услуг над промышленностью. Так, суммарная доля услуг в валовом внутреннем продукте этих стран составляет 70–76%, количество работников отраслей сферы услуг в общей численности занятых – 66–76%. В экономике Узбекистана в 2022 году доля сферы услуг в ВВП достигла 41,5%, доля занятых – 50,5%.¹

К основным тенденциям и процессам развития сферы услуг можно отнести:

– возрастающий спрос на новые высокотехнологичные услуги, в том числе информационно-телекоммуникационные, услуги связи, медицины, а также повышение требований к качеству исполнения традиционных услуг – бытовых, автосервисных, ремонтно-восстановительных;

– сфера услуг переходит в разряд наукоемких секторов экономики, генерируя, производя разнообразные инновации, в частности, по компьютерным, телекоммуникационным, ремонтно-строительным, медицинским, образовательным и другим технологиям и услугам;

– повсеместное использование сложных ИТ-систем и компьютерных программ, возможностей телекоммуникаций и социальных сетей, обеспечивших ведение электронного бизнеса;

– увеличение удельного веса финансовых услуг, которые объединяют продукты нескольких отраслей: банковской, страховой и недвижимости;⁴

– потребитель становится не только объектом, но и субъектом оказываемых услуг, вступает в непосредственные отношения с производителями и посредниками, контролирует и направляет их деятельность, оценивает качество организации трудовых операций в таких отраслях сферы услуг, как туризм, образование, здравоохранение, наука и культура, индустрия развлечений.²

В научной литературе подчеркивается, что повышение конкурентоспособности экономических субъектов становится возможным только при условии их инновационного развития. При этом под инновационным развитием понимается увеличение доли НИОКР, численности исследовательского персонала, числа зарегистрированных патентов, а также внедрение и коммерциализация технологических инноваций.

Внутренние затраты на исследования и разработки составили в Узбекистане в 2022 г. 0,15% от ВВП против 1,1% в России; 3,4% – в США; 3,5% – в Австрии, Бельгии и Швеции; 5,4% – в Израиле⁵.

1 Официальный сайт Госкомстата Республики Узбекистан. [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.stat.uz. (дата обращения 30.05.2023).

5 Басс А. Я., Разомасова Е. А. Экономические механизмы активизации развития сферы услуг в России // Вестник Томского государственного университета. 2008. № 315. С. 141–147.



В утвержденной Правительством Узбекистана «Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» приняты ориентиры выхода к 2026 году на значение данного показателя до 0,24%.⁶

Услуги отличаются от товаров по ряду важных аспектов, и эти различия зачастую вызывают трудности при разработке инновационных инициатив. Одна из важных проблем, стоящих перед организациями сферы услуг, – отсутствие традиций, связанных с инновациями.

Особенностью инноваций в организациях сферы услуг является не только непосредственно состав услуги, но и способ ее оказания и продвижения. Иными словами, оказание услуг подразумевает инновации преимущественно в процессах, а не в объектах. Таким образом, управление инновационной деятельностью в сфере услуг может быть более сложной задачей, чем в сфере материального производства.

Уровень развития инноваций характеризуется инновационной активностью организаций как степень участия организации в осуществлении инновационной деятельности в целом или отдельных ее видов в течение определенного периода.

Совокупный уровень инновационной активности определяется как отношение числа организаций, осуществлявших одновременно инновации всех типов (технологические, маркетинговые, организационные) либо инновации отдельных типов (сочетаний), к общему числу обследованных за определенный период организаций. Показатели инновационной активности организаций сферы услуг в зависимости от типа инноваций свидетельствуют о высокой доле продуктивных инноваций только для сферы научных исследований и разработок; для остальных характерно преобладание процессных инноваций.

Для деятельности, связанной с компьютерными и информационными технологиями, а также со связью, характерно примерное равенство продуктивных и процессных инноваций. Финансирование за счет государственного бюджета осуществляется только для такого вида деятельности, как «научные исследования и разработки», в размере двух третей от затрат; для остальных отраслей сферы услуг финансирование технологических инноваций осуществляется за счет заемных и собственных средств предприятий.

В целом инновационную активность отраслей сферы услуг можно оценить, как низкую, за исключением инноваций, связанных с традиционными функциями управления на предприятиях.

Необходимость внедрения инноваций для отраслей сферы услуг частично определяется организационным уровнем предприятий: чем выше уровень, тем более востребованными становятся инновации. Высокий организационный уровень имеют предприятия, связанные с интеллектуальной деятельностью и новыми техническими и технологическими достижениями: компьютерные услуги, программное обеспечение, ремонт и техническое обслуживание импортной радиотелевизионной аппаратуры и бытовой техники, автосервис иномарок, сотовая связь, медицинские и оздоровительные услуги, химическая чистка и крашение одежды, консалтинговые услуги. Низкий организационный уровень деятельности сохраняется на предприятиях жилищно-коммунального обслуживания, в ремонтно-строительных фирмах, учреждениях социального обслуживания.

Основные проблемы развития инновационной деятельности в сфере услуг:

- слабые научно-технические связи с вузами, научно-исследовательскими организациями;
- нехватка компетентных специалистов в инновационной деятельности;
- недостаточность собственных финансовых средств, малый стартовый капитал, ограниченные возможности накопления средств;
- отсутствие финансовой государственной поддержки;
- инновации не являются приоритетом в структуре бюджетных расходов;
- использование устаревших приемов и методов планирования работ и расходов, неэффективное использование материальных и людских ресурсов;
- наличие «теневых» сектора экономики, не заинтересованного в инновациях и др.

⁶ Стратегия инновационного развития Узбекистана на 2022-2026 годы. Приложение № 1 к Указу Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы» от 6 июля 2022 года № УП-165. <https://lex.uz/docs/6102464>



Список использованной литературы:

1. Стратегия инновационного развития Узбекистана на 2022-2026 годы. Приложение № 1 к Указу Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы» от 6 июля 2022 года № УП-165. <https://lex.uz/docs/6102464>
2. Басс А. Я., Разомасова Е. А. Экономические механизмы активизации развития сферы услуг в России // Вестник Томского государственного университета. 2008. № 315. С. 141–147.
3. Маннапов Р. Г. Организационные аспекты инновационного развития сферы услуг региона // Инновационная деятельность. 2012. № 19. С. 83–88
4. Официальный сайт Госкомстата Республики Узбекистан. [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.stat.uz. (дата обращения 30.05.2023).



Abduboqiyev Muxammad Sharofitdinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti
abduboiyev@mail.ru
тел: 93-511-60-24

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni byudjetlashtirish amaliyotini samarali tashkil etishning ilmiy jihatlari o'rganilgan. Mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida kapitalni byudjetlashtirish jarayonidagi mavjud muammolarni va ularni bartaraf etishga doir mualliflik yondashuvlari bayon etilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida byudjetlashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar: *kapital, moliyaviy resurs, byudjet, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, iqtisodiy o'sish, loyihalar, innovatsiya, samaradorlik.*

Bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan bo'lsada, biroq xalqaro amaliyotda kompaniyalar istiqbolini prognoz qilishda keng foydalaniladigan korporativ baholash instrumentlarini joriy etishning amaldagi holati bo'yicha ijobiy xulosaga kelish qiyin. Aynan moliyaviy qarorlar qabul qilishda investitsion risklarni baholash, korporativ baholash mexanizmini muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Kompaniyalar faoliyatiga moliyaviy risklar ta'sirini baholash nazariyasini ishlab chiqishda erishilgan yutuqlarga qaramay, ko'plab muammolar hal etilganicha yo'q, ularni hal qilish metodologiyasi va uslubiy bazasi amaliyot talablaridan ortda qolmoqda, hamda asosiy yondashuvlar va masalalar bo'yicha fikrlardagi farqlar kuzatilmog'da. Tan olish lozimki, hozirgi kunga qadar aynan investitsion risklarni aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirini baholash metodologiyasi ilmiy tadqiqot ishlarda keng o'rganilmagan. Shuning uchun, investitsion risklarni aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha ta'sirini baholashning uslubiy jihatlari tadqiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishning zaruriyati bugungi kunda tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda kompaniyalar moliyasini boshqarish siyosatini muvofiqlashtirish, moliyaviy menejmentning xalqaro zamonaviy uslubiyatini joriy etish, kompaniya faoliyatidagi dolzarb masala hisoblangan moliyaviy ta'minotning qo'shimcha manbalarini shakllantirishda moliya bozori bilan munosabatlarni rivojlantirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Kapitalni byudjetlashtirish (investitsiya byudjeti, inglizcha "capital budgeting") - bu kompaniyalar kapital loyihalarga, ya'ni amalga oshirish muddati bir yil yoki undan ortiq bo'lgan loyihalarga sarmoya kiritish to'g'risida qaror qabul qilish uchun foydalanadigan jarayon. Bu jarayon asosan moliyaviy tahlilchilar tomonidan foydalaniladigan fundamental tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aytib o'tish kerakki, moliyaviy ekspertlar tomonidan aniqlangan moliyaviy koeffitsientlar nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy masalalari bo'yicha mas'ul menejerlar balki investor va aksiyadorlar uchun ham muhim axborot ta'minot manbai hisoblanadi. Shuningdek, kapital qo'yilmalar byudjetini samarali boshqarilishi kompaniyani istiqboldagi moliyaviy holatini belgilash bilan birga, uzoq muddatli aktivlarning yetarliligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Aksariyat xorijiy adabiyotlarda kapitalni byudjetlashtirish investitsiyalarni baholash sifatida ham yondashilgan holda ta'rif beriladi hamda kompaniya tomonidan byudjetlashtirish jarayonida qaysi asosiy vositalarni modernizatsiya qilish yoki qaysi loyihaga investitsiyalar mos kelishiga doir qaror qabul qilinadi. Mazkur jarayonda, har bir loyiha bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar muqobil usullar yordamida hisoblab chiqiladi hamda boshqaruv organlari tomonidan ijro organlari bilan kelishgan holda tegishli qarorlarni qabul qilish nazarda tutiladi.

Kapitalni byudjetlashtirish biznes tamoyillarini takomillashtirishga xizmat qiladigan bir qancha xususiyatlarga ega:

Kiritilgan investitsiyalarning uzoq davr mobaynida qoplanishi. Korxonada tomonidan ma'lum loyihalar bo'yicha kiritilgan sarmoya, istiqbolda samaradorlik va foydaga ega bo'lishi tabiiyki ma'lum yillarni talab qiladi. Bunda asosiy e'tibor moliyaviy menejerlar tomonidan kiritilgan sarmoyalar bo'yicha xalqaro umume'tirof etilgan usullar orqali samaradorlik ko'rsatkichlarni prognozini ishlab chiqishni va amaliyotga tadbiiq etishni taqozo etadi.



Kiritilgan investitsiyalarning yuqori daromadga ega bo'lishi. Albatta har qanday investor tomonidan ma'lum loyihaga kiritilgan sarmoyaning daromadliligi asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Bunda har bir qilingan sarmoyaning istiqbolda qancha miqdorda daromad keltirish masalasiga alohida ahamiyat qaralib, moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi risk omillari tahlil qilinadi.

Loyihalar bo'yicha daromadlilikka ta'sir etuvchi risk omillarini hisobga olish. Har qanday qabul qilinadigan investitsion loyihalar ma'lum ma'noda tizimli va tizimsiz risklar ta'siri ostida bo'lib, bunda investitsion risklarni boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Fikrimizcha kapitalni byudjetlashtirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, kapital qo'yilmalarga doir qarorlarni bekor qilish yoki ularga o'zgartirish kiritishlar aksiyadorlik jamiyatlari uchun qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqarishini hisobga oladigan bo'lsak, qarorlar qabul qilish jarayoni har tomonlama tizimli yondashuvni talab qiladi. Ikkinchidan, kapitalni byudjetlashtirish jarayoni bir nechta tamoyillar asosida shakllanishi e'tiborgan olgan holda ushbu tamoyillar aktivlarga sarmoya kiritish, qo'shib olish va birlashish, faoliyatni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiya, xalqaro kapital bozorida resurslar jalb qilish singari korporativ qarorlarga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Uchinchidan, kapitalni byudjetlashtirishda qo'llaniladigan baholash tamoyillari fond bozorini tahlil qilish va investitsiya portfelini boshqarishda qo'llaniladigan baholash tamoyillariga o'xshashdir. Bozor tahlilchilari va portfel menejerlari tomonidan qo'llaniladigan ko'plab usullar kapitalni byudjetlashtirish usullariga asoslanadi. O'z nabatida bozorni tahlil qilish va portfelni boshqarishdagi ba'zi innovatsion yondashuvlar ham kapital byudjetiga moslashtirilgan.

Mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida kapital byudjetlashtirish va investitsion qarorlar qabul qilishning amaliy jihatlarni takomillashtirishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish bugungi kunda ular oldida turgan moliyaviy resurslarni shakllashtirish va manbalarni optimallashtirish, investitsion imkoniyatlarni oshirish, korporativ baholash amaliyotini takomillashtirish singari muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlarda ijobiy yechimlarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorlik darajasini past darajada saqlanib qolayotganligi, moliyaviy xisobotning xalqaro standartlarini joriy etish bilan bog'liq kechikishlar, korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlarini joriy etish bilan bog'liq muammolarning mavjudligi aynan tadqiqot mavzusini dolzarb ekanligini namoyon etish bilan bir qatorda mazkur yo'nalishdagi xalqaro amaliyot tajribalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Moliyaviy qarorlar qabul qilish nafaqat istiqboldagi strategiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar balki joriy faoliyatni moliyaviy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Moliyaviy qarorlar qabul qilish aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy masalalar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari yoki moliyaviy menejerlardan tashqi va ichki omillarni har tomonlama tahlil qila olish, moliyaviy resurslarni optimal joylashtirish, investitsion qarorlar va moliyaviy risklarni boshqarish bilan bog'liq sohalarda chuqur amaliy va nazariy ko'nikmalarni talab qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning amaliy va nazariy jihatlari keng qamrovli mavzulardan biri bo'lib, mazkur yo'nalishda ko'plab ilmiy maqola va tadqiqotlar olib borish jarayonida mazkur yo'nalishning muhim jihatlari yoritib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6096-son Farmoni.

2. Касимова М.И. Рынок капиталов: сущность, содержание и его место в системе рыночных отношений//Фундаментальные исследования – 2016 с. 152-156.

3. Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – TMI.: Toshkent – 2019, 21 b.

4. Elmurodov S. Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda moliyaviy mexanizmlarning iqtisodiy ahamiyati va o'rni //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – T. 8. – №. 3. – S. 160-165.

5. Obidov R. R., Sharaxmatov D. D., Kuljanov O. M. Klaster tizimida asosiy vositalar xarajatlari hisobini takomillashtirish //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 6. – S. 1331-1339.

6. Tashmuradova B., Hamdamov O., Elmurodov S. Evaluation of the determinants of shadow economy in selected central Asian countries //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – T. 12. – №. 7.



МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ ПРОГНОЗ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ

Абдуллаева Мадинабону Хасанбоевна

Тошкент молия институти

мустақил изланувчиси

madina.abdullayeva.96@internet.ru

тел: 94-602-11-44

Аннотация. Мақолада корпоратив молиявий бошқарув механизмини ташиқил этишида молиявий рискларни баҳолаш амалиётининг аҳамияти ва бугунги кундаги долзарблиги баён этилган. Молиявий рискларни баҳолашда фойдаланиладиган эконометрик инструментлар ва уларнинг амалий жиҳатлари тадқиқ этилган. Амалга оширилган тадқиқот натижаларидан келиб чиққан ҳолда молиявий рискларни баҳолаш механизмини амалиётга тадбиқ этиш бўйича тавсиялар шакллантирилган.

Калит сўзлар: корпоратив бошқарув, молиявий менежмент, инвестицион риск, инвестиция портфели, эхтимоллик, вариация коэффициенти, риск даражасини баҳолаш, нормал тақсимот.

Акциядорлик жамиятларида молиявий ва инвестицион қарорларни қабул қилиш жараёнлари ва механизми, жаҳон иқтисодиёти ривожланиш циклининг турли босқичларида, сиёсий, ижтимоий ва институционал омиллар таъсири остида ўзгариб турувчи макроиқтисодий вазиятлар туфайли амалиётга жорий этилиши бўйича турли рискларга дуч келади. Жаҳон иқтисодиётидаги инқироз ҳодисалари, жумладан бугунги кунда аксарият давлатлар иқтисодиётида кутилаётган рецессия ҳолатлари Ўзбекистонда фаолият юритаётган компанияларнинг рисклилиқ даражасига таъсир этмай қолмайди. Бироқ, таъкидлаш лозимки, инқироз нафақат банкротлик ҳолатлари ёки кўплаб молиявий йўқотишларга олиб келади, балки иқтисодий ўсишни қайта тиклаш ва бизнесни кенг кўламли модернизация қилиш заруриятини англаган ҳолда янгича ёндашув ва инновацион ғояларни ишлаб чиқиш имкониятларини ҳам тақдим этади.

Молиявий рискларни баҳолаш бир нечта арифметик кетма-кетлик (босқич)ни ўз ичига олади. Биринчи босқичда бутун инвестиция жараёнида олинadиган ўртача даромадлилик кўрсаткичлари аниқлаб олинади. Агар инвестиция портфели бир турдаги активлардан таркиб топган бўлса, бундай ҳолда активнинг ўртача кутилаётган даромадлилиги (\bar{r}) унинг содир бўлиш эхтимоллигига кўпайтириш ва натижаларни йиғиндиси орқали аниқланади ҳамда қуйидагича ифодаланади:

$$\bar{r} = \sum_{i=1}^{i=n} x_i * p_i \quad (1)$$

бу ерда: x_i -актив бўйича кутилаётган даромадлилик; p_i -даромадлиликни содир бўлиш эхтимоллиги, n -эхтимолий натижаларнинг сони.

Молиявий рискларни баҳолашда, тасодифий ифоданинг ўртача миқдори (даромадлилиги) муайян актив бўйича кутилаётган эхтимолликнинг тақсимот маркази сифатида хизмат қилади. Агар инвестиция портфели икки турдаги ёки иккита акциядорлик жамиятларининг акцияларидан таркиб топган бўлса, бундай ҳолда мазкур портфел бўйича кутилаётган даромадлилик унинг таркибига кирувчи активларнинг ўртача тортилган даромадлигига тенг бўлади.

Биринчи акциянинг жорий курси ва унинг кутилаётган даромадлигини мос равишда S_1 ва \bar{r}_1 , иккинчи акциянинг юқоридаги кўрсаткичларини эса S_2 ва \bar{r}_2 сифатида белгилаймиз. Биринчи акция портфелга n_1 , иккинчиси эса n_2 миқдорда киритилган. Бундай ҳолатда, портфелнинг жорий баҳоси P_0 қуйидагича тенг бўлади:

$$P_0 = n_1 S_1 + n_2 S_2 = \theta_1 P_0 + \theta_2 P_0 \quad (2)$$

бу ерда: θ_1, θ_2 – портфелдаги биринчи ва иккинчи активларнинг улуши, $\theta_i = n_i * S_i / P_0$



Агар акцияларнинг даромадлиги уларнинг кутилаётган даромадлигига тенг бўлса, у ҳолда P_1 давр охирида портфелнинг қиймати қуйидагича аниқланади:

$$P_1 = n_1 S_1 (1 + \bar{r}_1) + n_2 S_2 (1 + \bar{r}_2) = \theta_1 P_0 (1 + \bar{r}_1) + \theta_2 P_0 (1 + \bar{r}_2) \quad (3)$$

Бундай ҳолда \bar{r}_p портфелнинг кутилаётган даромадлиги қуйидагича тенг бўлади:

$$\bar{r}_p = \frac{P_1 - P_0}{P_0} = \frac{\theta_1 P_0 (1 + \bar{r}_1) + \theta_2 P_0 (1 + \bar{r}_2) - \theta_1 P_0 - \theta_2 P_0}{P_0} \quad (4)$$

Сурат ва махражларни P_0 қийматга қисқартириб, қавс ичидагиларни кўпайтирадиган бўлсак қуйидагича натижа ҳосил бўлади:

$$\bar{r}_p = \theta_1 + \theta_1 \bar{r}_1 + \theta_2 + \theta_2 \bar{r}_2 - \theta_1 - \theta_2 = \theta_1 \bar{r}_1 + \theta_2 \bar{r}_2 \quad (5)$$

Молиявий рискларни баҳолашнинг иккинчи арифметик босқичида, рискнинг миқдорий (тасодифий ифодани ёйилиш) ўлчовини аниқлашда дисперсия ва стандарт (ўртача квадрат) четланиш кўрсаткичларидан фойдаланилади. Актив даромадлигининг танланма дисперсияси қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$\sigma^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (r_i - \bar{r})^2}{n} \quad (6)$$

бу ерда: \bar{r}_i -i-чи даврда активнинг даромадлиги, n -кузатув даврларининг сони.

Амалиётда тасодифий ўзгарувчининг ёйилиши тасодифий ўзгарувчининг ўзи билан бир хил ўлчов бирликларида ифодаланган бўлса, таҳлил натижалари аниқроқ бўлади. Бу каби мақсадлар учун эса, тасодифий ўзгарувчининг ёйилиши (дисперсия) ўлчови сифатида стандарт (ўртача квадрат) четланиш кўрсаткичидан фойдаланилади. Стандарт четланиш қанча кам бўлса, эҳтимолли тақсимот диапазони шунча тор бўлади ва мазкур портфел билан боғлиқ риск даражаси ҳам паст бўлади. Молиявий менежментда, стандарт четланиш тасодифий ифода ўзининг ўртача қийматидан қанчалик четланиши мумкин эканлигини акс эттиради ҳамда қуйидагича ифодаланади:

$$\sigma = \sqrt{\sigma^2}$$

Эҳтимолликни нормал тақсимот қонуни ва унинг асосий параметрларидан келиб чиққан ҳолда, портфелнинг риск даражаси бўйича асосий хулосаларни шакллантириш мумкин. Бироқ олинган натижалар эҳтимоллик хусусиятига эга эканлигини ёдда тутиш лозим.

Фикримизча, молиявий рискларни баҳолаш ва прогнозлаш механизмини такомиллаштириш борасида қуйидагиларни амалга ошириш лозим.

Бугунги кунда мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш каби машаққатли вазифани стратегик мақсад сифатида белгиланиши акциядорлик жамиятларидан замонавий молиявий менежмент механизмини такомиллаштириш заруратини яна бир бор исботлаб бермоқда. Шунинг учун бугунги кунда инвестицион жозибадорлик, молиявий очиклик ва ҳар томонлама реал ҳолатни очиб беришни таъминлаш мақсадида акциядорлик жамиятлари томонидан молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этиш тартибини тамомла яқунлаш лозим. Чунки молиявий рискларни реал баҳолаш молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида амалга оширилади.

Мамлакатимиз қонунчилигида мавжуд бўлган акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш бўйича қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 28 июлдаги “Давлат улуши бўлган акциядорлик жамиятлари ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонларини жорий этиш тўғрисида”ги 207-сонли Қарори асосида ишлаб чиқилган Низомга самарадорликни баҳоловчи алоҳида кўрсаткич сифатида банкротлик рискин киритиш лозим. Ушбу кўрсаткич бўйича халқаро тажрибалардан келиб чиққан ҳолда алоҳида мезонларнинг белгиланиши ва ушбу мезонлар бўйича акциядорлик жамиятлари тегишли бошқарма ёки ижро органи раҳбари масъулияти ва жавобгарлигини жорий этиш лозим.

Учинчидан, аксарият халқаро амалиётда компаниялар ташкилий тузилмаси ишлаб ишлаб



чиқишда “инқирозга қарши молиявий менежер” штатини ташкил этиш масаласига алоҳида аҳамият қаратилади. Ўйлаймизки, ушбу тажрибадан мамлакатимизда фаолият юритаётган йирик корхоналар амалиётида самарали фойдаланиш, биринчи навбатда инқирозга қарши молиявий бошқарув стратегиясини шакллантириш механизмини ривожланишига олиб келса, кейинги навбатда банкротлик рискни баҳолаш ва прогноз қилиш, мавжуд молиявий ресурслардан оптимал фойдаланиш эвазига инқироз ҳолатига тушиб қолишлиги ва ижтимоий беқарорликнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этади.

Тўртинчидан, юқоридаги моделлардан мамлакатимиз акциядорлик жамиятлари амалиётида самарали фойдаланиш учун моделларнинг тармоқ хусусиятлари, акциялари фонд биржаларида муомалада бўлиши сингари муҳим мезонларни эътиборга олиш лозим. Чунки моделларни ишлаб чиқишда тармоқ хусусиятлари алоҳида эътиборга олинган бўлиб, масалан саноат тармоқларида фаолият юритаётган корхоналар учун мўлжалланган моделлар, қишлоқ хўжалиги, қурилиш ёки хизмат кўрсатиш тармоқлари учун алоҳида моделлардан фойдаланилади. Бундан ташқари моделлардан самарали фойдаланишдаги асосий мезон бўлиб, акциядорлик жамиятларининг қимматли қоғозлар фонд биржасидаги фаолияти ҳисобланади. Корхона молиявий менежерлари мазкур моделлардан самарали фойдаланишда ҳам айнан ушбу мезонга алоҳида эътиборини қаратиши лозим. Чунки моделларнинг айримлари қимматли қоғозлари фонд биржаларида котировка қилинадиган акциядорлик жамиятлари учун айримлари эса, қимматли қоғозлари фонд биржаларида котировка қилинмайдиган акциядорлик жамиятлари фаолияти учун мўлжалланган ҳисобланади. Банкротлик рискни баҳоловчи моделлардан фойдаланишда корхона молиявий фаолиятини баҳоловчи бошқа рентабеллик кўрсаткичларидан ҳам фойдаланиш юқори аниқлик билан натижага эришиш имкониятини яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ 4611-сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 14 декабрдаги “Давлат иштирокидаги корхоналарни молиявий соғломлаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1013-сонли Қарори.
3. Fung L. Financial management. Stewart House, 2012 у, р. 38.
4. Ковалев П.П. Особенности оценки рисков инвестиционных проектов//Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017 г., том 7. ст. 251-260.
5. Шимко П.Д. Международный финансовый менеджмент: учебник и практикум. 2-е изд., перераб., и доп. – М.: Юрайт - 2019 г. 494 ст.



СУҒУРТА МАҲСУЛОТАЛАРИНИ ТАСНИФЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Имомов Умид Ғайратжонович

Тошкент давлат иқтисодий университетининг
мустақил тадқиқотчиси PhD.

Аннотация. Мақолада “суғурта маҳсулоти” ва “суғурта хизмати”, “суғурта химояси” тушунчалари бўйича мавжуд илмий ёндашувлар таҳлил қилинган. Суғурта маҳсулотларининг таснифлашнинг назарий асослари ўрганилган. Суғурта маҳсулотларининг амалдаги таснифига янгича ёндашувлар, маҳсулотларнинг ҳар икки томон учун манфаатли бўлиш масалалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: суғурта, суғурта компанияси, суғурталанувчи, суғурта турлари, суғурта маҳсулоти, суғурта хизмати.

Самарали ва мижозлар талабларининг тўлақонли қондиришга йўналтирилган суғурта хизматлар бозорининг шакллантириш суғурта маҳсулотларининг таснифлашнинг назарда тутати. Суғурта маҳсулотларининг таснифлаш мезонлари ва уларнинг турларининг аниқлаш суғурта иши назариясининг асосий масалаларидан бири сифатида қаралади. Бу масаланинг тўғри йўлга қўйилмаганлиги суғурта бозоридан бир қанча муаммоларни келтириб чиқариши табиийдир. Сўнгги йилларда олиб борилган тадқиқотлар хорижий ва маҳаллий олимлар суғурта бозори ва унинг суғурта маҳсулотларининг ўрганишга катта ҳисса қўшиб келмоқда, бунда уларни соҳа, тармоқ, суғурталаш муддатлар ва амалга ошириш шакллари бўйича умумлашган стандартларни ишлаб чиқишга ҳаракат қилинмоқда. Шу билан бирга, суғурта маҳсулотлари ёки суғурта хизматларининг суғурталанувчи ва суғурталовчи учун бирдек жозибадорлигини ҳисобга олган ҳолда комплекс таҳлил амалга оширилмаган.

Олиб бориладиган тадқиқотлар суғурта бозорининг асоси бўлган “суғурта маҳсулоти”, “суғурта хизмати” ва “суғурта товари”ларига оидлик киритишни талаб қилади ва бу мантиқан тўғри ҳисобланади. Эмперик адабиётларда бу иқтисодий категорияларга кўплаб тушунча ва изоҳлар келтирилган. Уларнинг айримларининг кўриб чиқамиз.

Суғурта соҳасидаги етакчи олимлар “суғурта маҳсулоти” ва “суғурта хизмати”ларининг талқин қилишда маҳсулотга маркетинг нуқтаи назаридан ёндашилади. Муаллифларнинг фикрича “суғурта маҳсулоти”, “суғурта хизмати” ва “суғурта товари”лари бир бирига иқтисодий яқин, аммо айни бир пайтда улар бир-биридан фарқ қилади ва улар ўртасида иерархик муносабатни аниқлаш мумкин бўлади.

Бирламчи ва умумий тушунча бу “суғурта маҳсулоти”, яъни инсоннинг турли хил тасодифий ва эҳтимолий (одатда бахтсиз ҳодисалар) табиий ва ижтимоий ҳодисалар оқибатларидан иқтисодий химоя қилишни таъминлаш натижаси сифатида намоён бўлади. Суғурта маҳсулоти суғурта химояси ёки “суғурта хизматида” сифатида намоён бўлади. Агар “суғурта хизмати” сотилмаса ёки сотиб олинмаса, у “суғурта товари” бўлиши мумкин эмас, шунингдек, “суғурта товари” бўлиши мумкин, у суғурталовчилар томонидан сотиш учун ишлаб чиқарилган бўлиши ва мунтазам сотилиши керак бўлади. Шундай қилиб, замонавий суғурта маҳсулоти ва хизматларининг аниқ тавсифловчи тушунча “суғурта товари” сифатида намоён бўлади [1].

“Маҳсулот” ва “хизмат” тушунчалари ўртасидаги муносабатлар ҳақидаги худди шундай фикрни Ф.Котлер ҳам билдирган. Унинг фикрича моҳиятан ҳар қандай маҳсулот бу – ҳар қандай муаммони ҳал қилиш учун қадоқланган хизматдир [2].

Маҳсулот – бу эркин бозорда истеъмол учун таклиф қилиниши мумкин бўлган ва маълум эҳтиёжларни қондириш учун мўлжалланган ҳамма нарсадир. Суғурта маҳсулоти – бу суғурта шартномасида белгиланган ноҳуш ҳодисаларнинг аниқ рўйхати оқибатларининг олдини олиш ва баргараф этиш бўйича хизматлар мажмуи бўлиб, компания томонидан мижозга тақдим этилади. У асосий ва қўшимча маҳсулотларни ўз ичига олади [3].

Суғурта маҳсулоти – бу суғурта компанияси ўз мижозларининг эҳтиёжларининг қондириш ва фойда олиш мақсадида ишлаб чиқарадиган барча нарсадир [4].

Ҳар қандай маҳсулотни сотиб олишдан мақсад бу сотиб олувчининг эҳтиёжларининг қондиришдир. Суғурта маҳсулотининг ўзига хослиги шундаки, уни кўриш ёки ҳис этиб бўлмайди. Бунда суғурталовчининг ваъдаси сотилади, суғурта объекти эса билан суғурталанган шахснинг ҳаёти ёки соғлиғига моддий ёки жисмоний зарар этказилишига олиб келадиган



суғурта ҳодисаларидир ва бунда суғурта ташкилоти зарарни шартнома шартларига мувофик қоплаш мажбуриятини акс эттиради. Шу билан бирга, шартнома тузаётганда суғурталанувчи суғурта мукофотини (суғурта бадалини) ўз вақтида тўлаш мажбуриятини олади. Бу суғурта маҳсулоти ва оддий истеъмол маҳсулоти ўртасидаги асосий фарқлардан биридир. Суғурта маҳсулотини сотиб олиб, суғурталанувчи товарнинг истеъмолчиси сифатида ҳаракат қилади ва уни ўзига керак бўлган маҳсулот сифатида қарайди. Суғурталанувчи суғурта маҳсулотини сотиб олиш орқали ҳимоя омилига эга бўлади, бу ҳимоя жисмоний эмас, балки иқтисодий ҳимояни акс эттиради.

Янги суғурта маҳсулотини яратишда суғурта компаниясининг деярли барча бўлимлари фаол иштирок этишади. Мавжуд таклифлар тизимлаштирилади, маркетинглар томонидан маҳсулотнинг янгилиги, амалга ошириш техникаси, моддий, молиявий ва меҳнат ресурсларини ҳисобга олган ҳолда ўрганилади. Табиийки, янги ёки модернизация қилинадиган маҳсулот учун суғурта қоидаларини ишлаб чиқишда маркетинг хизмати, кейинчалик ушбу маҳсулот билан ишлайдиган тармоқ бўлими мутахассислари бевосита иштирок этишади. Бунда маҳсулотни яратиш, лицензиялаш ва сотиш билан боғлиқ мумкин бўлган харажатлар ва харажатларни қоплаш ҳисоб-китоблари амалга оширилади. Ҳодисаларнинг юз бериши мумкин бўлган частотаси ва зарарнинг катталиги бўйича даволарни кўриб чиқиш хизматининг тавсиялари муҳим саналади.

Истеъмолчи талабига қараб суғурта маҳсулотларини қуйидагиларга бўлиш мумкин:

- кундалик эҳтиёж маҳсулотлари – истеъмолчи кўп ўйламай сотиб оладиган суғурта маҳсулотлари (масалан, мажбурий суғурта маҳсулотлари ва бошқалар);
 - танлаб олиш ва харид қилиш чоғида истеъмолчи суғурта маҳсулотининг яроқлилик даражаси, сифати, нархи бўйича солиштирадиган дастлабки танлов суғурта маҳсулотлари (турли хил суғурта маҳсулотлари бўлиши мумкин);
 - пассив эҳтиёж маҳсулотлари – истеъмолчи билмаган ёки билган, аммо сотиб олиш ҳақида ўйламайдиган суғурта маҳсулотлари (масалан, жавобгарлик суғуртаси ва ҳаёт суғуртаси маҳсулотлари);
 - фавқулодда маҳсулотлар – фавқулодда эҳтиёж пайдо бўлганда сотиб олинadиган суғурта маҳсулоти (масалан, сайёҳлик суғуртаси, жавобгарликни суғурталаш ва бошқалар);
 - қисқа муддатли фойдаланиш маҳсулотлари – истеъмолчи томонидан қисқа муддатда истеъмол қилинадиган суғурта маҳсулоти, шу жумладан суғурта муддати бир йилдан кам бўлган ихтиёрий суғурта маҳсулотлари;
 - узоқ муддатли фойдаланиш маҳсулотлари – одатда узоқ вақт давомида ишлатиладиган суғурта маҳсулотлари (бу ҳаётни суғурталаш маҳсулотлари ва бошқалар).
- Сотиш усулига кўра суғурта маҳсулотлари қуйидагича бўлиши мумкин:
- анъанавий – бу суғурта ташкилотининг табиий суғурта маҳсулотлари;
 - ноанъанавий – бошқа молиявий воситачилар томонидан сотилиши мумкин бўлган маҳсулотлар.

Суғурталанувчи истеъмолчиларнинг хоҳиш-истакларини ҳисобга олган ҳолда ва суғурта компаниясининг жавобгарлик доирасига қараб суғурта маҳсулотлари турларини қуйидагича ажратиш мумкин, жумладан:

- стандарт суғурта маҳсулотлари (инклюзив, тайёр маҳсулотлар) – бу суғурта шартномаларнинг стандарт вариантлардир;
- шахсийлаштирилган маҳсулот – индивидуал суғурта маҳсулоти бўлиб, муайян миқдорнинг эҳтиёжларини ҳисобга олади;
- комплекс маҳсулотлар – бир шартномада бир нечта суғурта турларини бирлаштиради ёки бир нечта эҳтиёжларни қондиришга қаратилган бўлиши мумкин;
- оддий маҳсулотлар – бу бир турдаги ва бир эҳтиёжни битта шартномада бирлаштирилган маҳсулотлар.

Суғурта бозоридаги рақобат суғурта компанияларини янги ва анъанавий суғурта маҳсулотларининг модернизациялашган турларини таклиф қилишга ундайди. Шу билан бирга, суғурта компанияси ва унинг миқдори ўртасидаги муносабатлар тенг бўлиши ва ўзаро манфаатли бўлиши керак. Муносабатлар тенглигидан келиб чиққан ҳолда, миқдор, яъни суғурталанувчи суғурта компанияси каби профессионал бўлиши талаб этилади. Шунинг ҳам унитмаслигимиз керакки, суғурта компаниясининг малакаси ҳар доим суғурталанувчининг малакасидан юқори бўлади ва бу табиий ҳолатдир.



Шу сабабли мижознинг тенглик тамойили ўрнига суғурталанувчининг ижтимоий ҳимояланганлик тамойили билан алмаштирилади. Бунда суғурта компанияси мижознинг асосий ҳимоячиси сифатида намоён бўлади. Бундай тамойил стандарт суғурта маҳсулотларига (инклюзив, тайёр маҳсулотлар) мос келади, бу бир томондан, суғурталанувчини ҳимоя қилишга ёрдам берса, иккинчи томондан, суғурталовчи учун сотиш жараёнини соддалаштиришга имкон беради.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бозорда асосан суғурта компаниялари томонидан таклиф этилаётган ва суғурталанувчиларни жалб қилишга қодир бўлган суғурта маҳсулотларининг ассортименти етарли эмас. Шу сабабли суғурта маҳсулотларини нафақат суғурта компанияси нуқтаи назаридан балки суғурталанувчиларнинг ҳам манфаатларини ҳисобга олган ҳолда таснифлаш мақсадга мувофиқ бўлад эди.

Бизнинг фикримизча, таклиф этилаётган мезонлар суғурта компанияларининг ҳам, суғурталанувчиларнинг ҳам иқтисодий манфаатларининг уйғунлигини ҳисобга олган ҳолда суғурта маҳсулотларини таснифлашнинг янада мукамал ҳамда тартибли тизимини шакллантиришга ёрдам беради, бу эса суғурта ҳимоясини ташкил қилишда уларнинг қарама-қарши манфаатларини қондириш имкониятини таъминлайди.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати.

1. Гомелля В.Б. Страховой маркетинг: актуальные вопросы методологии, теории и практики / В.Б. Гомелля, Д.С. Туленты. – М.: 2000. – С.
2. Котлер Ф. Основы маркетинга Краткий курс Пер с англ – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2007г. 231 стр.
3. Зубец А.Н. Качество страхового продукта / А.Н. Зубец // Страховое ревю. – 2000. – №7. – С. 12.
4. Трофимова М. (2003) Страховой продукт как центральный элемент страхового маркетинга / М. Трофимова // Страховой ревю. – №11. – С. 16.



КОРХОНАЛАРНИ ҚИМАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИДАГИ ИШТИРОКИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Нематуллаев Ҳамидулло Азизилло ўғли
Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти
“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” йўналиши
04-23-гуруҳ талабаси
bakhridinov2024@mail.ru
тел: 93-511-60-24

***Аннотация.** Халқаро амалиёт тажрибаларидан кўринадик, кейинги йилларда ривожланаётган давлатларда қарз инструментлари бозори хусусан корпоратив облигациялар савдо ҳажмининг ЯИМдаги улуши ошириш орқали корпоратив тузилмаларни кўшимча молиявий ресурслар билан таъминлашда муҳим манба сифатида фойдаланилмоқда. Мазкур мақолада мамлакатимизда корпоратив тузилмалар томонидан қарз инструментлардан фойдаланиш тенденциялари таҳлил қилинган, соҳадаги мавжуд муаммоларни ўрганиш асосида уларни бартараф этишга доир илмий таклиф ва амалий тавсиялар шакллантирилган.*

***Таянч сўзлар:** корпоратив облигация, капитал бозори, стратегия, молиявий фаолият, молиявий риск, молиявий менежмент, инвестиция, иқтисодиёт, капитал, қиймат, даромад, модел.*

Акциядорлик жамиятларида молиявий менежмент механизмини такомиллаштиришдаги асосий жиҳатлардан бири, капитал таркиби ва тузилишини диверсификациялаш, молиявий таъминот манбаларини оптималлаштиришда халқаро ва миллий капитал бозоридан молиявий ресурслар жалб қилишнинг замонавий инструментларидан фойдаланиш ҳисобланади. Молиявий менежмент тизимини такомиллаштиришга доир хорижий илмий мақолаларни ўрганилар экан, аксарият олимлар томонидан молиявий менежмент дейилганда компанияларнинг молиялаштириш манбаларини танлаш ва инвестицион қарорлар қабул қилиш санъати ва илмидир деб қисқача тариф берилади. Шундай экан бугунги кунда мамлакатимизда фаолият юритаётган акциядорлик жамиятларида анъанавий молиялаштириш манбаи сифатида банк моделидан босқичма босқич нобанк модели ёки фонд бозори орқали молиялаштириш механизмини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этиб бормоқда. Амалга оширилган таҳлил маълумотларидан кўринадик, 2021 йилнинг якунларига кўра Ўзбекистонда 607 та акциядорлик жамиятлари фаолият юритаётган бўлса, шулардан “Тошкент” РФБ биржа котировкалари арақасига 139 та эмитентнинг қимматли қоғозлари киритилган бўлиб, улардан 135 таси акция эмитентлари ва 4 таси фақат облигациялар эмитентларидир.

2013-2021 йиллар мобайнида Ўзбекистонда капитал бозорини ривожланиш динамикасини таҳлил қилиш асосида соҳадаги қуйидаги муаммолар аниқланди ва уларнинг ечимига доир ҳулосалар шакллантирилди.

Биринчидан, таҳлил қилинаётган давр мобайнида Ўзбекистонда давлат улуши бўлган йирик корхоналарни хусусийлаштириш бўйича қатор қонунчилик ҳужжатлари қабул қилинаётган бўлсада, бироқ акциядорлик жамиятларининг устав капиталидаги давлатнинг улуши 81-86% атрофида деярли ўзгаришсиз қолаётганлигини кўриш мумкин. Бу эса ўз навбатида акциядорлик жамиятларида замонавий молиявий бошқарув услубларини жорий этишдаги муаммоларни келтириб чиқариши, хусусан мустақил стратегик қарорларни қабул қилишнинг чекланиши, молиявий-инвестицион стратегияларни ишлаб чиқиш ва самарали ижросини таъминлаш, халқаро капитал бозоридан молиявий ресурслар жалб қилишнинг пастлиги, молиявий таъминотни оптималлаштиришда замонавий қарз инструментларидан фойдаланишга бўлган рағбатни паст эканлиги билан изоҳлаш мумкин.

Иккинчидан, таҳлил қилинаётган даврда қимматли қоғозлар бозорини ривожланганлик даражасини баҳоловчи индикаторлардан бири бўлган қимматли қоғозлар савдо ҳажмининг ЯИМ га нисбати кўрсаткичини нафақат ривожланган Осиё мамлакатларига нисбатан балки кўшни давлатларга нисбатан ҳам паст эканлигини қайд этиш мумкин. 2021 йилнинг якунларига кўра Ўзбекистонда ушбу кўрсаткич охириги 10 йилликда салкам 3 баробар миқдорда ошган бўлсада, ЯИМ га нисбатан 0,17 фоизни ташкил этган. Таҳлил қилинаётган даврда Қозоғистонда акциялар бозори савдо ҳажмининг ЯИМ даги улуши 35,4% ни, Россияда 42,4%, Белоруссияда



8,47% ташкил қилмоқда.

Учинчидан, Ўзбекистонда 2020 йилнинг август ойидан бошлаб МЧЖ ларга корпоратив облигациялар эмиссия қилиш ҳуқуқи берилган бўлсада, 2021 йилнинг якунларига келиб фақатгина 2 та МЧЖ томонидан жами 7129,1 млн. сўмлик корпоратив облигациялар муомалага чиқарилган. Қимматли қоғозлар бозори хусусан қарз инструментлари бозорида корпоратив облигациялар муҳим ўрин эгаллайди. Бироқ мамлакатимиз акциядорлик жамиятларида корпоратив облигациялар эмиссия қилиш орқали фаолиятни молиялаштириш амалиёти пастлигича сақланиб қолмоқда. 2000 йилда акциядорлик жамиятлари томонидан 5 та инструмент орқали 0,20 млн АҚШ доллари миқдоридан облигациялар муомалага киритилган бўлса, ушбу кўрсаткич 2022 йилнинг якунларига келиб 7 та эмитент томонидан 9,21 млн. АҚШ долларига етганлигини кўриш мумкин (1-расм.)



1-расм. Акциядорлик жамиятлари томонидан корпоратив облигациялар эмиссия ва савдо ҳажми⁷

2021 йилга келиб ушбу бозорнинг бироз “жонланганлигини” кўриш мумкин. Хусусан, 2021 йилда облигациялар бозорида жами 300 та битим тузилиб, уларнинг умумий ҳажми 113,39 млрд сўмни ташкил этди. 2021 йилги савдоларда 72633 дон облигациялари билан 5 та эмитент иштирок этган бўлса, битимларнинг энг йирик ҳажми “O’zmetkombinat” АЖ /UZBM2/ корпоратив облигациялари билан тузилган яъни, 50,61 млрд сўм. Энг кўп битимлар миқдори эса “FIRST DEVELOPING GROUP” МЧЖ /FDGR1/ облигациялари билан амалга оширилган (254 дон). Облигацияларнинг асосий қисми юридик шахслар томонидан сотиб олинган бўлиб, улар умумий савдо ҳажмининг 93,1% ни ташкил этган.

Таҳлил қилинаётган давр якунига кўра Республика бўйича жами 150 мингдан ортиқ масъулияти чекланган жамият кўринишидаги корхона мавжуд эканлигини инобатга оладиган бўлсак, натижа жуда ҳам паст даражада эканлиги намоён бўлади.

Тўртинчидан, 2019 йилнинг якунларига келиб Ўзбекистонда халқаро капитал бозоридан капитал жалб қилишнинг қарз инструментлари хусусан еврооблигацияларни халқаро фонд биржаларига жойлаштириш амалиёти муваффақиятли йўлга қўйилди. Бироқ жойлаштирилган аксарият қарз инструментлари устав капиталида давлат улуши бўлган акциядорлик жамиятлари томонидан бевосита ҳукумат кафолати остида жалб қилинган қарзлар эканлигини инобатга оладиган бўлсак, кейинчалик еврооблигациялар бўйича асосий қарз ва фоизлар бўйича мажбуриятларни бажармаслик ҳолатлари ҳукумат томонидан ушбу қарзларни сўндириш мажбуриятини юклайди.

Бешинчидан, 2018 йилдан бошлаб давлат томонидан кўп йиллик фойдаланилмаётган давлат ички қарзларини жойлаштириш амалиёти йўлга қўйилди. 2021 йилнинг якунларига келиб эса ушбу кўрсаткич давлат бюджети даромадларининг (мақсадли жамғармаларсиз) 15 фоизини ташкил этмоқда. Халқаро амалиётдан маълумки, давлат қарз инструментлари риск даражаси энг паст бўлган молиявий активлардан бири бўлиб кўплаб инвесторлар томонидан қизиқиш

⁷ <https://www.uzse.uz/abouts/bonds/> - маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



билдирилади. Бироқ бугунги кунда Ўзбекистонда чиқарилаётган қарз инструментларини банк депозитларига нисбатан фоизларининг пастлиги, аҳоли томонидан давлат қимматли қоғозларига бўлган қизиқишнинг камлиги ҳамда реал инфляциян кутилмалар билан давлат қимматли қоғозлар ўртасидаги даромадлилик ўртасидаги фарқнинг юқори эмаслиги ушбу қарз инструментиға бўлган (жисмоний шахслар ва норезидентлар томонидан) талабнинг паст эканлигини намоён этмоқда.

Ўзбекистонда капитал бозорини ривожланиши акциядорлик жамиятлари капитал тузилмасини диверсификациялаш имконини бериш билан бир қаторда аҳолининг қўшимча даромад олиши хусусан қимматли қоғозлар орқали даромадларини оширишда муҳим ўрин тутди. Юқорида таъкидланганидек, акциядорлик жамиятлари томонидан жисмоний шахсларнинг қимматли қоғозлар бозоридаги фаоллиги ошиб бораётган бир пайтда юқори ликвидлик ва инвестицион жозибадорликка эга бўлган инструментлардан фойдаланмаётганлиги, улар томонидан банк кредитларига асосий молиявий таъминот манбаи сифатида таяниб қолаётганлигини кўрсатади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегияси тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Oskar Kowalewski, Paweł Pisany. What drove the growth of the corporate bond markets in Asia? *Research in International Business and Finance*. Volume 48, April 2019, Pages 365-380
3. Турсунова Н.Р. Корпоратив молияни бошқаришда молиявий таъминотни самарали ташкил этиш йўллари. Иқтисодийёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – ТМИ.: Тошкент – 2019, 21 б.
4. Burkhanov A. U., Hamdamov O. N. *Financial management. Textbook* //Т.:«Innovative development publishing house»,-2020.
5. Hamdamov O., Otakhonova S., Baratova Z. *Bond Market Analysis In The Countries Of The Asian Region* //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 2. – С. 23.



ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИДАГИ ФАОЛИЯТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Турсунов Илхом Тоирович

Ўзбекистон Республикаси Банк-молия
академияси мустақил изланувчиси
ilhomtursuniv78@bk.ru
Тел: 97-700-94-14

***Аннотация.** Мазкур илмий тезисда тижорат банкларини қимматли қоғозлар бозорини ривожлантиришдаги аҳамияти баён этилган. Кейинги йилларда тижорат банкларининг “Тошкент” РФБда эмитент сифатидаги фаолияти таҳлил қилинган. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозорини ривожлантиришдаги аҳамиятини янада такомиллаштиришга қаратилган илмий таклифлар келтирилган.*

***Таянч сўзлар:** қимматли қоғозлар бозори, тижорат банклари, корпоратив облигация, капитал бозори, стратегия, молиявий риск, инвестиция, иқтисодиёт, эмиссия.*

Бугун жаҳон иқтисодиётида кескин рақобат муҳити устувор. Жамият талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда иқтисодиётни молиялаштириш амалиёти ҳам кескин рақобатдан ҳоли эмас. Бунда шубҳасизки, банк тизимининг роли юқори. Тижорат банклари фаолияти бизнесга асослангани боис улар самарадорлигини таъминлаш нафақат миллий, балки хорижий тижорат банклари ҳамда ҳукуматларининг ҳам доимий диққат марказидаги масалалардан биридир. Бунда эса ўз-ўзидан банк тизимининг трансформацияси муҳим аҳамият касб этади.


Жаҳон иқтисодиётидаги молиялашув ва рақамлашув шароитида Ўзбекистон миллий банк тизими трансформацияси борасида сўнги йилларда салмоқли ишлар амалга оширилди. Жумладан, соҳани ислоҳ қилиш бўйича амалга оширилган ишлар натижасида сўнги уч йилда банклар капитали 1,8, йиллик кредит ажратиш ҳажми эса 2 баробарга кўпайди. 4 та банк илк бор “евробонд” чиқариб, халқаро капитал бозорларидан 1 миллиард доллар ресурс олиб келди. Ипотека-банкка стратегик хорижий инвестор жалб қилинди. 13 та янги хусусий банк ташкил этилди, Венгрия, Қозоғистон ва Грузиянинг нуфузли банклари юртимизда фаолият бошлади. Онлайн банк хизматлари ҳажми 2,7 баробарга ошди. Таҳлилларга кўра, 2010 йиллардан бошлаб молиявий технологияларга асосланган Fin-tech компаниялар жаҳон молия бозорида фаоллашди. 2018 йилга келиб бундай компаниялар рақамли амалиётлар туфайли юқори самарадорликка эга эканлигини намоён этиб, маълум бир молиявий амалиётлар бўйича тижорат банкларига рақобатлаша бошлади. Ана шундай бир шароитда тижорат банклари рақамли трансформацияси зарурати кун тартибига чиқди. Натижада тижорат банклари томонидан Fin-tech компанияларини қўшиб олиш ёки молиявий технологияларга асосланган рақамли банк маҳсулотларини жорий этиш кескин ривожланди. Ушбу жараёнда глобал пандемия шароитида банк хизматларини кўрсатиш зарурати ҳам ижобий таъсир кўрсатди.

Таъкидлаш лозимки, кейинги йилларда тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги фаолияти ривожланаётган бўлсада ушбу кўрсаткичларни бошқа иқтисодиёти ривожланаётган давлатлар билан солиштирганда натижаларнинг нисбатан паст даражада сақланиб қолаётганлигини кўриш мумкин.

2022 йилда иқтисодиётнинг 10 та турли хил соҳа акциядорлик жамиятларининг қимматли қоғозлари билан биржа савдолари амалга оширилди. Энг кўп битимлар банк ва саноат секторлари эмитентларининг қимматли қоғозлари билан амалга оширилди. Банк сектори эмитентларининг қимматли қоғозлари билан 26 042 та битим тузилди, бу биржа битимлари умумий сонининг 32,26 фоизини ташкил этди. Саноат тармоғидаги 9 та эмитентларнинг қимматли қоғозлари билан 21 247 та битим тузилди (биржа битимлари умумий сонининг 26,32 фоизи). Биржа операциялари умумий ҳажмининг 47,94 фоизи банк сектори қимматли қоғозлари ҳиссасига тўғри келди. Ушбу соҳа эмитентлари билан тузилган битимларнинг умумий ҳажми 2,31 триллион сўмни ташкил этди. Қурилиш сектори эмитентларининг қимматли қоғозлари билан тузилган битимлар ҳажми 1,92 триллион сўмни ташкил этди ва бу умумий биржа ҳажмининг 39,96 фоизини ташкил этди. Акциядорлик жамиятларининг агросаноат ва бошқа тармоқлардаги қимматли қоғозлари билан тузилган битимлар мос равишда 237,93 млрд сўм ва



169,31 млрд сўмни ташкил этди. Энг кам миқдордаги битимлар алоқа ва транспорт соҳасидаги қимматли қоғозлар билан тегишли равишда 69,29 млн ва 18,09 млн сўмлик битимлар тузилган (1-расм).



1-расм. Соҳалар бўйича 2022 йилда тузилган битимлар сони (дона) ва ҳажми (% да)⁸

Эмитентларнинг қимматли қоғозлари билан тузилган битимларнинг энг катта ҳажми ва энг кўп сони Тошкент шаҳрида жойлашган эмитент қимматли қоғозлари билан қайд этилган. Ушбу ҳудуддаги эмитентларнинг қимматли қоғозлари билан тузилган барча 34 988 та битимнинг умумий суммаси 2,66 трлн сўм бўлиб, биржа савдолари умумий ҳажмининг 55,19 фоизини ташкил этди. 2022 йилда тузилган битимлар сони бўйича энг юқори натижани «Ўзметкомбинат» АЖ /UZMK/ оддия акциялари кўрсатди, эмитентнинг оддий акциялари билан тузилган битимлар умумий биржада тузилган битимлар сонининг 15,48% ни ташкил этди. «O`zRTXB» АЖ /URTS/ оддий акциялари билан 7 535 дона битим тузилган бўлиб, бу умумий битимлар миқдорининг 9,35% ни ташкил этди. Тижорат банкларининг оддий акциялари билан қуйидаги миқдордаги битимлар тузилди:

- АТБ «Ҳамкорбанк» /НМКВ/ – 7 723 битим (умумий битимлар сонининг 9,58%);
- АТИБ «Ипотека-банк» /ИРТВ/ – 6 387 битим (умумий битимлар сонининг 7,93%);
- АТБ «Ўзбекистон саноат - қурилиш банки» / SQBN/ – 4 354 битим (умумий битимлар сонининг 5,40%).

Листинг тоифалари бўйича энг кўп битимлар сони ва савдолар ҳажми «Стандарт» тоифасидаги эмитентларнинг акциялари билан – 3 597,22 млрд сўмлик 55 598 та битим қайд этилган. «Премиум» листинг тоифасидаги эмитент қимматли қоғозлари ушбу кўрсаткичларнинг энг паст қийматини қайд этди: битимлар сони – 7 535 дона; битимлар ҳажми – 14,05 млрд сўм. 2022 йил 5 январ ҳолатига кўра, биржа котировкалари варағида 139 та эмитентнинг қимматли қоғозлари мавжуд эди. Ҳисобот даврида 23 та эмитентнинг қимматли қоғозлари биржа котировкалари варағига киритилган бўлиб, улардан 20 таси акциялар ва 3 таси облигациялар эмитентлари ҳисобланади, шунингдек, 51 та эмитент қимматли қоғозлари биржа котировкалари варақаси талабларига мос келмаслигига; эмитентнинг банкротлиги белгилари мавжудлигига; облигациялар сўндирилганлигига ёки эмитентларнинг талабига биноан делистинг қилинди, бунинг натижасида 2022 йил 30 декабр ҳолатига кўра, 111 та эмитентнинг қимматли қоғозлари биржа котировкалари варағида мавжуд бўлганлигини таъкидлаш мумкин.

⁸ <https://imda.uz/wp-content/uploads/2023/02/2022-yillik.pdf> - маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси” ПФ-60-сон Фармони.
2. Sultan Alzakri, Does financial stability inspire environmental innovation? Empirical insights from China, *Journal of Cleaner Production*, Volume 416, 2023, 137896, ISSN 0959-6526, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.137896>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652623020541>).
3. Носиров Ж.Т. Суғурга компанияларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – ТДИУ – 2021 й.
4. Hamdamov PhD O. IMPROVING FINANCIAL RISK MANAGEMENT METHODOLOGY // *International Finance and Accounting*. – 2020. – Т. 2020. – №. 6. – С. 2.



ИНВЕСТИЦИОН РИСКЛАР МОҲИЯТИ ВА ТУРЛАРИ

Хақимзода Мафтуна Юсуф қизи

Тошкент молия институти мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада инвестицион рискларнинг моҳияти ва турлари бўйича илмий қарашлар ва таърифлар келтирилган. Таърифлар асосида инвестицион рискларни гуруҳлаштириш ва таснифлаш бўйича таклифлар берилган. Шунингдек таснифлаш мезонлари ва бошқариш омиллари баён этилган.

Калит сўзлар: инвестиция, риск, риск омиллари, ноаниқлик, инвестицион риск, инвестицион рискларнинг гуруҳланиши.

Инвестицион фаолиятнинг барча шакл ва кўринишлари риск билан боғлиқдир. Унинг муваффақиятли амалга оширилиши кўп жиҳатдан қуйидаги муаммони ҳал қилишдаги муваффақият даражаси билан белгиланади: рискларни самарали бошқариш мақсадида даромад ва рискнинг оптимал нисбатини топишдир.

Миллий бойликнинг ўсишини таъминлашнинг асосий воситаларидан бири инвестицион фаолияти бўлиб, бунда лойиҳа кўрсаткичларини ҳар томонлама таҳлил қилиш, шу жумладан инвестиция рискларини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Инвестицион рисклар инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш жараёнида фойданинг тўлиқ олинмаслиги ёки йўқотилиши эҳтимоли туфайли юзага келади. Бу ҳолда риск объекти инвесторнинг мулкӣ манфаатларидир, яъни инвестиция қилган шахснинг ўз маблағларидир. Инвестицион рискларни маблағларни жалб қилиш усули ва лойиҳанинг ўзига хос хусусиятларига қараб таснифлаш мумкин.

инвестицион риск – бу замонавий иқтисодиётдаги беқарор вазият, давлат ҳокимияти ва ўзини-ўзи бошқариш органларининг ҳаракатлари туфайли инвесторлар инвестицияларининг қадрсизланиши ризиқидир [1].

Ҳар қандай ташкилот ўз фаолиятида инвестиция ризиқ эҳтимолини ҳисобга олиши ва уни камайтириш ёки ундан бутунлай қочиш чораларини кўриши керак. Инвестицион рисклар – бу инвестиция фаолиятини амалга ошириш жараёнида фойдани олаолмаслик ёки йўқолиши эҳтимоли билан боғлиқ рисклардир [2].

Инвестицион рисклар ташкилотнинг ташқи ва ички муҳитидаги ўзгарувчиларнинг инвестиция лойиҳасини амалга оширишга таъсири натижасида режалаштирилган фойдани олмаслик эҳтимоли сифатида тавсифланиши мумкин деб таъкидлайди [3].

Инвестицион фаолият билан боғлиқ рисклар ҳар қандай корхона фаолиятининг объектив, доимий омили бўлиб ҳисобланади, шу сабабли инвестиция менежерларидан жиддий эътибор талаб қилади. Корхонанинг инвестиция фаолиятини бошқариш жараёнида риск омилни ҳисобга олиш деярли барча бошқарув қарорларини тайёрлаш билан бирга кечади [4].

Олиб борилган таҳлиллар натижасида инвестицияларга оид рискларнинг таснифи 1-расмда келтирилган. Корхоналарнинг инвестицион салоҳият рисклари ва инвестиция рискларини таснифлаш айрим мезонлар бўйича таклиф этилган, албатта бу таснифлаш субъектив характерга эга, қолаверса конхонанинг фаолият турига қараб бошқа мезонлар билан ҳам тўлдирилиши мумкин. шунингдек фаолиятнинг барча турларини қамраб олишнинг имкони мавжуд эмас. Бунда рискларнинг барча турлари ўзаро боғлиқдир ва улар бирдек тадбиркорлик фаолиятига салбий таъсир кўрсатади. Бундан ташқари, бир турдаги рискнинг ўзгариши бошқа турдаги рискларнинг юзага келишини ёки ўзгаришига олиб келиши мумкин.

1-жадвал

Инвестицион рискларнинг таснифи⁹

№	Рискларнинг юз бериз мезонлари	Риск турлари
1.	Вақтга кўра	Ретроспектив / жорий / истиқболли
2.	Даражасига кўра	Кичик / мақбул / тўлиқ
3.	Вақт бўйича давомийлик нқктаи назаридан	Доимий / вақтинчалик (қиска муддатли, узок муддатли)
4.	Объектга кўра	Ташқи / ички
5.	Башорат қилиш нуқтани назаридан	Башорат қилинадиган / башорат қилинмайдиган
6.	Таҳдидларнинг объективлигига кўра	Субъектив / объектив

⁹ Эмперик адабиётларнинг қиёсий таҳлили асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



7.	Инвестицион лойиҳаларни амалга ошишига қараб	Микро риск / мезо риск / макро риск
8.	Келиб чиқишига қўра	Тизимли (бозор) / тизимсиз (махсус)
9.	Амалга ошишига қўра	Моддий / маънавий / молиявий / обрў
10.	Мумкин бўлган оқибатларига қўра	Мақбул / кретик/ фалокатли
11.	Оқибатларининг табиатига қўра	Соф (статик) / спекулятив (динамик)
12.	Амалга ошиш соҳасига қўра	Техник, технологик / иқтисодий / сиёсий / ижтимоий / экологик / қонуний, ҳуқуқий

Тадқиқот шуни кўрсатадики, молиявий-иқтисодий муносабатлар тизимида инвестиция rischi тоифаси асосий ҳисобланади, чунки ушбу riskни самарали бошқариш мамлакат иқтисодиёти ўсишининг юқори динамикасини ва унинг рақобатбардошлигини белгилайди.

Rиск бу инвестиция ва инвестиция жараёнларида эътиборга олиш керак бўлган энг муҳим омиллардан биридир. Инвестицион лойиҳанинг riskи ўзининг кўринишларида кўп қиррали ҳисобланади, кўпинча у бошқа riskлар элементларининг мураккаб тузилмасини ифодалайди. Янги молиявий технологиялардан, замонавий молиявий воситалардан ва бошқа омиллардан фойдаланиш корхоналар учун инвестиция riskларининг янги турларининг пайдо бўлишига олиб келади. Шу муносабат билан инвестиция riskларининг мавжудлиги ва айниқса уларни амалга ошириш инвестиция салоҳиятининг ҳажмига ва инвестиция мақсадларига эришишга сезиларли таъсир кўрсатадиганлиги сабабли, инвестиция жараёнини бошқариш нафақат инвестиция riskларининг мавжудлигини ҳисобга олиши, балки уларнинг катталиги ва оқибатларини минималлаштиришга қаратилган бўлиши керак.

Шундай қилиб, инвестиция riskларини прогнозлаш уларнинг моҳиятини ва хусусиятларини шакллантиради, бу инвестиция жараёнини бошқаришда нафақат riskларни ҳисобга олишни, балки инвестиция жараёнларини бошқариш тизимида инвестиция riskларини кузатувчи, баҳолайдиган ва бошқарадиган алоҳида қуйи тизимни аниқлашни ҳам талаб қилади.

Адабиётлар / Литература / Reference:

1. Серая Н.Н., Ляшенко К.А., Саввина Ю.В. (2018) Анализ особенности инвестиционных рисков. Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №7 (33), Том 2, 2018г. 165-170 стр.
2. Сафаров К.Б. (2022) Инвестиционные риски: классификация и методы их оценки. central asian journal of innovations on tourism management and finance Volume: 03 Issue: 10|2022 ISSN: 2660-454X 213-220 стр.
3. Тяхт С.Г. (2009) Тенденции и перспективы управления рисками инвестиционных проектов промышленного предприятия // Транспортное дело России. – 2009. – № 3. – С. 103–105.
4. Козловский А.Н., Кулик Ю.А. (2013) Классификация инвестиционных рисков (на примере электромашиностроительных предприятий). Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки № 3 (173) 2013г. 158-163 стр.



КОРПОРАТИВ СЕКТОРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА ХОРИЖИЙ
ИНВЕСТИЦИЯЛАР ЖАЛЬ ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хасанов Хайрулло Насруллаевич
Тошкент давлат иқтисодий
университети мустақил изланувчиси
khayrullo.khasanov.90@bk.ru
тел: 97-778-82-07

Аннотация. *Мазкур илмий тезисда корпоратив тузилмалар молиявий фаолиятини ривожлантиришида хорижий инвестицияларнинг аҳамияти ёритилган ва соҳадаги етук иқтисодчи олимларнинг фикрлари баён этилган. Ўзбекистон иқтисодиётига киритилаётган хорижий инвестицияларнинг жорий ҳолати ва истиқболлари таҳлил қилинган. Шунингдек, келгусида хорижий инвестицияларни иқтисодиёт тармоқлари кесимидаги тафовутларни камайтириши ва вилоятларда хорижий инвестициялар иштирокидаги компаниялар сонини ошириши борасида илмий тавсиялар шакллантирилган.*

Калит сўзлар: *инвестициялар, қимматли қозғолар, иқтисодий ўсиш, капитал, аҳоли бандлиги, лойиҳалар, инновация, стратегия.*

Сўнги бир неча йил ичида Ўзбекистон жадал иқтисодий ўзгаришларни бошдан кечирди ва халқаро ҳамжамиятда бизнес ва инвестициялар учун турли хил тўсиқларини бартараф этишда очиқлик, янгиланиш ва қатъиятлилиқ рамзларидан бири сифатида тобора кўпроқ намоён бўлмоқда. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонунини самарали ижро этилиши учун инвесторлар билан Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги, ҳокимликлар, хориждаги дипломатик ваколатхоналар ва тижорат банклари раҳбарлари ўринбосарларидан иборат бўлган давлат ҳокимият органлари ҳамкорлигининг 4 босқичли механизми муваффақиятли йўлга қўйилган. Ушбу механизм инвесторларнинг барча сўровларига тезкор жавоб қайтариш ва қонунда назарда тутилган чора-тадбирлар амалга оширилишининг самарадорлигини керакли тарзда назорат қилиш имконини беради.

Шу нуқтаи назардан, Европа тикланиш ва тараққиёт банкининг кўмаги билан тузилган, Республикада фаолият юритаётган инвесторлар билан бевосита мулоқотни таъминлайдиган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хорижий инвесторлар кенгашининг ролини таъкидлаш муҳим аҳамиятга эга. Халқаро ҳакамлик судлари институтининг ривожланиши ҳам фаол қўллаб-қувватланмоқда. Ўз навбатида, бу мамлакат инвестиция муҳитининг муҳим ва тизим ташкил этувчи таркибий қисми бўлган қонун устуворлигини ҳамда давлат ва маҳаллий инвесторлар зиммасидаги мажбуриятларнинг тўғри бажарилишини таъминлайди. Инвестиция муҳити мамлакатдаги барча фаолият соҳаларига таъсир кўрсатишини инобатга олган ҳолда, ислохотлар кўлами иқтисодий, институционал, таълим, соғлиқни сақлаш, қишлоқ хўжалиги, сув таъминоти, энергетика, транспорт ва бошқа йўналишларни қамраб олди. Шунингдек, тадбиркорларни ва инвестиция лойиҳалари ташаббускорларини амалий қўллаб-қувватлашга катта эътибор қаратилмоқда. Мамлакатда фаолият юритаётган эркин иқтисодий зоналар сони 2017 йил бошида 3 тани ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб 22 тага етди. Улардан 12 таси саноат, 6 таси фармацевтика, 2 таси туризм, 2 таси қишлоқ хўжалигига ихтисослашган. Қонунчиликдаги ўзгаришлар ва яратилган имкониятлар мамлакатдаги инвестиция муҳитига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Масалан, Ўзбекистон 2019 йилда илк бора Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИХТТ) нинг “Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни тартибга солиш чекловлари индекси”га киритилди ва ушбу индексга кўра, 2020 йилда жаҳонда 43-ўринни, Осиё минтақасида 7-ўринни қайд этди [1]. 2017-2022 йилларда Ўзбекистон халқаро Иқтисодий эркинлик индекси умумий рейтингда ўз ўрнини 31 поғонага яхшилаб, 148-ўридан 117-ўрига кўтарилди. Мамлакатимизга киритилаётган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажми 2017 йилда 2,2 миллиард АҚШ долларини ташкил этган бўлса, 2022 йил якунида ушбу кўрсаткич 1,5 баробар ортиб, 3,3 миллиард АҚШ долларига етди (1-жадвал).

Бугунги кунда Ўзбекистон Жаҳон банки, Осиё тараққиёт банки, Ислон тараққиёт банки, Европа тикланиш ва тараққиёт банки, Осиё инфратузилма инвестициялари банки каби йирик халқаро молия институтлари ва ташкилотлари билан яқин ҳамкорликни йўлга қўйган. 2022 йилга келиб, мамлакат иқтисодиётига инвестиция киритган мамлакатлар сони 50 дан ортди.



Уларнинг орасида Россия, Хитой, Туркия, Германия, Жанубий Корея каби мамлакатлар етакчилик қилмоқда. Шу билан бирга, тўғридан тўғри хорижий инвестициялар ва кредитлар ҳажми 2017 йилда 2,5 миллиард долларни ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб 3,4 баробар ошиб 8,5 миллиард долларга етди. Уларнинг жами инвестициялардаги улуши эса 17,7 фоиздан 35,4 фоизгача ошди. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхона ва ташкилотлар сони ҳам йил сайин ортиб бормоқда: 2017-йида 5,5 мингтани ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб уларнинг сони 15,8 мингтага етди. Бунинг 6,4 мингтаси қўшма корхона, 9,3 мингтаси тўлиқ хорижий корхона ҳисобланади. Чет эл капитали иштирокидаги корхоналарнинг 30,5 фоизи савдо, 27,5 фоизи саноат, 8 фоизи қурилиш, 4,8 фоизи қишлоқ хўжалиги, 4,1 фоизи яшаб туриш ва овқатланиш муассасалари, 2,9 фоизи сақлаш ва ташиш, 4,8 фоизи алоқа ва ахборот йўналишларида, 17,4 фоизи бошқа соҳаларда фаолият юритмоқда. 2023 йилнинг 9 ойи давомида эса, ҳудудларда асосий капиталга инвестициялар ҳамда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва кредитларни жалб қилиш самарадорлигини таҳлил қилди. Унга асосан мамлакатимизда асосий капиталга инвестициялар ҳажми 226,6 триллион сўмга етган. Бу ўтган йилнинг мос давридагига қараганда 11,8 фоиз кўп. Бу даврда тўғридан-тўғри хорижий инвестиция ва кредитлар ҳажми 16,3 фоиз ўсган ва 91,8 триллион сўмга тенг бўлган. Шунга қарамадан, ҳудудлар миқёсида инвестицияларнинг тақсимланишида тафовутлар қузатилмоқда. Масалан, асосий капиталга инвестициялар бўйича Хоразм вилояти ва республика миқёсидаги ўртача қийматлар орасидаги фарқ жорий йилнинг январь-сентябрь ойларида қарийб 2,7 бараварни, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва кредитлар бўйича эса 2,5 бараварни ташкил этди.

1-жадвал

Ўзбекистон ташқи секторининг асосий кўрсаткичлари [2]

Кўрсаткичлар	2013 й	2014 й	2015 й	2016 й	2017 й	2018 й	2019 й	2020 й	2021 й	2022 й
Жорий операциялар ҳисоби сальдоси (млрд. долл.)	1,3	2,1	0,9	0,2	1,5	-3,6	-3,4	-3,0	-4,9	-0,6
ЯИМга нисбатан %да	2%	3%	1%	0,3%	3%	7%	6%	5%	7%	1%
Товар ва хизматлар экспорти (давр учун, млрд. долл.)	13,6	12,9	11,8	10,5	12,4	14,1	17,0	14,5	16,4	21,9
ЯИМга нисбатан %да	20%	17%	14%	13%	21%	28%	29%	25%	24%	27%
Товар ва хизматлар импорти (давр учун, млрд. долл.)	17,3	16,4	14,7	14,5	16,5	23,4	26,6	22,6	27,9	35,6
ЯИМга нисбатан %да	25%	21%	18%	18%	28%	47%	46%	39%	40%	44%
Ташқи савдо айланмаси (давр учун, млрд. долл.)	30,9	29,3	26,5	25,0	28,9	37,6	43,6	37,2	44,4	57,5
ЯИМга нисбатан %да (иктисодий очиклик)	45%	38%	32%	31%	49%	75%	76%	64%	64%	72%
Резидентлар томонидан қабул қилинган трансчегаравий пул ўтказмалари (давр учун, млрд. долл.)	7,5	6,5	3,9	3,7	4,8	4,9	5,8	5,9	8,0	16,4
ЯИМга нисбатан %да	11%	8%	5%	5%	8%	10%	10%	10%	11%	20%
Соф тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар (соф - оким) (давр учун, млрд. долл.)	0,7	0,8	1,0	1,7	1,8	0,6	2,3	1,7	2,3	2,5
ЯИМга нисбатан %да	1%	1%	1%	2%	3%	1%	4%	3%	3%	3%
Халқаро захиралар, ялпи (млрд. АҚШ долл. давр охири учун)	22,5	24,1	24,3	26,4	28,1	27,1	29,2	34,9	35,1	35,8
Товарлар ва хизматлар импорти ойларига мос равишда	15,6	17,7	19,9	21,9	20,5	13,9	13,2	18,5	15,1	12,1
Номонетар олтин экспорти (тоннада)	37	30	50	70	80	70	110	100	70	70
Олтиннинг дунё нархлари (даврга нисбатан ўртача)	1439,0	1229,2	1149,1	1161,8	1239,1	1277,8	1405,6	1734,2	1840,2	1741,7



Асосий капиталга инвестициялар бўйича Сирдарё ва Бухоро вилоятларида индекс қиймати меъёрдагидан анча юқори бўлган. Қашқадарё ва Фарғона вилоятларида меъёрдаги кўрсаткич, аксарият вилоятларда эса унга яқин қийматлар қайд этилган. Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва кредитлар бўйича Фарғона ва Хоразм вилоятларида меъёрдагига яқин кўрсаткич қайд этган. Сирдарё, Бухоро, Жиззах ва Тошкент вилоятларида меъёрдагидан юқори Тошкент шаҳри ва Хоразм вилоятида анча паст бўлган.

Таъкидлаш лозимки, бугунги кунда хорижий инвестицияларни иқтисодиётга жалб қилиш борасида амалга оширилаётган самарали ислохотлар бир қаторда мавжуд имкониятлардан тўлиқ фойдаланилмаётганлигини таъкидлаш мумкин. Буларга мисол тариқасида, иқтисодиётда фаолият юритаётган йирик акциядорлик жамиятларида давлатнинг юқори улушини сақланиб қолаётганлиги, молиявий хисоботнинг халқаро стандартлари бўйича хисоботларни тайёрлаш ва тақдим этишдаги кечикишлар, халқаро корпоратив баҳолаш стандартларидан акциядорлик жамиятларида тўлиқ фойдаланилмаётганлиги, вилоятларда хорижий инвесторлар учун инфра-тузилмаларни тўлиқ йўлга қўйилмаётганлиги кабиларни келтириш мумкин. Инвестициялар соҳасидаги мавжуд тенденцияларнинг давом этиши 2022 йилда иқтисодий ўсиш суръатларига (5,1% даражасида деб прогноз қилинмоқда) эришишга тахдид солиши мумкин, бу эса иқтисодиётга жалб қилинган инвестициялар ҳажмини сезиларли даражада оширишга қаратилган инвестиция муҳитини яхшилаш бўйича амалий чораларни ва уларнинг самарадорлигини оширишни талаб қилади.

Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг юқори технологияли ва инсон капиталига фаол йўналтирилмаслиги мамлакатда юқори даражадаги инклюзив ўсишга эришиш ва камбағаллик даражасини қисқартириш каби мақсадларга эришиш жараёнини хавф остига қўймоқда. Инвестиция муҳитини яхшилаш соҳасида асосий қадам хусусий ва тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш бўйича шарт-шароитлар яратишга қаратилган саъй-ҳаракатлар орқали тўлиқ ва самарали институционал асосни шакллантириш бўлиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. <https://miit.uz/oz/menu/investitsionnyj-klimat> - маълумотлари асосида баён этилди.
2. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/>- ЎзР МБнинг йиллик хисобот маълумотлари асосида тайёрланди.
3. Panagiotis P. (2015) The impact of FDI on economic growth in Eurozone countries. The journal of Economic Asymmetriess, №17, pp. 7–8
4. Boudreau K.J., N.Lacetera and K.R.Lakhani (2016) Incentives and Problem Uncertainty in Innovation Contests: An Empirical Analysis. Management Science, vol. 57, №5, pp. 843–863.
5. Ne'matillaevich H. O. Financial risk management at the enterprise: methods and models. – 2016. – №. 2016-03-17.



Reyimberdiyev Baburbek Adilbek ugli

PhD student and lecturer at TSUE

Xolnazarova Aziza Abdimurod qizi

Student at TSUE

Introduction

Management mechanisms in organizations are the tools, strategies, and processes that enable organizations to function efficiently and effectively. These mechanisms are essential for coordinating and directing the activities of individuals and teams within an organization to achieve its goals. This article provides a comprehensive overview of the key management mechanisms in organizations, discussing their importance, functions, and best practices.

1. Planning Mechanisms

Planning mechanisms involve the process of setting goals, establishing strategies, and allocating resources to achieve those goals. This mechanism is crucial for organizations to maintain a clear vision and direction. Key aspects of planning mechanisms include:

- Strategic planning: A long-term process that involves setting high-level goals and developing strategies to achieve them. This process typically involves a top-down approach, with senior management setting the overall direction for the organization.
- Tactical planning: A short-term process focusing on specific objectives and tasks necessary to achieve strategic goals. This process often involves a bottom-up approach, with managers and employees contributing ideas and suggestions.
- Operational planning: A day-to-day planning process involving the allocation of resources, assignment of tasks, and monitoring of progress. This mechanism ensures that daily activities align with overall strategic objectives.

2. Organizing Mechanisms

Organizing mechanisms involve the process of structuring an organization's resources, such as human, financial, and material resources, to achieve its goals. This mechanism is essential for ensuring efficient and effective communication, collaboration, and decision-making. Key aspects of organizing mechanisms include:

- Hierarchy: A chain of command that establishes reporting relationships and lines of authority within an organization. This mechanism ensures clarity and consistency in decision-making and resource allocation.
- Divisions and departments: The grouping of employees and resources based on shared functions or responsibilities. This mechanism allows for specialized expertise and efficient use of resources.
- Teams: Small, focused groups of employees working together to achieve specific objectives. Teams can be formal or informal, and can be based on shared skills, projects, or geographic location.

3. Leading Mechanisms

Leading mechanisms involve the process of guiding, motivating, and inspiring employees to achieve their best performance. This mechanism is essential for creating a positive work environment and ensuring employee engagement and commitment. Key aspects of leading mechanisms include:

- Leadership styles: Different leadership styles, such as autocratic, democratic, and laissez-faire, can be used to suit the needs of different situations and employees. Effective leaders adapt their style to the specific context and needs of their team.
- Communication: Clear, open, and effective communication is crucial for fostering trust, understanding, and collaboration among employees. Leaders must be skilled in active listening, providing feedback, and resolving conflicts.
- Motivation: Leaders must understand the needs and motivations of their employees to effectively inspire and engage them. This may involve setting clear expectations, providing recognition and rewards, and offering opportunities for growth and development.

4. Controlling Mechanisms

Controlling mechanisms involve the process of monitoring, evaluating, and adjusting an organization's activities to ensure alignment with its objectives. This mechanism is essential for maintaining efficiency, effectiveness, and accountability within an organization. Key aspects of



controlling mechanisms include:

- Performance measurement: Establishing key performance indicators (KPIs) to track progress towards objectives. This process helps organizations identify areas of strength and weakness and make informed decisions about resource allocation and strategy.

- Feedback and evaluation: Regularly reviewing and evaluating employee and team performance to identify areas for improvement and provide guidance and support.

- Corrective action: Implementing changes and improvements based on feedback and evaluation to ensure that the organization remains aligned with its strategic objectives.

Conclusion

Management mechanisms in organizations are critical for ensuring efficiency, effectiveness, and adaptability. By understanding and implementing these mechanisms, organizations can better coordinate and direct the activities of their employees, ultimately leading to improved performance and success.

References:

1. Abbas, W., & Asghar, I. (2010). The Role of Leadership in Organizational Change: Relating the Successful Organizational Change with Visionary and Innovative Leadership. <https://www.diva-portal.org/smash/record.jsf?pid=diva2%3A326289&dswid=2174>

2. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2006). Transformational Leadership.

3. https://books.google.com/books?hl=en&lr=&id=2WsJSw6wa6cC&oi=fnd&pg=PT5&dq=Transformational+Leadership+&ots=I75-eWFNAB&sig=GijfbI9V_s8rE30Jf1Y0cpc1U_Q

4. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.klipfolio.com/resources/articles/what-is-a-key-performance-indicator&ved=2ahUKEwjUgbvnu7-EAxXhJBAIHYLTCZsQFnoECBQQAQ&usg=AOvVaw1SDxFMR4gmJvV3_wX1GR4C

5. <https://ctb.ku.edu/en/best-change-processes/defining-organizational-structure/overview>



КОРПОРАТИВ ОБЛИГАЦИЯЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНИШ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Турсунова Наргиза Рахимовна

Тошкент молия институти

мустақил изланувчиси


тел: 97-700-94-14

nargiza.tursunova@bk.ru

Аннотация. Халқаро амалиёт тажрибаларидан кўринадики, кейинги йилларда ривожланаётган давлатларда қарз инструментлари бозори хусусан корпоратив облигациялар савдо ҳажмининг ЯИМдаги улуши ошириши орқали корпоратив тузилмаларни қўшимча молиявий ресурслар билан таъминлаида муҳим манба сифатида фойдаланилмоқда. Мазкур мақолада мамлакатимизда корпоратив тузилмалар томонидан қарз инструментлардан фойдаланиш тенденциялари таҳлил қилинган, соҳадаги мавжуд муаммоларни ўрганиш асосида уларни бартараф этишга доир илмий таклиф ва амалий тавсиялар шакллантирилган.

Таянч сўзлар: корпоратив облигация, капитал бозори, стратегия, молиявий фаолият, молиявий риск, молиявий менежмент, инвестиция, иқтисодиёт, капитал, қиймат, даромад, модел.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегиясида «мамлакатимизда капитал ҳаракатини босқичма-босқич эркинлаштириш ҳамда йирик корхоналарни ва улардаги улушларни (акцияларни), шу жумладан фонд биржаси орқали хусусийлаштириш ҳамда саноатнинг етакчи тармоқлари ва иқтисодиётни янада либераллаштириш ҳамда трансформация жараёнларини яқунлаш» [1] иқтисодиёт соҳасидаги асосий мақсадлардан бири сифатида белгилаб олинган. Шунга мувофиқ, ташқи муҳитдаги ўзгаришларга мос равишда корпоратив молия сиёсатини мувофиқлаштириш, молиявий менежментнинг халқаро замонавий услубиятини жорий этиш, молиявий таъминотнинг қўшимча манбаларини шакллантиришда молия бозори билан муносабатларни ривожлантириш, молиявий рискларни бошқаришда халқаро стандартларни жорий этиш, капитал тузилмасини оптималлаштиришда молиявий технологияларни татбиқ этишга доир илмий тадқиқотларни амалга оширилиши ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан биридир.



1-расм. Акциядорлик жамиятлари томонидан корпоратив облигациялар эмиссия ва савдо ҳажми [3]



Корпоратив облигациялар нафақат иқтисодиёти ривожланган балки иқтисодиёти ривожланаётган давлатлар компаниялари учун ҳам муҳим молиялаштириш воситаларидан бирига айланиб бормоқда. Агар АҚШда корпоратив облигациялар бозори ҳажми ЯИМга нисбатан 46%га, Европа иттифоқи мамлакатларида эса 80%га етган бўлса, юқоридаги тоифадаги давлатларда ушбу кўрсаткич ЯИМга нисбатан 10-15 фоизга атрофида тебранаётганлиги ушбу бозорнинг зарурати ва ривожланаётганлигини кўрсатмоқда. Корпоратив облигацияларда инвестор учун асосий ва, эҳтимол, энг муҳим риск эмитентнинг кредит рискидир [2]. Қимматли қоғозлар бозори хусусан қарз инструментлари бозорида корпоратив облигациялар муҳим ўрин эгаллайди. Бироқ мамлакатимиз акциядорлик жамиятларида корпоратив облигациялар эмиссия қилиш орқали фаолиятни молиялаштириш амалиёти пастлигича сақланиб қолмоқда. 2000 йилда акциядорлик жамиятлари томонидан 5 та инструмент орқали 0,20 млн АҚШ доллари миқдорига облигациялар муомалага киритилган бўлса, ушбу кўрсаткич 2022 йилнинг якунларига келиб 7 та эмитент томонидан 9,21 млн. АҚШ долларига етганлигини кўриш мумкин (1-расм.)

2021 йилга келиб ушбу бозорнинг бироз “жонланганлигини” кўриш мумкин. Хусусан, 2021 йилда облигациялар бозорида жами 300 та битим тузилиб, уларнинг умумий ҳажми 113,39 млрд сўмни ташкил этди. 2021 йилги савдоларда 72633 дона облигациялари билан 5 та эмитент иштирок этган бўлса, битимларнинг энг йирик ҳажми “O’zmetkombinat” АЖ /UZBM2/ корпоратив облигациялари билан тузилган яъни, 50,61 млрд сўм. Энг кўп битимлар миқдори эса “FIRST DEVELOPING GROUP” МЧЖ /FDGR1/ облигациялари билан амалга оширилган (254 дона). Облигацияларнинг асосий қисми юридик шахслар томонидан сотиб олинган бўлиб, улар умумий савдо ҳажмининг 93,1% ни ташкил этган.

Ўзбекистонда 2020 йилнинг август ойидан бошлаб МЧЖларга корпоратив облигациялар эмиссия қилиш ҳуқуқи берилган бўлсада, 2021 йилнинг якунларига келиб, фақатгина 2 та МЧЖ томонидан жами 7129,1 млн. сўмлик корпоратив облигациялар муомалага чиқарилган ҳамда 2023 йилнинг январь ойи ҳолатига уларнинг сони бироз ошган (1-жадвал).

1-жадвал

МЧЖ томонидан корпоратив облигациялар эмиссия қилиш ҳажми [4]

Тикер	Чиқарилган облигациялар сони	1 бирлик облигациянинг номинал қиймати	Купон ставка (%)	Жойлаш тирилган облигациялар	Жойлаштириш санаси/ Қоплаш муддати
FDGR1	5 125	1 000 000	8% + девальвация/ сўмни АҚШ долларига нисбатан ревальвация	5125	04.02.2021/ 03.02.2022
CRMT3	2 000	1 000 000	24,0%	2000	03.04.2021/ 16.03.2024
AREL1	100	100 000 000	21,0%	100	10.06.2022/ 03.07.2023
AREL2	100	100 000 000	21,5%	100	10.06.2022/ 04.01.2024
AREL3	100	100 000 000	22,5%	100	10.06.2022/ 04.01.2024
BFMT3	10 000	1 000 000	27,0%	1 338	15.09.2022/ 31.08.2025

1-жадвал маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, МЧЖ томонидан чиқарилган облигацияларнинг купон ставкалари акциядорлик жамиятлари томонидан чиқарилган корпоратив облигацияларнинг купон ставкаларига нисбатан юқори эканлиги инвесторлар томонидан ушбу қарз инструментларига бўлган қизиқишнинг ортишига ижобий таъсир кўрсатади. Таҳлил қилинаётган давр якунига келиб Республика бўйича жами 150 мингдан ортиқ масъулияти чекланган жамияти кўринишидаги корхоналар мавжуд эканлигини инобатга оладиган бўлсак, келтирилган натижа жуда ҳам паст даражада эканлиги намоён бўлади. Фикримизча, акциядорлик жамиятлари ва МЧЖ учун ўз капитали миқдорида корпоратив облигация эмиссия қилиниши ва молиявий барқарорлик даражалари бўйича белгиланган меъёрларни тоифалаш керак.

Ўзбекистонда капитал бозорини ривожлантиришдаги яна бир муҳим жиҳатлардан бири акциядорлик жамиятлари томонидан аҳоли ва инвесторларга молиявий-инвестицион ошкораликни, молиявий ҳисоботларининг шаффофлигини таъминлашдаги стратегик



лойиҳаларнинг оммабоплигини таъминлаш ҳисобланади. Албатта сўнгги йилларда ушбу соҳада салмоқли ишлар амалга ошириб келинмоқда. Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг корпоратив ахборот ягона портали ишга туширилган бўлиб ушбу платформада акциядорлик жамиятлари ва масъулияти чекланган жамиятлари бўйича кўплаб маълумотлар тақдим этиб келинмоқда. Бироқ буларнинг барчаси инвесторлар учун истиқболли лойиҳалар бўйича қарорлар қабул қилишда етарли эмас, деб ўйлаймиз.

Акциядорлик жамиятлари самарадорлик даражасини оширишда ва унинг бақарор тарзда ривожланишида капитал самарадорлигини оқилона бошқариш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, капитал самарадорлигини бошқариш орқали молиявий қарорларни қабул қилиш жараёни қулайлиги ва тезлашиши билан бирга, инвестиция ҳажми ва унинг жозибадорлиги ҳам бир вақтда таъминланади. Хусусан, капитал самарадорлигини бошқариш капиталнинг оптимал тузилиши ва молиялаштириш манбаларининг мақбул даражасини таъминлаш билан бирга, инвесторлар учун киритилган сармоядан кутилаётган даромад ва рискларни олдиндан прогноз қилиш имконини беради. Ҳозирда мамлакатимизда 600 дан ортиқ акциядорлик жамиятлари мавжуд бўлиб, уларнинг капитал самарадорлигини тўғри баҳолаш ва бошқариш билан боғлиқ бир қанча камчиликлар мавжуд ва уларнинг аксарияти ишлаб чиқариш реал секторида кузатилмоқда.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегияси тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Alexander Dickerson, Philippe Mueller, Cesare Robotti. Priced risk in corporate bonds//Journal of Financial Economics, Volume 150, Issue 2, 2023, 103707, ISSN 0304-405X,
3. <https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2023.103707>.
4. <https://www.uzse.uz/abouts/bonds/> - маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
5. https://www.uzse.uz/isu_infos/BND/ - маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
6. Burkhanov A. U., Hamdamov O. N. Financial management. Textbook //Т.:«Innovative development publishing house»,-2020.
7. Hamdamov O., Otakhonova S., Baratova Z. Bond Market Analysis In The Countries Of The Asian Region //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 2. – С. 23.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ТА’ЛИМ ТИЗИМИ РАХBARLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANISHIGA OID NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Baxtiyorov Bahodir Baxtiyor o’g’li

Oriental Universiteti

Ta’lim menejmenti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ta’lim tizimi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni mazmun-mohiyati tahliliy yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: boshqaruvchanlik, rahbarga xos sifatlar, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kompetensiya

Tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida sifatli boshqaruvga va ta’lim sohasini rivojlanishiga muhtojlik sezilgan. Ta’lim tizimini rivojlanishi har qanday sohani ravnaq topishiga olib keladigan muhim bo’lgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunki azal-azaldan davlat va jamiyatning barcha tarmoqlari, sohalari hamda yo’nalishlarni rivojlanishning asosi bo’lgan ta’lim tizimiga e’tibor qaratib kelinganligi sababli mamlakatimizdan buyuk-buyuk olimlar, yozuvchilar, allomalar, mutafakkirlar, sarkardalar yetishib chiqib asrlar osha milliy qadriyatlarimiz, an’analalarimiz va urf-odatlarimizni dunyo hamjamiyati oldida yorqin namuna sifatida ko’rsata olganlar. Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar taraqqiy etib rivojlangan sari yuqori darajadagi kompetentlikka ega bo’lgan ta’lim tizimi rahbarlariga ehtiyoj tug’iladi albatta. Ayni paytda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun har tomonlama boshqaruvchilik qobiliyatiga ega rahbar kadrlarni tayyorlab ularni boshqaruv jarayonlariga jalb qilish tadqiqot mavzusini jamiyat hayoti uchun naq qadar dolzarb mavzu ekanligidan dalolat beradi.

Kompetentlik darajasi yuqori bo’lgan rahbar va uning strategik boshqaruvi rahbar shaxsi kreativligining yuqori darajasini belgilovchi hamda tashkilot ravnaqini ta’minlovchi innovatsion dasturlarni amalga tatbiq yetish imkoniyatini yaratadi. Ana shu sababli rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini rivojlantirish asosida umumiy o’rta ta’lim tizimini boshqarishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim psixologik muammo hisoblanadi. Psixologiyada boshqaruv faoliyati va uni tashkil yetish masalalarini ilmiy o’rganish F.U. Teylor nomi bilan bog’liqdir. Uning “Menejment” asari boshqaruv faoliyatidagi ko’pgina masalalarga oydinlik kiritib berdi. Xususan, mazkur asarda rahbarlik faoliyatining asosiy tamoyillari ilmiy asoslab berilgan. Unga ko’ra, rahbariyat tashkilotning turli bo’g’inlarida ish samaradorligini oshirish metodlarining asosini yarata bilishi, xodimlarni iqtidorini aniqlay olish va xodimlarga mas’uliyatli ishlarni teng taqsimlashi, jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishi lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda umumta’lim tizimini boshqarishda ham xuddi shu tamoyillarga amal qilish ta’lim sifatini samaradorligini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Ko’pincha kundalik mulohazada biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. XX asrning 90-yillarida mutaxassislariga malakaviy talablarni qo’yuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda “tayanch kompetensiya”lar degan tushunchani fanga kiritdi. “Kompetensiya” lotincha so’z bo’lib, o’zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi “yaxshi biladigan inson”, “tajribaga ega bo’lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Kundalik hayotda ko’pincha ijtimoiy-psixologik kompetensiya tushunchasiga e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda ishning muvaffaqiyati ko’p jihatdan ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv mahoratiga va ijobiy-psixologik kompetentligiga bog’liq bo’lib qolmoqda albatta. Rahbarlar o’zlarining qo’l ostidagilarni xolisona va har tomonlama mahoratli, ijobiy-psixologik xususiyatlarini o’rgangan holda ularning shaxsiy fazilatlarini foydaliligini va boshqa ko’pgina munosib tomonlarini baholashda ilmiy, amaliy tomondan bilishlari boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etadi. Yu.A. Konarjevskiy, M. Meskon, N. Trenev va boshqalarning fikricha, boshqaruv alohida soha bo’lib, unga ta’lim va tarbiya jarayonining



tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin emas. Lekin ta'limtarbiya jarayonining samaradorligi bevosita rahbar shaxsining ijobiy-psixologik kompetentligiga va boshqaruv mahoratiga bog'liqdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish jarayonini jadallashtirish ko'p jihatdan, o'quv muassasalari rahbarlarining hissalar va rahbarlik faoliyatlarini to'g'ri tashkil etganliklariga bog'liqdir. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida ta'lim muassasalariga yuqori tashkilotlarning ko'rsatma va direktiv hujjatlardagi vazifalarni ko'r-ko'rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o'z faoliyati va har bir ishga ijodiy yondashuvchi, yangi tafakkurdagi zamonaviy, pedagogika, psixologiya, boshqaruv fanlaridan xabardor bo'lgan, ulardan mohirona foydalana biladigan, shuningdek, mukammal shaxsiy fazilatlar, o'ziga xos xususiyatlar, boshqaruvchilik qobiliyati, muayyan muomala madaniyati, imon-e'tiqod, g'oyaviy-siyosiy bilim, qiyofaga ega, his-tuyg'ulari, an'analar, rasm-rusumlarni anglay oladigan, fidoyilik, qat'iylilik, savodxonlik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik hamda tadbirkorlikka layoqatli xodimlar tayinlanishlari lozim.

Rahbarlik – turli xil vazifalarning to'plami yoki amal kursisidan iborat emas, boshqalarga nisbatan boshqaruvchanlik qobiliyatining yuqori darajadagi ifodalanishidir. Demak, rahbarlik qilish uchun insondan zarur bilim, ko'nikma va malaka, mahorat, kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o'ziga xos xususiyat talab etiladi.

Aslida boshqaruv rahbarlik faoliyati tarkibida odamlar bilan birgalikdagi faoliyat va o'rtasidagi muloqot hisoblangani uchun rahbar va jamoa tomonidan bo'ladigan barcha harakatlar, ta'lim muassasasi faoliyati uchun qulay va zarur sharoitning yaratilishi, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro samimiy psixologik muhit hamda ijodiy faoliyatni tashkil yetishga qaratiladi. Bu esa rahbardan xodimlarni o'rganish, ularning qobiliyat hamda bilim saviyalaridan kelib chiqib, ularni o'quv muassasasi, o'quv tarbiya jarayoniga tanlay olish, lavozim va vazifalarga tayinlay olish, muhim ko'rsatma, buyruqlarning qat'iy ijrosini talab qila olish, ularning o'ziga xos fazilat, yutuq hamda kamchiliklarini seza bilish, yutuqlarini qo'llay bilish, kamchiliklarini bartaraf qilish, xodimlar imkoniyatlaridan keng foydalana bilish kabi kasbiy qobiliyat va mahoratni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Bunday yondashuvga binoan, samarali boshqaruv rahbarga xos bo'lgan qator shaxsiy sifatlar bilan belgilanadi. Shaxsga xos xislatlar va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi aloqani ko'rsatib o'tishda qator tadqiqotlar orqali ta'kidlangan rahbarning intellektual qobiliyati ustida to'xtalib o'tish mumkin. Xususan, tafakkurning egiluvchanligi, turli toifadagi vazifalarni tez yechish qobiliyati, samarali rahbarning ijodiy tafakkurga ega bo'lishi alohida ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, samarali boshqaruvni amalga oshirayotgan rahbarga xos bo'lgan kommunikativ qobiliyatlar-muloqotga kirishuvchanlik, empatiyaning rivojlanganligi ham e'tirof etiladi. Alohida e'tibor rahbarning o'z-o'zini boshqarish xislatlari muvaffaqiyatga intilish, tavakkalchilikka moyillik, noaniq vaziyatda uzoq vaqt bo'la olish, stressga chidamlilik, mas'uliyatlik kabilarga qaratiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, o'z ilmiy izlanishlarimiz davomida ko'proq umumta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kompetensiyaviy yondashuvga asoslandik. Boshqaruvga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik kompetensiya rahbar shaxsi va uning umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat o'ziga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni ham bilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Hasanova Z.D. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti 2021.
3. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - “Navro'z” nashriyoti, 2020.
4. Шепель В.М. Управленческая психология. – М.: Экономика, 1994.



RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH
TA'LIMIGA TAYYORLASH

Juraboeva Dilorom
Yangiqo'rg'on tuman
20-KTIMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha, nuqson, bolalar, taqlid qilish, yirik va mayda motorika

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogning predmetli va nutqiy xatti-harakatlarga taqlid qilishga o'rgatish, ularning diqqatini so'zlayotgan shaxslarga jalb qilish, taqlid asosida so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Pedagog xatti-harakatlariga taqlid qilish yirik va mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan «Ko'zgu», «Maymunchalar», «Mana shunday bajar» kabi pedagogik texnologiya jarayonida o'rgatib borildi. Ularda bolalar turli-tuman harakatlar va tana holatlari, yuz mimikasi va emotsional holatni takrorlashga o'rganadilar. Nutqning motor-harakat asosini yaratish, shuningdek, keyinchalik daktil nutq shaklini o'zlashtirish maqsadida asosiy e'tibor mayda ga qaratiladi. Nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlar mavzuiy tamoyilga rioya qilingan holda tashkil etiladi. Ma'lumki, dasturda berilgan mavzular mazmunining bolalar hayotiga yaqin va bog'liqligi («O'yinchoqlar», «Oila», «Mevalar va sabzavotlar», «Oziq-ovqatlar», «Kiyimlar», «Oyoq kiyimlar», «Tana a'zolari», «Hayvonlar», «Jihozlar», «Idish-tovoqlar», «Bayram», «Ob-havo»), ta'lim muddatlari, muayyan mavsumiy davr bilan bog'liq holda yil davomida takrorlanib keladi. Tevarak-atrof bilan tanishish, o'yinlar, tasviriy faoliyat jarayonida mana shu mavzular birdek e'tibor markazida bo'ldiki, bu nutqiy material mazmuni ustida ish olib borishda puxta ko'rgazmali asos yaratishga imkon berdi. Taqdim etiluvchi lug'at material turli maishiy vaziyatlarda, bolalarning erkin faoliyatida, defektolog va pedagogning barcha mashg'ulotlarida ishlatiladi. Muayyan mavzu bo'yicha nutqiy material hajmining uncha katta bo'lmasligi e'tiborga olib boriladi. Bu materiallarning bolalardan turli fikriy va nutqiy faollikni talab qiladigan turli xildagi o'yinlarda, shuningdek, boshqa qator ish turlarida ishtirok etishlari jarayonida ko'p martalab takrorlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, «Kiyimlar» mavzusi bo'yicha mashg'ulot o'tkazishda har xil kiyimlarni ularning nomlarini atagan holda ko'rib chiqish, turli ko'rinishdagi ko'ylaklar, shimlar va h.k. tasvirlangan rasmlarni tanlash, qirqilgan rasm qismlarini joy-joyiga qo'yib chiqish, kiyimlarning yetishmagan qismlarini chizib to'ldirish, qo'g'irchoqlarni kiyintirish kabi usullardan foydalaniladi. Ana shunday pedagogik texnologiya bilan so'z ma'nolari va iboralar mazmunini asosli o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Nutqiy muloqotni shakllantirish yetakchi masalalardan biri bo'lganligi tufayli, o'rganish uchun taqdim etilgan so'zlar, ularning ma'nolari aniqlashtirilganidan so'ng, nutqiy muloqot uchun xos bo'lgan sintagmatik aloqalar ustida ishlash maqsadida iboralar tarkibiga qo'shib boriladi. Bolalar bilan muloqotda pedagoglar o'z nutqlarini cheklamadilar, hatto, ancha sodda va kundalik turmushda ko'p takrorlanadigan iboralarni tushunish bolalar uchun qiyinchilik tug'dirishini hisobga olib, u yoki bu jihatdan keng qo'llanadigan bazaviy konstruksiyalarning ma'nolarini aniqlashtirish va ular ustida ishlashga ko'proq diqqat qaratadilar. Bunday konstruksiyalar asta-sekin murakkablashuv asosida qo'llaniladi. Avvalo, bolalarning kundalik faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi oddiy da'vat konstruksiyalari qo'llaniladi: *Aylanishga chiq(-ing). Uxla(-ng). Qo'lingni yuv (art). Qo'g'irchoq (mashina, shar)ni ber (ol, ko'rsat). Kel, o'ynaymiz (rasm chizamiz, uy yasaymiz).*

Ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotga oid (kommunikativ) umumlashmalarni tushunishga o'rgatish tanish so'zlar va iboralar bilan kattalarga murojaat qilish usuli orqali amalga oshiriladi: *Halima opa, bering (ko'rsating, oling).*

Ikkinchi yarim yillikda nutq jarayoniga jumalarning ma'nolarini aniqlashtirish va o'zlashtirish uchun tarkibida hozirgi zamon fe'li bo'lgan ibora-xabarlar kiritib boriladi: *Ana u bola (xola, qiz bola) yiqilib tushdi (uxlayapti, ovqatlanayapti, yuguryapti, o'tiribdi).* Bunday konstruksiyalarning tushunilishini xatti-harakatni rasmda ko'rsatish va uning imitatsiyasi (taqlidi) ni og'zaki va yozma shakldagi global idrok etilayotgan ibora bilan qiyoslash jarayonida ta'minlanishiga, shuningdek, fe'llarning leksik ma'nolarini shakllantirish uchun har bir so'z bildirgan xatti-harakatning turli tasvirlari namoyish etilishiga diqqat qaratiladi.



Yalpi va yakka mashg'ulotlarda, ilgari o'zlashtirilgan nutqiy ko'nikmalarning tez unutilishining oldini olish maqsadida, ta'limning dastlabki bosqichida egallangan lug'atning muttasil faollashtirib borilishiga e'tibor qaratib boriladi. Lug'at yangi so'zlar hisobiga ham, tanish so'zlarning yangi shakllarini qo'llash hisobiga ham boyitib boriladi. Bunda so'zlarning mavzulararo aloqalari, antonimik aloqalari (*kiyin-echin, yoq-o'chir*), konversiyali aloqalari (*tashla – il, yuvintirayapti – yuvinayapti*) hisobga olinadi.

Turli mavzularga oid mashg'ulotlarda bolalarga tanish bo'lgan so'zlarning ko'plab takrorlanishi hamda yangilarining kiritilishi va o'zlashtirilishiga alohida ahamiyat beriladi. Fe'llar va sifatlar boshqa turkumdagi so'zlarga nisbatan faolroq kiritib borildi. Shuningdek, bolalar tomonidan umumlashtiruvchi so'zlarning ma'nolarini yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun og'zaki nutqda «O'yinchoqlarni olib kel», «Idishlarni yig'ishtir (ko'rsat)» kabi iboralarni qo'llash ko'paytiriladi.

Bolalarning nutqiy ko'nikmalarini faollashtirish, muloqot jarayonida o'zlashtirilgan nutq vositalaridan foydalanish maqsadida pedagoglarning bolalarning so'z vositasida muloqot qilishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlab borishlari yo'lga qo'yiladi.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Выгоский Л.С. Вопросы детского психологии. – М.: СПБ. 1999.
2. Бельюков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприимчивости и усвоения устной речи (в норме и патологии) – М.: Педагогика. 1997.



O'RTA MAXSUS TALIM TURI SIFATIDA AKADEMIK LITSEYLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI TALABLAR

Yusupova Nargiza Abdulxafizovna,
Namangan davlat universiteti,
Ingliz filologiyasi fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'rganishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalariga asoslangan holda darslar olib borilishi ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: akademik litseylar, xorijiy tillar yonalishi, o'quvchilar, namuniy fan dasturi.

Abstract: The main goal of teaching a foreign language at all stages of education in our country is to form the communicative competence of students in a foreign language in order to carry out activities in everyday, scientific and professional spheres in a multicultural world. Academic lyceum students are expected to have lessons based on listening, speaking, reading and writing skills in learning foreign languages.

Key words: academic lyceums, learning foreign languages, students, exemplary science program.

Xorijiy tillarni egallash ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy mezon hisoblanadi. Globallashayotgan ta'lim endilikda ilm oluvchilar, o'qituvchilar uchun butun dunyoda ta'limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bermoqda. Bundan tashqari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarini, shuningdek, o'z kasblari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini chet tillarida rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim sohasidagi mutaxassislarining xalqaro birlashuviga va ular tomonidan mamlakatlararo taqqoslanishi mumkin bo'lgan mukammal global dasturlarning yaratilishiga olib keldi.

Akademik litseylarda xorijiy tillarni o'qitish dasturi O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro standartlariga muvofiq keluvchi umumiyevropa ramkalari tavsiyalariga (CEFR) asoslangan holda o'rganish, o'qitish va baholash DTSga moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan. O'quv dastur O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son, "Iqtidorli oshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 3-dekabrda PQ-4910-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori asosida akademik litseylarda barcha xorijiy tillarni o'rganish, o'qitish va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Chet tilining asosiy vazifasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'rganishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalariga asoslangan holda darslar olib borilishi ko'zda tutilgan.

Akademik litseylarda I-kursda o'quvchilarning kundalik hayotda erkin muloqatda bo'lishini va o'z ustida mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishini ortirishdan iborat. O'quvchining yozish hamda ma'lumotlar manbaalari bilan ishlash, taqdimot qilish, kasbga oid matnlar bilan ishlash, kurs ishi va taqdimotlarni baholash ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iboratdir.

II-kursda o'quvchining jamoa bilan ishlashi, taqdimot qilishi, turli xil mavzularda erkinc muloqatga kirishish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tinglash komponenti bo'yicha o'quvchi birinchi kurs yakunida quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashi shart:

- turli janrdagi (tele yangiliklar, hikoyalar, telereklamalar, e'lonlar va shu kabi) matnlarni tushunish va muhokama qilish uchun tinglashi;
- tinglab tushunishni osonlashtirish uchun o'quvchi turli strategiyalarni qo'llay olishi, jumladan, matnning asosiy g'oyasini tushunish, kontekstdagi tayanch so'zlarni ang'lay olishi;
- radio yangiliklar, tele dasturlar va adabiy (standart) chet tilida tanish mavzudagi filmlarning



asosiy mazmunini tushunishi;

- soʻzlashuvchining kayfiyati, ohangi va munosabatini anglay olishi;

Tinglash komponenti boʻyicha oʻquvchi ikkinchi kurs yakunida quyidagi bilim va koʻnikmalarni egallashi shart:

- turli mavzulardagi aniq va batafsil ogʻzaki tavsiflarni tushuna olishi va matn tuza olishi;
- adabiy (standart) ogʻzaki tilni shovqin yoki nutq yaxshi eshitilishiga toʻsqinlik qilayotgan boshqa tashqi omillar sharoitida ham toʻliq tushuna olishi;
- tanish mavzulardagi aniq va ravon tuzilgan maʼruza yoki nutqni tushuna olishi va unga doir savollarga javob bera olishi;
- adabiy (sandart) tilda olib boriladigan radio va TV dasturlarni (hujjatli filmlar, jonli intervyular, tok-shou, spektakl va aksariyat badiiy filmlar) tushuna olishi va mazmunini qisqacha ogʻzaki bayon eta olishi;
- turli variantlar, sabab, natija, turli situatsiyalarning yutuq va kamchiliklarini eʼtirof etgan holda oʻz nuqtai nazarini ifoda etishi;
- turli ijtimoiy kontekstlarda tegishli til vositalaridan oʻrinli foydalana olishi.

Gapirish komponenti boʻyicha oʻquvchi birinchi kurs yakunida quyidagi bilim va koʻnikmalarni egallashi shart:

- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim soʻrash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni toʻgʻri oʻzlashtirishi;
- oʻziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi;
- oʻzi haqida shaxsiy maʼlumotlarni bera olishi;
- soʻzlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi anglay olmaganligini ifodalashi (masalan, soʻzlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish);
- muloqotni davom ettira olish;
- intervyu olish va savollarga javob qaytarish;
- tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi;
- navbat bilan muloqotga kirishishi, soʻzlovchining nutqini boʻlmasligi yoki boʻlishga toʻgʻri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jummalarni perifriza qilish va qaytadan taʼkidlashi;
- ogʻzaki muloqotda tegishli milliy-madaniy meʼyorlarni (masalan, *iltimos* va *rahmat* soʻzlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni toʻgʻri qoʻllashi;
- muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini koʻrsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh irgʻashi) oʻrinli foydalanishi;

Gapirish komponenti boʻyicha oʻquvchi ikkinchi kurs yakunida quyidagi bilim va koʻnikmalarni egallashi shart:

- oʻqish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, maʼlumot almashish;
- tegishli intonatsiya va urgʻudan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish;
- turli mavzularda davomiy dialogga kirishish;
- avvaldan tayyorlangan holda intervyu olib borish, maʼlumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga eʼtibor qaratish;
- muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda oʻz fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;
- oʻz qiziqishlariga oid mavzularda batafsil hisobotlar;
- yangiliklar, intervyu yoki hujjatli filmlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish;
- rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular boʻyicha oʻz nuqtai nazarini ifoda etish;
- debatlarida asosiy maʼruzachi sifatida ishtirok etish;
- ikkinchi kurs mavzulari boʻyicha prezentatsiyalar qilish;

Oʻqish moduli boʻyicha oʻquvchi birinchi kurs yakunida quyidagi bilim va koʻnikmalarni egallashi shart:

- tushunish va muhokama qilish uchun turli matn turlari (kichik hikoyalar, jurnal va gazeta maqolalari, yangiliklar bayoni, internet matnlari va hokazolar) bilan ishlash usullarini oʻzlashtirishlari;
- matnni tushunish maqsadida turli strategiyalarni (asosiy fikrlarni anglash uchun oʻqish, gʻoyani bilish uchun oʻqish, maxsus maʼlumotni olish uchun oʻqish) egallashi;
- badiiy adabiyotlarni oʻqish koʻnikmasiga ega boʻlishi va oʻqigan adabiyotlaridan olgan



taassurotlari bilan o'rtolasha olishi;

O'qish moduli bo'yicha o'quvchi ikkinchi kurs yakunida quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashi shart:

- turli matn turlarini (kichik hikoyalar, jurnal va gazeta maqolalari, yangiliklar bayoni, internet matnlari) o'qib, matn yuzasidan xulosa chiqara olishlari;
- matnlardagi fikrlarni, muallif g'oyasini va mubolag'ani aniqlashlari;
- qiziqishiga oid matnlarni o'qib tushunishlari;
- qiziqishi bo'lmagan maqolalarni lug'atsiz o'qib tushunishlari;
- madaniyat va san'atga oid mavzulardagi (film, teatr, badiiy adabiyot) maqola va taqrizlarni o'qib, undagi asosiy fikrlarni ayta olishi;
- yo'riqnomalarni o'qib kerakli ko'rsatmalarni tushunishlari;
- badiiy matnlarini (hikoya, drama) o'qib, ular g'oyasini, voqealar rivoji va oqibatini tushunishlari.

Bugungi kunda xorijiy tillarni egallash, avvalo, foydalanuvchi sifatida kelajakda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi bitiruvchilarining kichik mutaxassis sifatida ishlashi, erkin muloqot qila olishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akademik litseylarda chet tillar o'qitishning namunaviy dasturi, 2023.
2. CEFR Guidebook at Common European Framework of Reference for Languages
3. CEFR & Resources | EAQUALS; www.eaquals.org
4. www.britishcouncil.uz



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВГА TAYYORLASHDA KO‘P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN МАКТАВГАЧА ТА‘LIM TASHKILOTI VA OILA XAMKORLIGI

Parpieva Barno

Yangiqo‘rg‘on tuman
20-KTIMTT tarbiyachisi.

Annotatsiya: maqolada Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti va ota – onalar yoki bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi boshqa oila a‘zolari bilan hamkorlik qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha, nutq, bolalar, nutqiy nuqson, ta‘lim – tarbiya.

Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi nutqiy nuqsoni bo‘lgan bolalarning ijtimoiy o‘qitilishi, tarbiyalanishi bilan bir nutqiy nuqsonga ega bo‘lgan bolani maxsus muassasaga joylash bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Ota – onalar yoki bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi boshqa oila a‘zolari nuqsonli bolaning uyida bo‘lgan vaqtida defektologik ishining davomchilari sanalib uning rahbarligi ostida ta‘lim – tarbiya borasidagi kelgusi barcha ishlar uchun zamin hozirlaydilar. Bolaning kompensator xususiyatiga ega bo‘lganligiga tayangan holda so‘zlashuv nutqini rivojlantirish hamda kommunikativ malakalarini shakllantirish bo‘yicha ishlar tashxis qo‘yilgan ilk kunlardan boshlanishi samarali natija beradi.

Uy sharoitida bola lug‘atining boyishiga, so‘zlashuv nutqi to‘g‘ri, talaffuz malakalarining shakllanishi, bilim va tushunchalarining kengayishida turli – tuman tabiiy holatlarni yuzaga keltiradi. Agar nogiron bola mustaqil ravishda nutqni egallamagan bo‘lsa, muloqotda nutq qanday yordam berishini ko‘rsatish juda foydalidir. Shuning uchun dastlabki ayrim topshiriqlarni tushunib bajarishga o‘rgatish lozim. Masalan, “*tur*”, “*o‘tir*”, “*ber*”, “*onangni oldiga bor*”, “*olib kel*”, “*ko‘rsat*” kabi buyruqlar normal tengdoshi yoki yaqinlaridan biriga berilib, ularning ushbu topshiriqlarga xos hatti – xarakatlari kuzatiladi. Shundan so‘ng ushbu vazifani bajarish nogiron boladan talab qilinadi. Ushbu mashqlar bola tomonidan to‘liq ravishda o‘zlashtirgunga qadar takrorlanib turilishi lozim. Bola o‘ziga qaratilgan so‘zlar ma‘nosiga tushunayotganiga ishonch hosil qilgach, ushbu so‘zlar qog‘ozga yozib ko‘rinarli joyga osib qo‘yiladi. Natijada atrofdagilar bolaga qaysi so‘zlar bilan murojaat etish mumkinligini bilib oladilar. Asta – sekin so‘z birikmalarini turli predmetlar nomlaridan foydalangan holda tuzish mumkin.

“*ber*”, “*olib kel*”, “*ko‘rsat*”, “*olib bor*” so‘zlaridan foydalanib, bolaga atrofni o‘rab turgan ko‘pgina predmetlarni bildiruvchi: “*mashinani ber*”, “*ruchkani ber*”, “*daftarni ber*” topshiriqlari beriladi. Bola topshiriqlarni bajarish jarayonida zaruriy predmetlar nomlarini o‘zlashtira boradi. Predmetlarning aynan o‘zi bo‘lmagan holda ularning rasmlaridan foydalanish mumkin. Ushbu so‘zlar ma‘nosini bola tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilishini nazarda tutgan holda bu mashqlar turli holatlarda bir necha bor takrorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bola u yoki bu so‘zlarni tushuna boshlagach ulardan jonli muloqotda foydalanish: “*ko‘rsat*”, “*qani*” so‘zlaridan kitobchalarni ko‘rishda “*olib kel*”, “*olib bor*” so‘zlaridan uy topshiriqlarini bajarishda, ovqat tayyorlashda, o‘yin vaqtida foydalanish mumkin. So‘z zahirasini boyitish bilan bir qatorda ushbu so‘zlarni talaffuz etishga o‘rganib borish lozim. Lekin nogiron bolaning nutq tovushlarni hosil qiluvchi nutq organlarining harakatlanishi barqaror bo‘lmaganligi sababli uni asta – sekinlik bilan faollikka nutqiy tortish zarur. Ushbu bosqichda bola “*sening isming kim?*”, “*dadangni ismi kim?*”, “*onangi ismi kim?*” savollariga javob berishni bilish lozim. Bola javobida talaffuz ravshan bo‘lmasa – da, so‘z shaklining to‘g‘ri egallanishiga e‘tibor beriladi, so‘ng unli va ba‘zi jarangli undoshlarning to‘g‘ri talaffuziga o‘rgatilib boriladi.

Bu davrda bola kundalik muloqotda zarur bo‘lgan atrofidagi predmet va hodisalar turkumi bilan tanishritib boriladi. Turkumlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: “*hayvonlar*”, “*maktab*”, “*sabzavotlar*”, “*mevalar*”, “*kiyimlar*”, “*o‘yinchoqlar*” va h.k.

Lug‘at zahirasining boyishida, ekskursiyalar, do‘kon, pochta va shunga o‘xshash muassasalarda bo‘lishi foydali bo‘lib, bu yerlarda suhbatga tortiladi hamda bolaning diqqati predmet hodisalarni ifodalovchi so‘zlarga jalb etiladi. So‘z zahirasi boyishining asosiy manbai uni o‘rab turgan atrof – muhitdir. Shu sababli ham bola o‘zi muloqotda bo‘lgan predmetlar va shohidi bo‘lgan harakatlar, hodisalar haqida xabar berishiga har qanday yo‘llar bilan erishish lozim. Masalan, bola o‘rnidan turib



kiyinatotgan vaqtda uning ismini keltirgan holda shunday deyish mumkin: “*Jahongir o‘rnidan turdi*”, “*Jahongir paypog‘ini kiydi*” va h.k. Dars tayyorlash vaqtida esa quyidagicha: “*Jahongir yozyapti*”, “*Jahongir rasm chizyapti*” va h.k.

Agar bola yaxlit gapni o‘zlashtirishi olmayotgan bo‘lsa, u holda har bir predmet nomini alohida aytish mumkin, ko‘ylak, paypoq va h.k. bir vaqtning o‘zida bolaning yuvinishi va kiyinishi bilan bog‘liq predmet va hodisalarni ko‘rsatib nomlashga o‘rgatish mumkin. Masalan: suv, sovun, qo‘lni yuvyapti, yuzini yuvyapti, toza va h.k. (idish – tovoq va anjom nomlari) piyola, kosa lagan, choynak, qoshiq, pichoq va h.k. bilan tanishtirib borish mumkin. Shu vaqtning o‘zida “*Jahongir ovqat yedi*” deyish maqsadga muvofiqdir.

Turli hodisalarning nomini o‘rgatish uchun har qanday kichik voqealardan foydalanish kichik voqealardan foydalanish juda muhimdir. Masalan, “*yiqilib tushdi*”, “*sirg‘alib ketdi*”, “*kulyapti*”, “*xursand*”, “*g‘olib bo‘ldi*”, “*bilib oldi*” va h.k.

So‘z zahirasini boyitish manbalaridan yana biri holat va harakatlar aks ettirilgan voqeaviy rasmlar asosidagi suhbatlardir. Bu ishni o‘qituvchi boshlashi va ota – onalar davom ettirishlari zarur. Bunday hikoyalar rasmlar to‘plami maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun albom, kitobcha tarzida ota – onalar tomonidan tayyorlanishi samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. L.Mo‘minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar .2013.
2. P.Po‘latova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.



МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ПРИМЕНЕНИЯ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ В СРЕДНИХ КЛАССАХ

Рафикова Рената Анатольевна

Преподаватель кафедры «Методика преподавания педагогических и психологических дисциплин»

Наманганского государственного педагогического института
natalistratilat2089@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются возможности STEAM технологий в общем среднем образовании. Анализируются методы применения STEAM технологий в средних классах как проблемно-ориентированное обучение и проектное обучение. В рамках данных методов, учащимся предлагаются реальные проблемы или задачи, которые они должны решить через коллективное исследование и расширение своих знаний в различных областях. Анализируется применение *STEAM технологий* в контексте развития самостоятельности, творческого мышления и сотрудничества между учениками. Описываются принципы STEAM в выявлении потенциала у учеников.

Ключевые слова: *STEAM технологии, ученики средних классов, принципы STEAM технологий, приёмы STEAM технологий, методы STEAM технологий.*

Современное образование стало неотъемлемой частью развития современного общества. В условиях быстрого развития технологий и постоянного прогресса знаний, важно обеспечить обучающимся не только достаточную базу этих знаний, но и развить у них навыки, необходимые в современном мире. В этом контексте, методика применения STEAM-технологий в средних классах становится все более актуальной и востребованной.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) – это интегративный подход к обучению, основанный на соединении научных, технических, инженерных, художественных и математических дисциплин. Использование этой технологии позволяет стимулировать активное участие учеников в учебном процессе, развивать их творческое мышление, логическое мышление, аналитические способности, а также способности к коллаборации и коммуникации. Важно отметить, что STEAM-технологии не просто объединение различных предметов, а синтез знаний, который помогает ученикам увидеть связь между различными областями наук и применить их на практике. Подобный подход к обучению расширяет кругозор обучающихся, позволяет им разрабатывать и реализовывать собственные проекты, а также развивать критическое мышление и самостоятельность. Внедрение STEAM-технологий в средних классах имеет неоспоримые преимущества. Это позволяет формировать у учеников устойчивый интерес к науке и технологии, развивать способность к творческому решению проблем, повышать их уровень компетенции в области STEM-дисциплин, а также подготавливать их к будущим вызовам и задачам.

Еще одним важным аспектом применения STEAM технологии в средних классах является её вовлекающий характер. Ученики получают возможность наблюдать и испытывать, как применение обученных знаний и навыков может осуществляться в реальной жизни. Это позволяет им лучше понять и оценить значимость учебных предметов и их роли в повседневной деятельности.

Рассматривая принципы применения STEAM технологий в средних классах, можно отметить следующие положения:

Первый принцип применения STEAM технологий - интеграция дисциплин. Методика позволяет объединять различные научные области в одном уроке или проекте. Например, ученики могут изучать физику и математику, создавая роботов или модели на основе научных принципов. Такой подход помогает учащимся связывать знания и видеть их взаимосвязь, что способствует более глубокому усвоению материала.

Второй принцип – активная роль ученика в процессе обучения. Вместо пассивного слушания уроков, учащиеся активно участвуют в практических занятиях, экспериментах и проектах. Они самостоятельно исследуют, задают вопросы, формулируют гипотезы и находят решения. Такой подход способствует развитию самостоятельности, критического мышления и коммуникативных навыков у учащихся.



Третий принцип – использование реальных проблем и задач. Вместо стандартных учебных заданий, учащиеся работают над настоящими проблемами и проектами, которые имеют реальное значение. Например, они могут исследовать экологические проблемы своего региона и разрабатывать планы по их решению. Такой подход позволяет студентам понимать, как их знания и умения могут быть применены на практике.

Четвертый принцип – развитие креативности и инноваций. STEAM технологии способствуют развитию креативного мышления и поощряют учащихся к поиску новых идей и решений. Ученикам предоставляется возможность экспериментировать, создавать и проводить опыты, что способствует расширению их интеллектуального потенциала и подготовке к будущим технологическим вызовам.

Один из методов применения STEAM технологий в средних классах – это *проблемно-ориентированное обучение*. В рамках данного метода, учащимся предлагаются реальные проблемы или задачи, которые они должны решить через коллективное исследование и расширение своих знаний в различных областях. Этот метод стимулирует самостоятельность, творческое мышление и сотрудничество между учениками.

Другой метод – это *проектное обучение*. Учащиеся выбирают проекты, которые соответствуют их интересам и вопросам, которые они хотят решить. В рамках проекта, они разрабатывают концепции, проводят исследования, создают и тестируют прототипы, а затем представляют результаты своей работы. Этот метод развивает навыки проблемного решения, коммуникации и критического мышления.

Компьютерные технологии и программное обеспечение также являются важными инструментами для применения STEAM технологий в средних классах. С помощью компьютеров и специализированного программного обеспечения, ученики могут создавать 3D модели, проектировать и разрабатывать электронные устройства, и программировать роботов. Эти инструменты помогают учащимся применять свои знания на практике и развивать навыки в области технологий и инженерии.

Таким образом, подытоживая, можем сказать, что применение STEAM технологий в средних классах позволяет создать интерактивную образовательную среду, стимулирующую учеников к активному и самостоятельному обучению. Примеры успешной реализации, такие как проектное обучение, использование виртуальной и дополненной реальности, а также робототехники, подтверждают эффективность данной методики обучения. Это важный шаг в развитии учебного процесса, способствующий формированию у учащихся навыков, необходимых для успешной адаптации к современному информационному обществу.

Использованная литература

1. Авазбоев, А. и Жамалдинова, М. 2021. Сущность и преимущества технологии обучения, основанной на подходе «STEAM-образование». Общество и инновации. 2, 5 (окт. 2021), 109–115. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp109-115>.
2. Анисимова Т.И., Сабирова Ф.М., Шатунова О.В. «Подготовка педагогов для STEAM-образования» Елабужский институт Казанского федерального университета
3. Селиванова О.Г. Метапредметные результаты образовательной деятельности школьников и способы их достижения. Ученые записки ПетрГУ. №4. 2014. – С. 36–40.
4. Рафикова Р.А. «STEAM технологии как возможность раскрытия потенциала неуспевающих школьников» Вестник Бухарского государственного университета №1. 2024. – С. 36–40.



UMUMTA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH MEKANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH

Ibodullayev Anvar Kamiljonovich

Oriental universiteti

Ta'lim menejmenti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumta'lim muassasalari boshqaruvining nazariy asoslari hamda bugungi kundagi mavjud bazi muammolari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktab ta'limi, boshqaruv, mexanizm, pedagogika, muammolar

Maktab ta'lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish maktab ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinlarda umumta'lim muassasalari deb yuritiladi) faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Zamonaviy pedagogika fani boshqaruv g'oyalarini har tomonlama, turli nuqtai nazardan o'rganishga intilish bilan bir qatorda ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi. Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasiz boshqaruv muammolarining hal etilishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Tizimli yondashuvda ta'lim muassasasi tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko'ra obyektning bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Ta'lim muassasasini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi. Kengroq ma'noda tizimli yondashuv - bu falsafa metodologiyasi bilan tabiiy holdagi ilmiy tadqiqotlarning metodlari o'rtasidagi vaziyatni egallab turuvchi fan, ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslaridir.

Tizimli yondashuv fan sifatida aniq bir yangi tushunchalar bermaydi, lekin obyektning o'rganishda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differentsiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

O'quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish, jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, umumta'lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash orqali maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar maktab ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash;

Ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligining (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) muvofiqlashtiruvchi roli va mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo'nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish;

Rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish;

Xalq ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

Zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo'li bilan umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko'rsatishga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda — nodavlat umumta'lim tashkilotlari) tarmog'ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlatxususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish;



Maktab ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;

Xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, shu jumladan barcha muassasalarning telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash, barcha foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar manbasini yaratish, ularning faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etish;

Avvalo, ta'lim jarayoni sathlarini ajratib ko'rsatish, so'ngra ularning har birida boshqaruv xususiyatlarini aniqlash kerak.

Umuman olganda, ta'lim jarayonini boshqarish uchun to'liq boshqaruv tsiklidan foydalanish kerak: uning natijalari to'g'risida ma'lumot olish, uni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va o'quv jarayonini yanada rivojlantirish maqsadlarini shakllantirish, ularga erishishni rejalashtirish, o'zlarini va talabalarni tashkil etish (va umuman maktabda - butun maktab jamoasi) rejani amalga oshirish, natijalarni nazorat qilish, tahlil asosida jarayonning o'zi ham, uni boshqarish ham tartibga solinishi kerak. O'qitishni boshqarish mohiyatini aniqlash uchun menejmentning barcha jihatlarini birlashtirgan boshqaruv jarayonini tahlil qilishning dastlabki birligini aniqlash kerak. Bunday birlik boshqaruv holati deb ataladi.

Ta'lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, maktab bilan ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Xulosa, bunga bog'liq maktab o'quvchisining ta'limini boshqarish turi boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning algoritmik xususiyatiga ko'ra dasturiy va vaziyatli, boshqaruv harakatlari paydo bo'lish manbasiga ko'ra esa buyruqbozlik va refleksiv bo'lishi mumkin. Ushbu qutbli turlar orasida oraliq mavjud. Ta'limni boshqarish turlarining bunday bo'linishi, albatta, rasmiy xususiyatga ega. Maktablarda ta'lim sifatini yaxshilashda hamda boshqarishda nafaqat rahbar faoliyatiga, balki boshqa omillarga ham e'tibor qaratilsagina undagi o'zgarishlarga va rivojlanishlarga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po'latov Sh. Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. – T.: -- “Tafakkur” nashriyoti. 2012.
2. Qosimova D. Menejment nazariyasi. T.: “Tafakkur bo'stoni” 2011.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti // O'qituvchi, - 2007.
4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: -- “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2006.



Isroilov Orifjon Erkinovich

Kattaqo'rg'on tumani MMTV ga qarashli
75-maktabning amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada himoya mexanizmi va uning paydo bo'lishi, himoya mexanizmining turlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: himoya, shaxs, vazifa, maqsad, mexanizm, ong, tur, faoliyat. Himoya mexanizmi atamasi 1894-yilda dastlab Z.Freyd tomonidan fanga kiritildi. Keyinchalik mazkur sohadagi tadqiqotlarning miqdori ortib borishi natijasida uning amaliy va nazariy ahamiyati ham ortib bormoqda. Psixologik himoya – bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir. Aynan psixologik himoya mexanizmlari qarshilik ko'rsatish jarayonlari asosida yotadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning psixikasida ilk bolalik davrida paydo bo'ladi va butun hayoti mobaynida davom etadi. Psixologik himoya mexanizmlari odamni yoqimsiz emotsional kechinmalardan himoya qiladi, psixologik komfortni saqlab berishga yordam beradi. Psixologik himoyaning funksional vazifasi va maqsadi, ongsizlikni instinktiv impulslari va tashqi ijtimoiy muhit talablarini o'zlashtirishi oila va jamiyatning qoida va normalarini o'zlashtirish o'rtasidagi ziddiyatlar bilan shartlangan ya'ni shaxsni ichki nizolarini (havotirlik, siqilish) yengillashtirishdan iborat. Psixologik himoya mexanizmlari bu nizolarni yengillashtiradi, inson xulq-atvorini himoya qiladi va uning moslashuvchanligi va psixikasining barqarorligini oshirgan holda boshqaradi.

Psixologik himoyalanganlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida shaxsning barqarorlashtiruvchi maxsus boshqaruv tizimi yuzaga chiqadi. Ular nizoni anglash bilan bog'liq bo'lgan havotir tuyg'ularini bartaraf qilish yoki minimumigacha keltirishgacha yo'naltirilgan. Bu yondashuv bilan bog'liq holda uning asosiy funksiyasi sifatida ong muhitini negativ shaxsni jarohatlovchi kechinmalardan "to'sish" ko'rib chiqiladi.

Keng ma'noda "psixologik himoya" atamasi psixologik diskomfortni bartaraf etish natijasida yuzaga keladigan negativizm kabi shaxs xislatlari faolligini chalkashtiruvchi "yolg'onlar" paydo bo'lishi, shaxslararo munosabatlar tizimini o'zgartiruvchi har qanday xarakatlarni tushuntirishda qo'llaniladi. Tor ma'noda esa psixologik himoya bir qator himoya mexanizmlarini funksiyalashuvi natijasida ong tarkibini o'ziga xos tarzda o'zgarishga olib keluvchi tushunchani anglaymiz. Ular tushkunlik, rad etish, proektsiya, identifikatsiya, regressiya, izolyatsiya, ratsionalizatsiya, konversiya va boshqalarda.

Bu himoya mexanizmlarini faoliyati insonning axborot-yo'nalganlik harakatlari asosini va uning sub'ektiv, shaxsiy munosabatlar tizimini adekvatligini oshirmasdan uni mosligini xatto tushirishi xam mumkin.

Himoya mexanizmi – bu xatar yoki xavotir manbaini buzib ko'rish rad etish yoki qochish mumkin bo'lgan har qanday jarayon. Himoya mexanizmlari, shuningdek, bizning «Men» ligimizni idealashtirilgan obrazini tartibga solishga hamda o'zimizni qabul qilishimiz qulay bo'lishi uchun yordam beradi. Zigmund Freyd birinchilardan bo'lib, himoyaning ko'p turlarini identifikatsiyalagan va bu mexanizmlar ongsiz tarzda harakat qilishini taxmin qilgan.

Himoya mexanizmlarini juda ko'p qo'llovchi insonlar yaxshi moslashmay qoladilar, chunki ular emotsional energiyalarining ko'pini xavfni nazorat qilish va o'zi haqidagi yolg'on tasavvurlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Shunga qaramay himoya mexanizmlarini foydasi mavjud. Ular ko'pincha xavfni yengib o'tishga yordam beradi. Bizda xavfdan samarali qutilish va muammoga diqqatni qaratishga vaqt paydo bo'ladi. Agar siz bizning aytganlarimizdan o'zingizga taalluqliligini olgan bo'lsangiz, bu siz o'zingizni faqatgina himoya qilaverasiz degani emas. Avval ta'kidlaganimizdek hamma ham himoya mexanizmlarini qo'llab turadi.

Himoya mexanizmlarining ikkita asosiy tavsifnomalari mavjud:

1.Reallikni rad etish yoki buzish.

2.Ongsiz darajadagi faoliyat.

Ko'pincha odamlar himoya mexanizmlarini bitta turini emas, balki ularni kompleks tarzda qo'llashni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari ko'pchilik insonlarda bitta mexanizmlarni boshqasidan afzal ko'rish moyilligida, ya'ni xuddi ularning qo'llanilishi odat tusiga aylangandek tuyuladi.

Psixologik himoya mexanizmlarini turlarini ko'rib o'tamiz.

Siqib chiqarish – bu yoqimsiz fikr, istak yoki tuyg'ularni ongsiz, beixtiyor ravishda chiqarib tash-



lash jarayoni.

Tushkunlik mexanizmining mohiyati – ongdan jarohatlovchi voqea mohiyati va u bilan bog'liq emotsiyalarni chiqarib tashlashdir. Tushkunlik qo'rquv emotsiyalarini ushlab turish uchun rivojlanadi. Ularning paydo bo'lishi o'zini ijobiy idrok qilish uchun noma'qul shuningdek, agressorga bog'liq bo'lib qoladi. Qo'rquv real stimulni unutish oqibatida qo'rquvni keltirib chiqaruvchi, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan assotsiativ ob'ektlar, faktlar va vaziyatlarning barchasi yig'iladi.

Regressiya. Muammoli vaziyatda avvalgi yoki bolalikdagi istak va xarakatlarni qoniqish shakliga qaytishdir.

Proektsiya – bu individ o'zining ongli darajasida rad qiluvchi fikr, tuyg'u, motiv va istaklarni boshqa shaxs yoki ob'ektga o'tkazish mexanizmi.

Introektsiya – inson yoki ob'ektni simvolik internalizatsiyasi (o'ziga kiritishi). Mexanizm xarakati proektsiyaga qarama-qarshidir. Introektsiya yordamida sevgi ob'ektlari va o'zining shaxsi o'rtasidagi farqlar bartaraf etiladi.

Ratsionallashtirish – aslida mumkin bo'lmagan fikr, tuyg'u, xulq-atvorlarini oqlashga ishonchli sabablarni topuvchi himoya mexanizmi.

Intellektualizatsiya – bu himoya mexanizmi emotsional xis-tuyg'u va kechinmalarni bartaraf etish maqsadida namoyon bo'ladi. Intellektual zaxiralarni katta miqdorda qo'llashni taqozo etadi.

Kompensatsiya yoki sublimatsiya bu real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish harakati. Kompensatorlar harakat universaldir, chunki statusini egallash deyarli barcha insonlarning istagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - "Universitet" – 2002
2. Mavlonova R., Rahmonqulova N, Normurodova B, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". T,- 2010
3. Выготский Л.С. Психология. - М.: ЭКСМО - Пресс, 2000



INDIVID, SHAXS VA INDIVIDUALLIK

Pardayev Obidjon Hamza o'g'li

Kattaqo'rg'on tumani MMTV ga qarashli
74-maktabning amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odamlarga tegishli va aloqador bo'lgan individ, shaxs va individuallik tushunchalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: odam, tushuncha, individ, shaxs, individuallik, inson, tavsif, tur, ong.

Inson tabiatini o'rganishdagi eng dolzarb muammolardan biri ijtimoiy-biologik muammodir. Odam haqida gapirilganda bu so'zning uch xil mazmunini nazarda tutish mumkin: odam biologik tur sifatida-Homo sapiens, odam individ sifatida va odam ijtimoiy uyushgan insoniyat sifatida.

Odam tushunchasi inson individi uchun xos bo'lgan turga tegishli xususiyatlarni aks ettiradi va uning odam turiga mansub ekanligini ifodalaydi. "Odam" tushunchasida ong, til, mehnat bilan bog'liq biologik tuzilishga ega umumiy va turga xos belgilar qayd etiladi. Shuning uchun ham u individning eng umumiy va mavhum tavsifidan iborat hamda boshqa yuqorida keltirib o'tilgan tushunchalar bilan beriladigan qo'shimcha izohlarga zarurat paydo bo'ladi. Individ tushunchasi insoniyat turiga mansub alohida odamni aks ettiradi, u ayni paytda ham tabiat, ham jamiyatga tegishli bo'lganligi sababli ham, "organizm", "shaxs" degan tushunchalar bilan qayd etiladi. Agar ulardan birinchisi odamning biologik xususiyatlarini ifodalasa, ikkinchisi uning ijtimoiy qiyofasini aks ettiradi.

B.G.Anan'ev o'zining inson individini nazariy tavsiflash haqidagi nazariyasida quyidagi tushunchalar tizimini ilgari surdi:

- individ –shaxs (odam faoliyat va bilish jarayonining sub'ekti sifatida) – individuallik. «Individ – asosan insonning biologik xususiyatlari yig'indisi; shaxs – insonning ijtimoiy va psixologik xarakteristikasi: odam faoliyat va bilish jarayonining sub'ekti sifatida – uning bilish va prakseologik xususiyatlari yig'indisi; individuallik – individning barcha tomonlari sintezi».

B.G.Anan'ev individ tushunchasining mohiyatini to'la ochib berish uchun inson tabiatiga xos bo'lgan ijtimoiy va biologik xususiyatlarni bir butun holda qo'llashga muvaffaq bo'lgan. Individ tushunchasi bilan biz insonni biologik jihatdan yoki ijtimoiy jihatdan qabul qilishimizdan qat'iy nazar har qanday alohida kishiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Uning biologik tabiatini ifodalash uchun «organizm» tushunchasi qo'llanilib, insonning biologik mavjudot sifatidagi xususiyatlarining tizimli birligini aks ettiradi. Mavjud ta'riflarga ko'ra, "Individ- alohida, yakka holda qayd etilgan, u yoki bu usullarga asoslanib ajratib olingan predmet, har bir o'ziga xos mavjudot, o'z holicha mustaqil yashovchi tirik organizm, insoniyat jamoasidan farqli o'laroq alohida inson shaxsi". "Inson individi tushunchasi faqatgina insonlik turiga mansublikni ifodalaydi va o'z ichiga hech qanday aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikalarni olmaydi". Individ tushunchasi insoniyat turining alohida vakilini ifodalaydi va u tabiatga tegishli bo'ladi.

Shaxs eng ko'p mazmunli tushunchalardan bo'lib, uning bunday ko'p mazmunliligi tushuncha bilan emas, balki uni izohlash bilan bog'liq nazariyalarga aloqadordir. Eng muhim muammo qanday qilib mavjud turli ta'riflarni bir-biri bilan uyg'unlashtirishdir. Odatiy tasavvurlarda uchta birtomonlama yondashuvlar o'z aksini topadi. Birinchisiga ko'ra, "har bir odam shaxsdir" (shaxsning Homo sapiens bilan ekvivalentligi mezoni), ikkinchisiga ko'ra, "shaxs o'zining mustaqil maqomiga (pozitsiyasi) ega odam" (sub'ektivlik mezoni), uchinchisiga ko'ra, "shaxs- mashhur odam" (odamning jamiyatdagi o'rni mezoni). Psixofiziologik muammo shaxs psixologiyasidagi eng asosiy masala bo'lib, u shaxs va organizm munosabatlari masalasini transformatsiya qiladi (ko'chiradi).

Shaxs tushunchasi o'zida inson tabiatining ob'ektiv sifatlarining eng oliy xislatlari va birlashtiruvchi funksiyalarini aks ettiradi. SHaxs tushunchasi biz tomonimizdan odamga nisbatan uning rivojlanishidagi ma'lum bosqichlaridan boshlab qo'llaniladi.

Shaxsning ibtidosi individ ibtidosidan ancha kechroq boshlanadi. SHaxs shakllanishining tarixi individning ontogenetik evolyutsiyasiga ta'siri ontogenezning ma'lum bosqichida namoyon bo'ladi, hamda shaxsning ijtimoiy faolligi oshishi va hayotiy tajriba to'plashi bilan ortib boradi. Individning shakllanishi ontogenetik rivojlanishda ya'ni uning barqaror omillari ta'sirida genotipik xususiyatlarning yetilish jarayoni natijasidir. Aynan mana shunday talqin ko'plab zamonaviy nazariyalar uchun xosdir.

Shaxs- tarixiy jihatdan ta'minlangan aql-idrokka, jamiyat oldida mas'uliyatlilikka ega, muayyan



ichki sifatlari, huquq va erkinliklaridan foydalanuvchi, o'z sinfi va davrining ideallariga mos keluvchi hayot tarziga amal qiluvchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi odamdir.

Individuallikning mohiyati individning o'z borlig'iga ega bo'lishi, aynan o'zi bo'lib qolishi, boshqa yaxlit tizimda mustaqil faoliyat olib borishidir.

Odamning individualligi - har bir individning betakror, biroq u o'zining atrofidagi ijtimoiy birligidagi biror guruhga mansub bo'lsa ham o'zining mustaqilligini yo'qotmaydi, o'zligiga ega sub'ekt sifatida saqlanib qoladi. Individual o'zlik individuallikning barcha belgilarida aks etadi. Biroq individuallik betakrorligining tub mohiyati individning tashqi qiyofasi bilan bog'liq bo'libgina qolmay, balki faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga xos uslublarda ham namoyon bo'ladi. Individuallikni kishining jamiyatdagi hayot tarzining alohida shakli deb atash mumkin. SHaxs va individuallik tushunchalarini taqqoslar ekanmiz, ularni bir qatorga qo'yib bo'lmaydi, chunki individuallik shaxsning bir xususiyatidir. SHaxs tushunchasida odamning alohida individ sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari aks etadi. Biroq shaxsning mohiyati ijtimoiy munosabatlari personifikatsiyasi (shaxsiyatlashuvi) bo'lsa, alohida shaxs o'zining ijtimoiy mohiyatini individuallik shaklida namoyon etadi. Agar shaxs inson xususiyatlari tarkibining eng yuqori "cho'qqisi" bo'lsa, u holda individuallik shaxs va faoliyat sub'ekting eng chuqur tuzilmasidir. Individuallikdan, o'zligidan xoli shaxs mavhum va real mavjud bo'la olmaydi. Agar inson individi o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zlashtirmay turib shaxs bo'la olmas ekan, u holda individuallikka ega bo'lmay turib o'z borlig'ini ham topa olmaydi. SHunday qilib shaxs o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy, yashash usuliga ko'ra individualdir. Unda ijtimoiylik va individuallik, mohiyat va mavjudlikning birligi mujassamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - "Universitet" – 2002
2. Mavlonova R., Rahmonqulova N, Normurodova B, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". T,- 2010
3. Выготский Л.С. Психология. - М.: ЭКСМО - Пресс, 2000



UMUMIY O`RTA TA`LIMDA O`SMIRLARNI KASBGA YO`NALTIRISH ISHLARINI
MODELLASHTIRISH MASALALARI

Qazaqbaeva G.M.

Qoraqalpog`iston Respublikasi,
Qonliko`l tumani 20-son maktab
amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu tezisda umumiy o`rta ta`limda o`smirlarni kasbga yo`naltirish ishlarini modellashtirish masalalarining ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kasb, kasb-hunar, kasbga yo`naltirish, kasb psixologiyasi, model`, modellashtirish.

Ko`pchilik olimlarning izlanishlari natijalariga, ularning fiklariga ko`ra, umumiy o`rta ta`limda ijtimoiy-psixologik xizmat, ayniqsa kasbga yo`naltirish ishlari bola shaxsning to`g`ri shakllanishi uchun, uni har tomonlama himoya qilish, qo`llab-quvvatlashga yo`naltirilgan bo`lishi lozim [1].

Bu boradagi masalalarga mamlakatimizda ham befarq qaralayotgani yo`q, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishchi kasblar bo`yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2021 yil 8 iyundagi PQ-5140-son qarori asos bo`la oladi, unga ko`ra umumiy o`rta ta`lim muassasalarining yuqori sinf o`quvchilarini kasb-hunarga o`qitish, o`quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta`limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo`yicha mehnat faoliyati bilan shug`ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko`zda tutilgan va shu asnoda ishlar amalga oshirilmoqda.

Kasbga yo`naltirishni amalga oshirish uchun ijtimoiy-psixologik yondashuv juda o`rinli va quyidagicha belgilab qo`yilgan:

- rivojlantiruvchi diagnostika;
- kasbiy va shaxsiy o`shish treninglari;
- ijtimoiy-kasbiy rivojlanish monitoringi;
- psixologik kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari;
- kasbiy turmushning o`rnini bosadigan stsenariylarni loyihalashtirish;
- ijtimoiy-kasbiy kompetentlikni oshirish treninglari;
- kasbiy turmush va kasbiy o`shishni rejalashtirish va b.

Bizning nuqtai nazarimizcha, umumiy o`rta ta`limda o`smirlarni kasbga yo`naltirishda ijtimoiy-psixologik yondashuv quyidagilarni hisobga olishni taqozo etadi:

- jamiyatning imkoniyatlari va ehtiyojlari;
- pedagogik-psixologik ilmning salohiyati, ahvoli va amaliyot;
- o`smirlarning qadriyatlarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini darajasi.

Ushbu uchala ko`rsatkich kasbga yo`naltirish ishlarini ijtimoiy-psixologik yondashish asosida amalga oshirishning asosi hisoblanadi.

Kasbga yo`naltirishda ijtimoiy-psixologik yondashuvning tarkibi quyidagi aspektlarda o`z aksini topadi:

- *axborot* – bolani har xil zamonaviy kasblar, bilim yurtlari, tashkilotlar, mehnat bozori, o`z kasbiy o`shishini qanday ta`minlash mumkinligi haqidagi ma`lumotlar bilan ta`minlash;
- *diagnostik-maslahatli* – bolaning individual xususiyatlarini kasbning talablari bilan taqqoslagan holda, uning u yoki bu faoliyatga to`g`ri kelishini, muvofiqligini o`rnatish;
- *rivojlantiruvchi* – o`quvchilarda ma`lum bir kasbni egallashi va kelajakda ishga joylashishi uchun zarur kompetentsiyalarni shakllantirish;
- *faollashtiruvchi* – o`smirlarning o`z hayot va kasb yo`lini mustaqil va ongli ravishda qurishiga ruhan tayyorligini shakllantirish;
- *tarbiyaviy* – o`quvchilarda ma`lum bir kasbni tanlashi uchun qiziqish va harakatni, kasbga yo`nalishning uyg`onishini shakllantirish, kelajak kasbiga o`qish va amaliy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni amalga oshirishdan iborat.

Kasbga yo`naltirishni modellashtirish ishlari asosida umumiy pedagogik-psixologik tamoyillar yotadi, ya`ni: aniq reja, ketma-ketlik, maqsadga yo`nalganlik, talabchanlik, ob`ektivlik, individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish, shaxsiy javobgarlik va h.[2].

Kasbga yo`naltirish ishlarining samaradorligining eng muhim sharti bu, o`smirlarni kasbga



yo`naltirishda ota-onalar, ta`lim muassasasi pedagoglari, kasbiy-maslahatchilarning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Bu esa, pedagog-psixologga o`z ishini natijalarini kuzatishga, ishining bir butunligini va davomiyligini saqlashga yordam beradi. Bu kabi ijtimoiy-psixologik shartlarni amalga oshirish har qanday umumiy o`rta ta`limda o`smirlarni kasbga yo`naltirish ishlaridagi muammolarni hal qiladi.

Shunday qilib, o`smirlarni kasbga yo`naltirish ishlarining ijtimoiy-psixologik modelini yaratish davlat standartlariga muvofiq, mamlakatimiz va butun dunyo mehnat bozori va iqtisodiy vaziyatlarni, ijtimoiy buyurtmalarni tahlil qilgan holda ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Костюкова С.В. Социально-педагогические условия профессионального самоопределения старшеклассников в ЦО: дис. ... канд. пед. наук. М., 2001
2. Огерчук А.А. Профессиональная ориентация старших школьников в условиях профильного обучения: дис. ... канд. пед. наук. Оренбург, 2000.



YOSHLARNI KASBGA YO`NALTIRISHDA BUYUK AJDODLARIMIZ
TA`LIMOTLARINING AHAMIYATI

Qojanova G.J.

Qoraqalpog`iston Respublikasi,
Qonliqo`l tumani 17-son maktab
amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu tezisda yoshlarni kasbga yo`naltirishda buyuk ajdodlarimiz ta`limotlarining ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kasb, kasb-hunar, kasbga yo`naltirish, kasb psixologiyasi, yoshlar, buyuk ajdodlar, sharq mutafakkirlari, ta`limot.

Kasb-xunar egalari qadimdan e`zozlanib kelingan va ulug`lanadi. Bizning davlatimizda ularga nisbatan hurmat-ehgirom o`zligimizni anglash tufayli yanada jamiyatimizda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali, ma`naviyatli, mohir kasb egalari tobora ko`proq talab qilinmoqda. Ўzbekiston Respublikasi hukumati Qaror va Nizomlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda va ular haqida alohida g`amxo`rlik qilinmoqda. Shu bilan birga, tor sohadagi kasbdan asta-sekin keng qamrovli universal kasbga o`tish muammosi, g`oyasi ilgari surilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrda 792-son qaroriga muvofiq «Umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibi to`g`risida» nizom qabul qilingan. Ushbu Nizom umumiy o`rta ta`lim muassasalarining yuqori sinf o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Inson va jamiyat hayotidagi bunday muhim vazifani bajarishda har bir xalq, millat o`z ota-bobolari, ajdodlari tajribasiga suyanadi.

Sharq mutafakkirlari ta`limotida o`g`il va qizlarga ta`lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o`rgatish juda muhim o`rin egallaydi. Qadimiy an`analimizga binoan hunarmand va kasb, me`mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to`quvchi va nonvoy ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono xalqimiz «Ustozidan o`zmagan shogird — shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo`lmas», «Ustoz otangdek ulug`», «Ta`lim bergan ustozingdan ayrilma» singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo`lib ulg`ayishini orzu qilganlar.

Ajdodlarimiz ta`limotida o`g`il va qizlarga ta`lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o`rgatish g`oyasi ham muhim o`rin egallaydi. Bundan ko`rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo`naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo`lmay, balki azaliy muammo sifatida o`rganib kelinmoqda. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Sa`diy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-xunar to`g`risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta`lim- so`z va ko`nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo`lishini aytgan.

Forobiy ta`lim-tarbiya ishlarini ikki yo`l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. “Amaliy fazilatlar va amaliy san`at, kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlantirish masalasi”ga, bu odamda ikki yo`l bilan hosil qilinadi; bulardan birinchisi - qanotbaxsh so`zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so`zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g`ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. Ya`ni, bu zamonaviy til bilan aytganda, insonga motivatsiya berish singari so`zlardir.

Abu Rayxon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo`ladi. Og`ir mehnat siratida binokor, ko`mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e`tibor berish, xayrixoh bo`lishga chaqiradi, ularni ma`rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga xissa qo`shuvchilar deb biladi. Shu bilan birga og`ir mehnat qiluvchi konchilar er ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag`batlantirib turish kerak deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g`amho`r bo`lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat axli ular xukmronligining tayanchi deb ta`kidlaydi.

Beruniy bolalarni mehnatga o`rgatish metodlari, yo`llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o`rgatish kerak deydi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e`tibor berish kerakligini



ta`kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo`lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo`lgan xususiyatlargagina egadir, unga o`xshash insonlar kamdan- kam bo`ladi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligini ta`kidlaydi: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo`lsa-yu, ammo hunari bo`lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo`lur. Ulug`likni aql va bilim qiladur, nasl-nasab qilolmas. Ismni senga ota va onang qo`ymishlar, sen unga g`arra bo`lmagin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo`lg`il”. Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug`lanadi. Kasb-hunar o`rganishni bilim olish bilan qo`shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi.

Sa`diy bilim olish bilan birga hunarning xali inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki “Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, - deydi u, agar hunarmand molidan mahrum bo`lsa qayg`usi yo`qdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to`ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hami-sha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi”.

Bu - Sa`diyning inson uchun ilm-hunarning qay darajada ulug`ligini ta`kidlovchi fikrlarining ifodasidir.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo`nal-tirish borasidagi fikrlarni o`rganish, ularni amaliy hayotga tadbic etish, o`sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o`rgatish jami-yatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarning boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. O`quv qo`llanma. Tashkent.2010.
2. M.G.Davletshinning mas`ul muharririyati ostida Kasb psixologiyasi. O`quv qo`llanma. Tashkent. 2003.



Sankibaeva G.S.

Qoraqalpog`iston Respublikasi,
Qonliqo`l tumani 2-son
maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu tezisda yoshlarni kasbga yo`naltirishdagi ijtimoiy-psixologik muammolar, bu masalaga ijtimoiy-psixologik yondashuv masalalari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kasb, kasb-hunar, kasbga yo`naltirish, kasb psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik muammo.

Kasb tanlash - murakkab va qiyin vazifa. Kasb tanlash jarayonida inson o`z extiyojlari, orzu-umidlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa bir qator jihatlarni inobatga olishi kerak. Yuquvchilar bilan ularni kasbga to`g`ri yo`naltirish bo`yicha olib borilgan ishlar kelajakda etuk mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Kasbga yo`naltirish pedagogika va psixologiyada ilmiy yo`nalish sifatida XX asrning boshlarida evropa, AQSh va Rossiyada tan olinib boshlagan. Pedagogik-psixologik izlanishlarda kasbga yo`naltirish quyidagicha tushuntiriladi: kasbga yo`naltirish – bu davlat va jamoat tashkilotlarining, maktab, oilalarning maqsadga yo`naltirilgan faoliyati bo`lib, u shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlaridan kelib chiqib, jamiyat va mehnat bozori talablariga ko`ra amalga oshiriladi deyilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda, qolaversa butun dunyoda yangi zamonaviy kasblar, yangi yo`nalishlar, texnologiya asri hukm surmoqda. Shu nuqtai nazardan ham mamlakatimizda islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishchi kasblar bo`yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2021 yil 8 iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta`minlash hamda umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga o`qitish, o`quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta`limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo`yicha mehnat faoliyati bilan shug`ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan. Bu qarorda aynan maktab psixologlari uchun ham alohida vazifalar belgilab berilgan va bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kasbga yo`naltirish bo`yicha eng birinchi nazariyalarning biri bu, F. Parsonsning (1908) uch omilli modeli hisoblanadi. Unda aytilishicha inson o`z individual sifatlariga ko`ra faqat bitta gina kasba to`g`ri keladi [1]. Olim kasbga yo`naltirish ishlarining quyidagi bosqichlarini belgilab bergan:

- insonning individual xususiyatlarini o`rganish;
- odamga bo`lgan kasblarning talabini o`rganish;

- shu ikkala omilni taqqoslab aniq bir kasb haqida qaror qabul qilish. Kasbga yo`naltirishda F. Parsonsning modeli XX asrning 50-chi yillarigacha asos bo`lib xizmat qilgan. Keyinchalik olimlar kasb tanlashda qobiliyatlarni hisobga olish g`oyasini ilgari surgan.

Z. Freyd kasbiy faoliyatni insonning erta bolalik instinktlari va ehtiyojlarini qondirish shakli sifatida talqin qilingan [2]. A. Adler esa, insonning shaxs sifatida rivojlanishi va hayot tarzining shakllanishi uchun asosiy motiv sifatida namukammollik kompleksi va ustunlikga erishishga harakatni ko`radi, va buni uchta hayotiy vazifa qilib belgilaydi: ishlash, muhabbat va ijtimoiy muloqot [1].

A. Maslou kasbiy rivojlanish kontseptsiyasini ilgari surgan va insonning faoliyatda takomillashishga harakat qilishini aytgan. Psixologning fikriga ko`ra, kasbiy faoliyatga motivatsiyaning shakllanishining asosi: moddiy motivlar, muloqot motivi, kasbning nufuzi, bilish motivlaridir [2].

L. Reynol`ds, G. Shister va b. fikricha ustun keluvchi kasb tanlash motivlari, bular: haqiqiy o`zligini anglash motivi (shaxs sifatida tan olinishi, mustaqillik, o`zaro munosabatlarda haqgo`ylik, o`z fikrini bildirish imkoniyati); kasbga qiziqish (ish sharoitidan qoniqish, faoliyatning harxilligi); hayot kechirish motivlari (oylik maosh, mehnatning kafolati) [2].

E. Erikson Z. Freyda va A. Maslou g`oyalari asosida o`z kontseptsiyasini ilgari suradi, ya`ni individ rivojlanishining erta bosqichlarida ma`lum darajada qondirilmagan ehtiyojlar, keyinchalik kasbiy xulq-atvorda ko`rinuvchi, ustun keluvchi motivlarning shakllanishiga olib keladi [1].

D. S`yuperning kasbiy rivojlanish kontseptsiyasi juda keng tarqalgan bo`lib, olim kasbiy o`zlikni anglash jarayonini, har doim o`zgarib turuvchi tanlashlar sifatida qaraydi, va buning zahirida shaxsning «Men-kontseptsiyasi» yotishini aytib o`tadi (inson ulg`oyib borgan sari o`zgarib turishi) [1].



Shunday qilib, ilmda bu borada asosnoma yaratilgan bo`lib, unga ko`ra, insonning ijtimoiy-kasbiy o`zini anglashi butun umri davomida amalga oshadi va hayotning har bir yosh davrida o`ziga xoslikka ega bo`ladi.

Hozirgi vaqtda kasbga yo`naltirish ishlarida keng tarqalgan nazariyalar bu, «hodisaviy yondashuv» (N. Ginsbers) va «kasbiy hayot stsenariylari»(E. Bern), bularga ko`ra inson kasbni bolaligida otanasining ta`siri ostida qilingan qarorga asosan tanlar ekan.

Yuqoridagi nazariyalarni tahlil qila o`tirib, chet el olimlarining kasbga yo`naltirishning quyidagi qoidalarini ajratib olganligini ko`rishimiz mumkin:

- har qanday kasbiy faoliyat o`ziga xoslikka ega;
- kasbiy rivojlanish va kasb egasi bo`lish uzoq vaqt mobaynida amalga oshadi (bolalikdan) va butun umr davom etadi;

- kasb insonning o`z yo`lini topib ketishga imkon yaratadi;
- kasbga yo`naltirishga ijtimoiy shart-sharoitlar ta`sir qiladi;
- shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonini boshqarish mumkin va b.

Shunday qilib, kasbga yo`naltirishni kasb tanlashda insonni ijtimoiy-psixologik qo`llab-quvvatlash tizimi sifatida qarashimiz mumkin va bolalikdan kasbga to`g`ri yo`naltirish yo`llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учебное пособие. М., 2004.
2. Чернявская А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации. М., 2001.



МАКТАБДА ЕHTИМОЛЛАР НАЗАРИЯСИ БО‘ЛИМИНИ О‘РГАНИЛИШИНИНГ
ДОЛЗАРБЛИГИ

Toshmatova Xurshida Kaxxorovna

Namangan viloyat, Uychi tumani
2-son kasb -hunar maktabi matematika fani
o‘qituvchisi, tel: +998950671780.

***Annotatsiya.** Ehtimollar nazariyasi boshqa matematik fanlar kabi amaliyot ehtiyojlaridan paydo bo‘ldi va rivojlandi. U ommaviy tasodifiy hodisalarga xos qonuniyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.*

***Kalit so‘zlar:** matematika, ehtimollar nazariyasi, statistika.*

Uzoq davrlar mobaynida insoniyat o‘z faoliyati uchun faqat determinirlangan deb atalmish qonuniyatlarni o‘rganar va ulardan foydalanar edi. Biroq tasodifiy hodisalar bizning hayotimizga xohish irodamizdan qat‘iy nazar kirib kelgani va bizni doimo o‘rab turgani uchun hamda, ustiga-ustak, tabiatning barcha hodisalari tasodifiy bo‘lgani uchun ularni tadqiq qilishni o‘rganish va shu maqsadda tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarurdir. Tabiat va jamiyat qonunlari sababiy bog‘lanishlarning namoyon bo‘lish shakli bo‘yicha ikkita sinfga bo‘linadi: determinirlangan (oldindan aniq) va statistik.

Masalan, osmon mexanikasi qonunlariga asosan Quyosh sistemasidagi sayyoralarning hozir mahlum bo‘lgan vaziyati bo‘yicha ularning ixtiyoriy paytdagi vaziyati amalda bir qiymatli oldindan aytib berilishi mumkin, shu jumladan, Quyosh va Oy tutilishlari juda aniq bashorat qilinishi mumkin. Bu determinirlangan qonunlarga misol. Shu bilan birga hamma hodisalarni ham aniq bashorat qilib bo‘lmaydi. Masalan, iqlimning uzoq muddat davomida o‘zgarishlari, ob-havoning qisqa muddatli o‘zgarishlari muvaffaqiyatli bashorat qilishning obhoktlari bo‘la olmaydi, yahni ko‘pgina qonunlar va qonuniyatlar determinirlangan doiraga ancha kam darajada bo‘ysunadi. Bunday turdagi qonunlar statistik qonunlar deb ataladi. Bunday qonunlarga asosan, biror-bir tizimning kelajakdagi holati bir qiymatli emas, balki faqat mahlum bir ehtimollik bilan aniqlanadi. Ehtimollar nazariyasi boshqa matematik fanlar kabi amaliyot ehtiyojlaridan paydo bo‘ldi va rivojlandi. U ommaviy tasodifiy hodisalarga xos qonuniyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ehtimollar nazariyasi shart-sharoitlarning aniq bir majmuasini amalga oshirganda ko‘p marotalab qaytarilishga qodir bo‘lgan ommaviy tasodifiy hodisalarning xossalarini o‘rganadi. Tabiatidan qat‘iy nazar, ixtiyoriy tasodifiy hodisaning asosiy xususiyati uni amalga oshirishning o‘lchovi yoki ehtimoli. Biz kuzatadigan hodisalarni uchta turga bo‘lish mumkin: muqarrar, mumkin bo‘lmagan va tasodifiy. Muqarrar hodisa deb albatta ro‘y beradigan hodisaga aytiladi. Mumkin bo‘lmagan hodisa deb mutlaqo ro‘y bermaydigan hodisaga aytiladi. Tasodifiy hodisa deb ro‘y berishi ham, ro‘y bermasligi ham mumkin bo‘lgan hodisaga aytiladi.

Ehtimollar nazariyasi yakka hodisa ro‘y berish yoki bermasligini oldindan aytib berish vazifasini o‘z oldiga qo‘ymaydi, chunki tasodifiy hodisaga hamma shart-sharoitlarning tahsirini hisobga olish mumkin emas. Boshqa tomondan qaraganda, konkret tabiatidan qathiy nazar, yetarlicha ko‘p sondagi bir jinsli tasodifiy hodisalar tayin qonuniyatlarga, aniqrog‘i ehtimoliy qonuniyatlarga bo‘y-sunadi. Shunday qilib, ehtimollar nazariyasining predmeti ommaviy bir jinsli tasodifiy hodisalarning ehtimoliy qonuniyatlarini o‘rganishdir. XVII asrning boshlaridayoq ommaviy tasodifiy hodisalarga xos bo‘lgan bahzi-bir masalalarni tegishli matematik apparatdan foydalangan holda yechishga urinishgan. B.Paskal, P.Ferma va X.Gyuygens XVII asrning o‘rtalarida turli qimor o‘yinlarining kechishi va natijalarini o‘rgana borib, klassik ehtimollar nazariyasiga asos solishdi. Ular o‘z ishlarida ehtimollik va tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi tushunchalaridan oshkor bo‘lmagan holda foydalanishgan. Faqat XVIII asrning boshida Ya.Bernulli ehtimollik tushunchasini shakllantiradi. Ehtimollar nazariyasining keyingi muvaf-faqiyatlari Muavr, Laplas, Gauss, Puasson va boshqalarning nomlari bilan bog‘liq. Ehtimollar nazariyasining rivojlanishiga P.L.CHebshev, A.A.Markov, A.M.Lya-punov, S.N.Bernshteyn, A.N.Kolmogorov, A.Ya.Xinchin, A.Proxorov va boshqalar kabi rus va sovet matematiklari ulkan hissa qo‘shishgan. Akademiklar V.I.Romanovskiy, S.X.Sirojiddinov, T.A.Sarimsoqov, T.A.Azlarov, SH.K.Far-monov, professorlar I.S.Badalboev, M.U.G‘ofurov, Sh.A.Xoshimov kabi yorqin namoyondalari bo‘lgan O‘zbekiston maktabining ehtimollar nazariyasini rivojlantirishdagi alohida o‘rni bor.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, amaliyot ehtiyojlari ehtimollar nazariyasining paydo bo‘lishiga



ko'maklashgan, uning fan sifatida rivojlanishini tahminlaydi, yangi tarmoqlar va bo'limlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Vazifasi bosh to'plamga xos bo'lgan tavsiflarni tanlanma bo'yicha ma'lum bir ishonchlik darajasida tiklashdan iborat bo'lgan matematik statistika ehtimollar nazariyasiga tayanadi. Ehtimollar nazariyasidan tasodifiy jarayonlar nazariyasi, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi, axborot nazariyasi, ekonometrik modellashtirish kabi fan tarmoqlari ajralib chiqdi. Ehtimollar nazariyasini tatbiq qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotdir. Hozirgi paytda ekonometrik modellashtirish, regression tahlil, trend va silliqlovchi modellar hamda ehtimollar nazariyasiga tayanuvchi boshqa uslublardan foydalanmasdan iqtisodiy hodisalarni tadqiq va bashorat qilishni tasavvur qilish qiyin. Sug'urta zahirasi, rezerv quvvatlar, davlat zahiralari kabi iqtisodiyotda to'liq qaror topgan tushunchalarning mavjudligi iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlar determinirlangan emasligidan dalolat beradi, shu tufayli ular ehtimollar nazariyasini tatbiq etish doirasiga kiradi. Tasodif elementlarisiz rivojlanish umuman mumkin emasligini ham ta'kidlab o'tish zarur. Hayotning paydo bo'lishi va biologik turlarning takomillashishi, insoniyat tarixi, insonlarning ijodiy faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi tasodifsiz mumkin bo'lmay qolardi. Shunday qilib, iqtisodiyotda tasodifning namoyon bo'lishini voqealarning shakllangan oqimidan ijobiy tomonga (yangi ilmiy kashfiyotlarning, texnologiyalarning, ishlab chiqarishni yuritish va tashkil etish usullarining paydo bo'lishi va shu kabilar) ham, salbiy tomonga (tabiiy ofatlar, uskunalarning ishdan chiqishi, xodimlarning kasal bo'lishi va shu kabilar) ham chetlashish deb qarash lozim. Bu keyinchalik voqealar kechishining o'zini jiddiy o'zgartiradi. Jamiyat rivojlanishi bilan xalq xo'jaligi tobora murakkablashib boradi, shuning uchun dinamik tizimlarning rivojlanish qonunlariga asosan ijtimoiy iqtisodiy hodisalarni tavsiflovchi qonunlarning statistik xarakteri kuchayib borishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Mamatov M., Ibragimov R., Mashrabboev A., Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. T., O'z.Res. OO'MTV, 2008 y.



YOZUVCHI K.SULTANOVNING «AJINIYAZ» ROMANINI O‘QITISHDA
«BUMERANG» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Tobanazarov Azamat Pirnazarovich
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston
Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti
Qoraqalpog‘iston filialining
mustaqil tadqiqotchisi
+998913736286
Azamat-15@umail.uz

Annotatsiya.Maqolada muallif tomonidan qoraqalpoq adabiyoti darslarida yozuvchi K.Sultanovning «Ajiniyaz» romanini o‘qitish masalasi haqida so‘z etiladi va adabiyot darslarida ushbu romanni o‘rganishda «Bumerang» ta‘lim texnologiyasini qo‘llanishning o‘ziga xosligi, uning samaradorligi to‘g‘risida ilmiy fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar.Maktab, adabiyot darsi, nasriy asar, roman, bumerang texnologiyasi, kichik guruh, guruh a‘zosi, matn, samaradorlik.

Maktablarda qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o‘qitishda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol ta‘lim texnologiyalarning biri «Bumerang» hisoblanadi.Bu atama qadimda otish quroli nomidan kelib chiqqan.

«Bumerang» texnologiyasidan dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan materialni yoddan saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lish hamda o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olish, darslik va matn bilan ishlashda, amaliy mashg‘ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg‘ulotlari hamda bahs-munazaro shaklidagi darslarda foydalanish mumkin.

Mashg‘ulotda tinglovchi mustaqil o‘qishi, o‘rganishi va o‘zlashtirib olishi uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallar (qisqa matn, suratlar, ma‘lumotlar)dan foydalanish kerak bo‘ladi. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- ta‘lim oluvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- ular darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- guruhlariga mustaqil o‘rganish uchun mavzu matnlari tarqatiladi;
- berilgan matnlar guruhlar tomonidan o‘rganiladi;
- har bir guruh a‘zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh a‘zolarining har biri guruh uchida navbati bilan o‘rgangan matnlari asosida axborot almashadi, ya‘ni bir-birlariga so‘zlab beradilar va matnni o‘zlashtirib olishlariga ergashadilar;
- berilgan ma‘lumotlarni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o‘tkaziladi, ya‘ni guruh a‘zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a‘zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- o‘quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga savol va topshiriqlar bilan murojaat etadi, og‘zaki so‘rov o‘tkazadi;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to‘plagan umumiy ballari aniqlanadi;
- har bir guruh a‘zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holda bittadan savol tuzadi;

-guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi.[1,15]

Umumta‘lim maktablarning 9-sinf «Qoraqalpoq adabiyoti»dasturi va darsligida yozuvchi K.Sultanovning «Ajiniyaz» romanini o‘qitish nazarda tutilgan.[2,]da ARomanni ushbu ta‘lim texnologiyasi asosida quyidagicha o‘rgatish mumkin:

o‘quvchilardan 3-4 ta kichik guruh tashkil qilinib,har bir guruhga darslikdagi matndan ma‘lum qismlarni mustaqil o‘rganish topshiriladi.1-guruhga:

«...Ajiniyaz ustazi Elmurat axunni kelbetine ara-tura kózini qiyigin salıp otr. Eti semip, kózlerini nuri aqquwaq tartıp, betini almasında, urtında ajim sızıqları ayqush-uyqish bolıp baratır eken. «Ustazım qartayıptı-aw!» dedi ishinen.

—Jańa sizge barıp, sabaq alıp qaytayın dep otr edim—dedi shákirt.

—Háy, bizdegi bar gáwhardı sarqıp aldın ğoy. Násiyb etsin balam! Endi esitken, sezgen ilim-óner bolmasa, bar ilimimdi berdim, sizge balam! Endi sol hasıldı qalay jumsayman deseń, erik ózińde...



Ustazdin shakirtke artqan bul ulken umitin ziyrek zeyinli bala da tusinip, «qulliq ata!» dep orninan turip otirdi. Juzi qapelimde borlattay donip ketti. Quwanish epkininen juregi de ajeptawir soqti. Bul, — ustaz aldindaagi adepli shakirttin algisqa miyasar bolgan waqittagi jurek tolqiw edi.

—Bilimni saqasi joqari jaqta, balam!-dedi axun salmaqli soylep.—Awa. Xiywada, Buxarada, Samarqandta... Nawayi, Fizuli, Bedillerden kop bilim alasañ. Onnan arı ketseñ Jamiydiñ satirleri, Hafizdiñ almastay gazzelleri, Saadiydiñ hikmetleri, Omar Hayyamniñ tamasha rubayilari, Abiw Rudakiydiñ, Abiw Ibn Sina menen Al Beruniydiñ ilimiy tagliymatlari. Sizdi jetti qat alemge tanis qila beredi... Biraq, medresege barmasañ, Bozatawda otirip Jamiy, Saadiylardi oqip tusine qoyarma ekenseñ? Bagana aytım goy. Kitap gaziynesi, ilim bulağı,—ush tilde: arab, parsi, turk tillerinde. Bul tillerdi uyrenbey, otken danishpanlardiñ gaziynesin asha almassañ, balam! Meni ustaz dep siylasañ, bergen keñesimdi tark etpeseñ, Xiywa ya Buxaranıñ medresesine barıp, bir-eki jul talim alıp qayt. Ilimdi suwday ishken neshe mudarrisler sonda, Iraniy, arabiy, turkey shayirlardiñ ne qiyli «diywanlari» sonda, medresede balam. Barsañ patriya bereyin! »

2-guruhga: «Inisi Shaniyaz kirip keldi.

-Ajağa, seni atam shaqırıp atır.

-Hazir baraman,-dep Ajiniyaz shapanın iynine jelbegey salıp, ulken uyge kirip bardı. Qosıbay torde kitap ashıp otir eken. Nurjamal qazan oshaq jaqta qap jamap otir. Salem berip kirgen balasınıñ kelbetine jalt qaradı. Akesiniñ kóziniñ nurı salqın. Sheshesi de uwayımlı kisiniñ pishiminde. Kewilsiz aldındaagi xızmetinde ıqlassız islep otir. Ajiniyaz on japsarğa barıp otirdı. Qosıbay balasınıñ qas-qabağınan, ajarınan alle qanday bir narseniñ sezigin tapqısı kelip, sinshil kózlerin qadap otir.

-Balam, otken aqsham qayda boldıñ? Tañ atqanda kelip jattıñ goy...

-Qıdırdıq ağa, biymezgil qayttım.

-Amanlıq qıdırıspa ma edi?

Tap usı jerde Ajiniyaz ushin Nurjamal bolsa ketti. Baganadan beri Qosıbaydiñ erjetken balasına bergin sorawın jonsız korip otirgan ol, Ajiniyaz agasına qattı sóz aytıp salama dep qaweterlenip otir edi. Qosıbayga kiyligip soyledi:

-Balañdı qashangı baylap qoyasañ? Shukir jigıt bolıp kiyatur. «Biymezgil nege keldiñ?» dewge qız emes. Erkek bala... Mereke-meyliske bargan shıgar.»

3-guruhga: «Qosıbay ejeskennen natiyje shıqpaytuğın sezdi de, gaptiñ ushin basqa jaqqa burdı.

-Erjannıñ qarındasın uzatıp baratırğanda bir topar adamlar talap, alıp qashıptı goy. Onı esittiñ be?

-Esitpedim ağa! Kim uzatıp alıp baratır eken?-Ózine qayta soraw berdi. Qosıbay ızalı turde ishinen: «Sen aman emesseñ goy!» dep teris qaradı. Bir-birin bir maydan qas-qabaq penen bagısıp otirdı. Akesi tağı jañagı gapke ushqın shıgardı.

-Bugin ustazın keldi me?

-Kelip ketti.

Balasına gına tağa almağan soñ, pak juzine qarap otirip: «Keterde irenjitpeyin!» degen Qosıbaydiñ júreginde atalıq rehım payda boldı.

-Balam!

Men aqılsızlıq etip jasımda medreselerge tuse almadım. Namentay molla bul kuni awılda da kop. Awıldıñ mektebin tawıstıñ. Endi Xiywağa barıp, oqip qaytsañ qaytedi. Ustazın menen ekewimiz usılay oylasıp edik.»

4-guruhga: «Ajiniyaz akisiniñ Xiywağa jiberiwdegi maqset-miyzamin jana tusindi. Ol eldi qiymay qansha tawlansa da akisiniñ oqıwga alañ bolsın dep alısqa jiberip atırğan oyın tusinip, «awılda tartıs, daw-janjeldiñ arasında óskennen, ilim alganda abzal goy!» degen ataniñ keñesin maqul kórdi.

-Boladı ağa! Oqıyın. Xiywağa ma, Buxarağa ma?-Házirshe jaqın jer-Xiywa maqul bolar.

Nurjamal, «nege kelisim berdiñ!» degen dey, balasına odırayıp qaradı. Onnan soñ erine bir alarıp qarap, gubirlenip toñqıladı:

-Qarshaday balanı ata-ana bilmeytuğın jitirim bir jurtqa jiberip... Bas awırıp, baltır sizlari bar... Xiywağa atlı ketkende yarım aylıq jol.

Ajiniyaz küle shıray berip, jimıydı.

-Qoy apa! Quday miynet bereyin dese, uydegi barma, dúzdegi barma. Jorgekke salıp saqlaganda tappay ma! Ustazınnan patriya alıp qoydım. Barayın!»

O'quvchilar o'z guruhida matnlarni diqqat bilan o'qishadi. So'ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a'zolari o'z lari o'qigan matnlarni sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlr ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So'ngra guruh a'zolari oldingi holatdagi



guruhlarga qaytishadi. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Savolga to'liq javob olinsa 3 ball, toliq bo'lmasa 2 ball, boshqa guruh to'ldirsa 1 ball beriladi. Har bir guruhga 3-4 tadan savol beriladi.

Birinchi guruhga berilgan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Ushbu parchada kimlarning obrazi (ruhiy holati, insoniy fazilatlar) tasvirlangan?*

2. *Geografiya, tarixdan olgan bilimlaringiz asosida keltirilgan tarixiy shaxslar va yer atamalarga qo'shimcha izoh keltiring.*

3. *Ajiniyaz shoirning ustoziga bo'lgan ijobiy munosabat bilan hozirgi paytdagi ustoz shogirt munosabatini ko'rish yoki uchratish mumkinmi?*

4. *Sizningcha, kitob g'azinasini, ilm bulog'i nimada deb bilasiz?*

Ikkinchi guruhga berilgan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Ushbu parchada nima tasvirlangan?*

2. *Ajiniyazning oilasidagi xafagarshilikning sababini aniqlang.*

3. *Matndagi «Akesiniñ kóziniñ nurı salqın.» degan satrlardan qanday ma'noni anglash mumkin?*

4. *Ajiniyazni otasi terigagan vaqtda onasi Nurjamalning: «-Balañdı qashangı baylap qoyasañ? Shükir jigıt bolıp kiyatur. «Biymezgil nege keldiñ?» dewge qız emes. Erkek bala... Mereke-meyliske bargan shıǵar.» deb bildirgan fikrlarga sizlar qoshilasizlarmi yoki boshqa fikrdasizlarmi?*

Uchinchi guruhga berilgan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Qosibay nimaga gapni boshqa tomonga burdi va o'g'lidan gumon qildi?*

2. *Uchinchi lavhaning ikkinchi parcha bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari borligini tushundiring.*

3. *Qosibay o'g'li Xivaga yuborishdan ko'zlangan maqsadini aniqlang.*

4. *«Námentay» so'zining ma'nosini toping.*

To'rtinchi guruhga berilgan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Ajiniyaz otasining qanday maslahatini o'ziga ma'qul ko'rdi?*

2. *Ajiniyazning onasi «Qarshaday balanı ata-ana bilmeytuǵın jitirim bir jurıtqa jiberip... Bas awırıp, baltır sizları bar... Xiywaǵa atlı ketkende yarım aylıq jol.» dep aytgan fikrlari neshog'li haqiqatga yaqin?*

3. *Ajiniyaz shoirning ota-onasining obraziga qanday ta'rif bergan bo'lar edingiz.*

4. *Agar Ajiniyaz ustozidan fotiha olib qoygan bo'lsa o'qishga ketishi shartmi?*

Keltiriladigan savol va topshiriqlar konseptual xarakterda bo'lishi maqsadga muvofiq. Ularga javob berish uchun o'quvchilar matnni diqqat bilan o'rganishlari, bu va boshqa fandan olgan bilimlarini tadbiiq etish orqali ushbu nasriy asarni va undagi badiiy jozibadorlikni o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

Umuman olganda, maktablarda qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o'qitishda ushbu ta'lim texnologiyasidan foydalanganda adabiyot fani o'qituvchi sidan o'z fanini qay darajada bilishi, his etishi, pedagogik texnologiya hamda interfaol metodlarning ma'nosi, qo'llanish o'rni va imkoniyatidan yaxshi xabardor bo'lishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, umumta'lim maktab qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o'qitishda samali ta'lim metodlarini qo'llanishning amaliy tamonlariga ham diqqat qaratilgan holda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Til va adabiyot ta'limi» olindi. Qodirov V, Shodmonova M. Mumtoz adabiyot sabog'i uni o'qitishning yangi parametrlariga solish mumkin(mi). 2014-yil, 2-son, 15-bet.

Яркинова Б.Б. Адабиёт дарсларида «Блиц-сўров» ва «Бумеранг» таълим усулларида фойдаланиш масалалари. «Замонавий таълим» журнали, 2019, 32-38-бет.

2. Mámбетниязов Т ҳам басқалар. Áдебиýт. 9-класс ushın sabaqlıq. Nókis, «Bilim», 2019, 38-45-bet.

Султанов К.Эжинияз романы, Nókis, «Bilim», 2018-жыл, 336-бет.



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SPORT FAOLIYATI SUBYEKTLARI O'RTASIDAGI MULOQOTDA XARAKTER VA QOBILIYAT.

Maxmudov Nurilla Normirza o'g'li.

NamMQI "Jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti.
nurillo.mahmudov.2023@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sport bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida tashkil etiladigan muloqot jarayonida ularning xarakteri va qobilyatining sport natijalariga salbiy va ijobiy ta'siri bo'yicha nazariy va ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z. aloqa mexanizmi; ruhiy infeksiya; taklif; e'tiqod; taqlid qilish; psixologik ta'sir; boshqa odamlarning ta'siriga qarshilik; tashabbuskor.

Konflikt (lotincha contractus — to'qnashuv) — ziddiyatni ifodalash shakli; Bu sport faoliyatining ikki yoki undan ortiq subyektlarining o'zaro ta'siri bo'lib, ular bir-birini istisno qiladigan maqsadlarga ega bo'lib, ularni bir-birining zarariga (yoki biri ikkinchisi hisobidan) amalga oshiradi.

Sportdagi konfliktning tarkibiy qismlari.

1. Konflikt subyektlari - bu qandaydir umumiy maqsad (konfliktning individual va jamoaviy sub'ektlari) bilan birlashgan shaxslar yoki shaxslar guruhlarini.

2. Konflikt manbai - har doim qarama-qarshi manfaatlar, maqsadlar yoki ehtiyojlarni ifodalovchi vaziyat yoki holatdir.

3. Mojaroning asosi - har doim kelishmovchilikning sababidir.

4. Konflikt zonasi - bu nizolarning o'zaro ta'siri sodir bo'ladigan hudud. Mojaro zonasining torayishi yoki kengayishi da'volarga, talablarga, umidlarga bog'liq

Da'vo - konfliktning izohli manbasining shaxsiy yoki pozitsion xarakteristikasi. Da'vo - muayyan harakatlarni talab qilish yoki muayyan vaziyatlarni ta'minlashdan iborat tushuncha. Da'volarni qabul qilish - bu imtiyoz; o'zaro yon berishlar murosaga kelishdir. Kutish - taklif va da'voni muvozanatlash. Kutishlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy umidlar nizoni hal qilishda konstruktiv harakatlarni nazarda tutadi - nizolashayotgan tomonni tushunish, nizoni har tomonlama hal qilishga urinish. Salbiy umidlar konfliktdagi buzg'unchi harakatlarni - beparvo da'volarni, mojaro qo'zg'atuvchilarining kuchayishini nazarda tutadi.

5. Sababi - konfliktning amaliy motivi (mojaro manbasini o'zgartirish).

6. Voqea - nizo rivojlanishidagi tetik mexanizmining roli.

Voqealarning turlari.

1. Obyektiv sabab - u yoki bu fakt; niyatsiz harakat.

2. Subyektiv sabab - qasddan qilingan harakat bo'lib, uning maqsadi ziddiyatni (provokatsiyani) kuchaytirishdir. Provokatorning o'zi qurbon bo'lishi mumkin.

Yu.L. Xanin, o'yinning o'zaro ta'siri jarayonida bizga ikkita sabab guruhini aniqlashga imkon berdi:

- berilgan vaziyatda kerakli yoki maqbul harakatni bajarmaslik - 59 ta holat. Bular: a) harakatlar; b) transferlar; c) tanlash; d) masalaga munosabat;

- zarur yoki kerakli harakatni noto'g'ri yoki yomon bajarish - 66 ta holat. Bular: a) uzatmalar; b) zarbalar; v) to'pni qabul qilish; d) hujumning sekin yoki kech boshlanishi; e) darvozabonning harakatlaridagi xatolar.

Shu bilan birga, ziddiyatli vaziyatlarda o'yinchilarning murojaatlari va hissiy reaksiyalari mazmunida xulq-atvor, harakatlar va ularning natijalari (60,8%), so'ngra berilgan sharoitlarda harakat qilishning maqbul variantlari bo'yicha takliflar (60,8%) muhim ahamiyatga ega. 16,4%, keyingi o'yin epizodida talab qilinadigan harakatlar modelini qurish (13,6%) va nihoyat, nomaqbul yoki nomaqbul deb hisoblangan harakatlarning boshqa variantlarini istisno qilish (9,2% hollarda).

Bu yerda shaxslararo muloqotning ijtimoiy nazorat kabi funksiyasi aniq namoyon bo'ladi.



Birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining barcha murojaatlari, ayniqsa mazmuni baholovchi-ifodali toifaga (salbiy va ijobiy) tasniflanishi mumkin bo'lgan murojaatlar, o'z mohiyatiga ko'ra, salbiy va ijobiy cheklovlarning turli shakllari hisoblanadi. Ular nomaqbul xatti-harakatlar va harakatlarni taqiqlash va bostirishga xizmat qiladi va kerakli va zarur bo'lgan narsalarni rag'batlantiradi. Jamoaning uyushgan o'zaro ta'siri rasmiy ravishda qabul qilingan va yozilmagan qoidalar va me'yorlarga asoslanadi, ular muayyan vaziyatlarda sheriklarning mo'ljallangan va kutilgan xatti-harakatlari va harakatlarini tartibga soladi. Buning yordamida qo'shma faoliyatning har bir ishtirokchisi o'zini qanday tutishi yoki harakat qilishi kerakligini biladi (ya'ni, boshqalar undan nimani kutadi) va boshqalardan uning xatti-harakatlariga qanday munosabatda bo'lishini kutishi mumkin.

Sport faoliyati subyektlari o'rtasidagi aloqada namoyon bo'ladigan konfliktogennarning turlari:

1) ustunlikka intilish (buyruqlar, tahdidlar, maqtanish, qat'iylik, tanqid qilish, masxara qilish, javob berish, suhbatdoshning so'zini bo'lish, ma'lumotni yashirish, eslatish);

2) tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi. Tabiiy tajovuzkorlik barqaror xarakterli xususiyatdir. Vaziyat tajovuzkorligi - qabul qilingan konfliktogenga javob;

3) xudbinlikning namoyon bo'lishi. Egoizm - bu o'z ehtiyojlarining boshqa odamlarning manfaatlaridan ustunligini tavsiflovchi insonning qadriyat yo'nalishi.

Agar yuqoridagi barcha komponentlar sport faoliyati sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarda mavjud bo'lsa, u holda konflikt o'z hayotini yashay boshlaydi va o'z qonuniyatlari bo'yicha rivojlana boshlaydi (konflikt qonunlari uning ishtirokchilarining xatti-harakati va muloqot xususiyatlarini boshqaradi).

Sport faoliyati subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan nizolar juda xilma-xil bo'lishi mumkin.

E.V. Andrienko quyida bir nechta muloqot jarayonida paydo bo'luvchi to'siqlar haqida to'xtalib o'tadi.

1. Tushunmaslik to'siqlari: fonetik, semantik, stilistik, mantiqiy va boshqalar. Sport faoliyati sub'ektlari o'rtasidagi muloqotdagi bunday to'siqlar xabarlarini uzatishning turli xil ramziy vositalari bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Fonetik to'siqqa misol sifatida turli tillardagi muloqot, turli darajadagi rivojlanish va ma'ruzachilar nutqini o'zlashtirish mumkin.

Semantik to'siq odamlar nima sababdan aytilayotgan gapning ma'nosini tushunmasalar (masalan, sportchilar o'z nutqlarida yangi jamoa o'yinchilariga tushunarsiz bo'lgan kalit so'zlardan foydalanadilar) paydo bo'ladi.

Stilistik to'siq ma'lumotni taqdim etish uslubidagi farq bilan belgilanadi, ya'ni. fikrlarni ifodalash uchun tildan foydalanishning turli usullari. Biz hissiylik, ko'tarilish, imo-ishoralar, boy ovozli variatsiyalar va jo'shqin baholar bilan ajralib turadigan ekspressiv uslub haqida gapirishimiz mumkin. Uslublar, odatda, turli xil aqliy funksiyalarga nisbatan chap va o'ng yarim sharhlarning o'ziga xosligining maxsus hodisasi sifatida inson miyasining funksional assimetriyasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Makhmudov N. N., Makulov S. H. Z. Forms and methods of independent learning //В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с. – 2020. – С. 167.

2. Boltaeva M., Makhmudov N. FORMS OF INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PHYSICAL TRAINING CLASSES AND WAYS OF THEIR USE //Scientific bulletin of namangan state university. – 2019. – T. 1. – №. 2. – С. 302-306.

3. Boltaeva M. L., Mahmudov N. EMERGENCY INSTEAD OF MATERNITY EDUCATION PROCESS DEVELOPING TRAINING ACTIVITIES //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2019. – T. 1. – №. 6. – С. 456-459.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

DETERMINING THE EFFECTIVENESS OF ANTISEPTIC ROOT CANAL
TREATMENT FOR CHRONIC APICAL PERIODONTITIS OF TEETH

Samatov ulugbek abdimazhitovich

Andijan state medical institute Department of
orthopedic dentistry and orthodontics

UDC 616- 093/- 098

contact number: +998902541127

e-mail: madamin.samatov94@mail.ru

Abstract: currently, much attention is paid to endodontic treatment of teeth for various forms of apical periodontitis. Complications of caries such as pulpitis and periodontitis are common dental pathologies, and a common cause of inflammatory diseases of the maxillofacial area are teeth with poorly processed or obturated root canals.

Key words: endodontic treatment, apical periodontitis, pulpitis, Belodez solution

Relevance: currently, much attention is paid to endodontic treatment of teeth for various forms of apical periodontitis. Complications of caries such as pulpitis and periodontitis are common dental pathologies, and a common cause of inflammatory diseases of the maxillofacial area are teeth with poorly processed or obturated root canals [2,3,7]. The etiological factor in the occurrence of apical periodontitis in the vast majority of cases is microflora. In the root canal system and periapical tissues, it is represented by associations of various types of conditionally pathogenic microorganisms: various types of staphylococci, streptococci, spirochetes and others. Anaerobic microflora also takes a certain place in the pathogenesis of periodontitis, for the growth of which favorable conditions arise in the root canals. In addition to these microorganisms, various types of fungi of the genus *Candida* and protozoa are found in root canals [1,2,3]. Therefore, one of the necessary conditions that determines the effectiveness of endodontic therapy is antibacterial treatment of the root canals of the tooth, providing an active effect on flora of macro- and microchannels through specially designed antiseptics [4,6].

Purpose of the study : to determine the effectiveness of antiseptic solutions on the flora of the root canal in chronic apical periodontitis . A study was conducted of the qualitative and quantitative composition of the microflora of the root canals of teeth in 30 patients in aged from 25 to 45 years, without somatic pathology. The antiseptic effect of three solutions was studied: 3% Belodez solution , 2% sodium hypochlorite solution, 3% hydrogen peroxide solution . For comparison influence of medicinal solutions on the microflora of root canals teeth, microbiological examination was carried out before and after root canal treatment. The results of a study of the contents of the root canals of teeth show that representatives of obligate and facultative anaerobic flora were predominantly isolated. Application 3% Belodez solution for root canal treatment leads to a significant reduction in microbial contamination in the root canal system of teeth.

Materials and methods : the study was carried out at the Department of Orthopedic Dentistry and Orthodontics. In number The subjects included 30 people, aged from 28 to 45 years, without somatic pathology, who were divided into two groups: 1st group There were 15 people diagnosed with chronic granulating periodontitis, The 2nd group consisted of 15 people diagnosed with chronic granulomatous periodontitis of the teeth. The study of the microflora of the root canal was carried out before and after treatment of the root canals with antiseptic solutions: 3% Belodez solution , 2% chlorhexidine solution bigluconate , 3% peroxide solution hydrogen. The contents of the root canals of the teeth were sown on a nutrient medium (5% blood agar) [5]. The results obtained were expressed through the decimal logarithm (lg) of the number of colony-forming units (CFU), frequency of occurrence in % .

Results : Thus , monoinfection was found in 10 patients and 30 subjects, which amounted to



33.3%. In the 1st group of patients Streptococcus was isolated by 40% of those examined, Enterococcus faecalis 20%, Candida - 20%, Fusobacterium 20%. Bacterial contamination root channels ranged from 5.1 ± 0.3 g CFU/ml. In the 2nd group patients Streptococcus 33.3%, Enterococcus faecalis 20%, Candida 33.3%, Peptostreptococcus niger 13.3%. Microbial contamination of the root canal contents was 6.1 ± 0.3 g CFU/ml. The next stage of our work was to compare the quantitative and qualitative composition of the microflora of the root canal of the 1st and the 2nd group of patients with chronic granulating and granulomatous periodontitis of teeth obtained before and after canal treatment teeth with 3% Belodez solution, 2% solution of chlorhexidine bigluconate, 3% hydrogen peroxide solution. After treatment with the studied antiseptic solutions, 50% of patients in the root canals of the teeth experienced complete sterility of microflora. Bacterial contamination of the root canals of teeth in patients with chronic granulating and chronic granulomatous **periodontitis** before and after treatment with antiseptics for disinfection **from** root canals (lg KOE/ml). Comparative analysis of the results of using 2% solution chlorhexidine and 3% hydrogen peroxide solution, allowed us to establish that microbial contamination under the influence of 2% hydrogen peroxide solution decreased less than 2 orders of magnitude. Eradication was observed in only 40% of cases, microbial contamination decreased by less than 2 orders of magnitude, and total defertility of microflora was also observed in 40% of cases. Thus, the microbiological studies carried out showed that in the contents of root canals in chronic apical periodontitis, representatives of facultative anaerobes and aerobic microorganisms are most often sown resistant representatives of facultative anaerobes (Enterococcus faecalis, Staphylococcus epidermalis, Staphylococcus haemolyticus). Based on From the data obtained, it was concluded that the use of Belodez at a concentration of 3% for the treatment of chronic apical periodontitis leads to a statistically significant decrease in microbial contamination in the root canal system of teeth ($P < 0.05$).

Literature:

1. Arutyunov S.D., Nosik A.S., Margaryan E.G., Tsareva T.V. Features of the microflora of root canals in different forms of periodontitis. //Sat. Proceedings of the IV All-Russian Scientific and Practical Conference "Education, science and practice in dentistry"/responsible. ed. I.Yu. Lebedenko/ - M., - 2007. - P. 192.
2. Batyukov N.M. Experience in the treatment of apical periodontitis/Ways development of dentistry: results and prospects (Conference materials dentists), Ekaterinburg, 1995, p. 69-72.
3. Budevskaya T.V. Justification for choice and rational use antiseptics for the treatment of apical periodontitis: Abstract dis ...cand. honey. Sci. Minsk, 1993. - 18 p.
4. Budaevskaya T.V. Microorganism sensitivity indicators to antiseptics for apical periodontitis / Dentistry, 1989, No. 3, p. 18-19
5. Gerasimova L.P., Aletdinova S.M., Sorokin A.P. Collection method material for bacteriological examination from the root canal and periapical area of the tooth in chronic apical periodontitis // Official bulletin "Inventions. Utility models". - M. - 2013 - No. 6.
6. Korzhenkova M.P., Matyshev N.A., Chekasova V.V. "Application OCTENISEPT in the complex treatment of patients with diphtheria and for the sanitation of bacteria carriers ." Report at the 2nd Russian National Congress "Man and Medicine." M. 1994, 11 p.
7. Mitronin A.V., Tsareva T.V., Nikolaeva E.N., Mitronin V.A., Fomicheva E.M. Evaluation of the antimicrobial activity of calcium hydroxide in treatment of periodontitis // Dental forum . M-2004 -№1.-p.9-13 .



OUR EXPERIENCE OF USING OSTEOGENON IN THE TREATMENT OF
CHRONIC GENERALIZED PERIODONTITIS

Samatov ulugbek abdimazhitovich

Andijan state medical institute

Department of orthopedic dentistry and orthodontics

UDC 616.313.616.31

contact number: +998902541127

e-mail: madamin.samatov94@mail.ru

Abstract: dentists are paying increasing attention to the problem of systemic osteoporosis. For periodontists, the problem of choosing effective therapy for generalized periodontitis is acute. At this causes loss of bone tissue, while the main task of the periodontist is to slow down its destruction to prevent tooth loss. Although studies on the connection between mineral metabolism and periodontal diseases are numerous, their results are quite contradictory, which determines the need for additional study and detailed analysis.

Key words: systemic osteoporosis, periodontal damage, osteogenon, skeletal mineralization

Relevance: dentists are paying increasing attention to the problem of systemic osteoporosis [1,5,6]. For periodontists, the problem of choosing effective therapy for generalized periodontitis is acute. At this causes loss of bone tissue, while the main task of the periodontist is to slow down its destruction to prevent tooth loss. Although studies on the connection between mineral metabolism and periodontal diseases are numerous, their results are quite contradictory, which determines the need for additional study and detailed analysis [2,3,4,8]. At present, we can only say with confidence that with a decrease in skeletal mineralization, pathological changes in the periodontium intensify, but there is no information in the literature on the relationship between the severity of osteoporosis of the entire skeletal system and the degree of periodontal damage. Pharmacological treatment of osteoporosis is an important component of the complex treatment of patients with generalized periodontitis. However, doctors are often faced with a lack of information about drugs and treatment regimens, and patients are often faced with severe side effects when treated with them. In connection with the above, our attention was drawn to the drug “Osteogenon”. Clinical studies in patients with steroid osteoporosis showed prevention of the development of new limb fractures, increased density of the bone structure of the vertebrae, and a decrease in biochemical parameters of bone resorption [7].

Purpose of the study: to analyze the indicators of the periodontal status of patients with chronic generalized periodontitis during treatment with Osteogenon .

Material and methods: to achieve the purpose of the study, 30 patients with active chronic generalized periodontitis (17 women and 13 men. The average age of the examined were 52.3 ± 3.5 years) were examined at the Department of Orthopedic Dentistry and Orthodontics. During the clinical study In these patients, a decrease in bone tissue density was detected (ultrasound densitometry of the radius was performed), osteopenia was determined in 73.3% (22 people) , osteoporosis was determined in 26.7% (8 people).

The clinical study included examination, probing, and determination of the depth of periodontal pockets. To determine the stage of the disease, the Russell periodontal index (PI) was used, which takes into account the severity of periodontal damage (bone destruction). Svrakov's test (Svrakov's iodine number) - to identify the inflammatory process in the soft tissues of the periodontium. The study of the depth of periodontal pockets was determined using the Ramfjord index . Patients underwent professional oral hygiene, training in hygienic skills with quality control of plaque removal.

